

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

# 2022

**ERNEST XEMINGUEY**

(1899-1961)

*Chol qushlar va ayniqsa, belinim oziq  
axtariib uchgan, ammo deyarli hech qachon  
uni topolmaydigan jumboq va nozik dengiz  
qaldirg'ochlariga achilib ketar va qushlar  
turmishi, qirin-qora va katta, kuchli  
qushlarni hisobga olmayanda, buning kun  
kechirishimizga qaraganda ham juda og'ir.  
Okean gahida shu qadar ham beshim bolalar  
ekan, nima uchun qushlarni mana bu  
dengiz qaldirg'ochlari singari nozik va  
shikasta qilib yaratganlar. Okean saxsi va  
gozal, ammo u gah to'xtidan shunday  
shafqatsiz bolib ketadiki, uning ustidagi  
oziq dindagi chary urib cho'ngib, oziq va  
mangli ovoz bilan bir-birlariga jor bolib  
uchgan bu qushlar uning nisbatan  
benihoya zaf va mo'ri ko'rinadi.*

**"CHOL VA DENGIZ" ASARI**

# AVGUST

# №43



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
10-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-10**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-10**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 43-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 111 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

#### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

#### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

#### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

#### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

#### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

#### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

#### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва ақтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ  
ИННОВАЦИЯЛАР

<b>1. Davlatova Zulfiya, Bakoyeva Dilfuza</b> KITOBXONLIK - MA'NAVIYAT SARCHASHMASIDIR .....	10
<b>2. Sultonova Hilola, Qurbonova Inobat</b> BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI .....	12
<b>3. Mashhura Abobakirova Madaminjonovna</b> .....	14
MANFIY BO'LMAGAN BUTUN SONLARNI RAQAMLASHGA O'RGATISH.....	14
<b>4. Ra'no Abrorova</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH VA UNING AHAMIYATI .....	16
<b>5. Almanova Gavxar Abdurashitovna</b> UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	18
<b>6. Ikromova Shohsanam Nabijonovna</b> UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA HARAKATLI O'YINLAR ORQALI O'QUVCHILARNING JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH .....	20
<b>7. Musharraf Nabiyeva Dilshodbek qizi</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TANQIDIY VA MANTIQUIY FIKRLASHGA O'RGATISH .....	22
<b>8. Shadibekova Hamida Yuldashevna</b> UZLUKSIZ TA'LIM RIVOJIDA KIMYO FANINING AHAMIYATI .....	23
<b>9. Yangibayev Sardorbek Kodomovich</b> ZAMONAVIY PED TECHNOLOGIYALARNI MUSIQA FANIDA QO'LLANILISHI, MUSIQA O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	24
<b>10. Давлетова Сабохат Атабековна</b> ДАРС ЎТИШ ЖАРАЁНИДА ИНТЕРФАОЛ МАШҒУЛОТ ТУРЛАРИДАН ФЙДАЛАНИШ.....	26
<b>11. Каримова Гулнора Омониллаевна</b> НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ К ПРОБЛЕМЕ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА .....	28
<b>12. Кулдошова Дилфуза Хайитовна,</b> ФОРМИРОВАНИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ.....	31
<b>13. Олимова Нилуфар Феруз кизи, Олимова Гулчехра Бозоровна</b> МИНИТЕКСТ КАК СОВРЕМЕННОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СРЕДСТВО.....	32
<b>14. Хайдарова Динара Суранбаевна, Умурова Нигина Зиёдуллаевна</b> МЕТОДИЧЕСКАЯ РЕКОМНДАЦИЯ: КАК ФОРМИРОВАТЬ МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В МЛАДШЕМ ШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ? .....	33
<b>15. Abdullayeva Mahliyo</b> ONA TILI VA ADABIYOT FANI O'QITISHDA "VIDEOTOPIUSHMOQ" INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH .....	34
<b>16. Abdurahmanova Dildfuza Egamqulovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASALALARNI TENGLAMA ASOSIDA ISHLASH.....	36
<b>17. Abduxalilova Mushtariybonu</b> OTA – ROMANIDA ISMLAR TAHLILI .....	38

<b>18. Almardonova Dilsora Majidovna</b> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY E'TIQODNI SHAKLLANTIRISH .....	39
<b>19. Atajanova Durjangul Erkinovna, Bakiyeva Muxabbat Saparboyevna</b> BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH – PIRLS TIZIMIDAN FOYDALANISH .....	40
<b>20. Axmedova Marhabo Ismailovna, Allazarova Anagul Sapayevna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH .....	42
<b>21. Bekchonova Malika Soforboyevna</b> KIMYO DARSLARIDA “AYLANA STOL ATROFIDA” METODINI QO'LLASH TEKNOLOGIYASI.....	44
<b>22. Sadoqat Davronova Tojiddinovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANI O'RGATISH.....	46
<b>23. Egamberganova Oydinoy</b> MAKTABDA ONA TILI FANINI O'QITISHDA “ZIG-ZAG” YANGIN INTERFAOL TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.....	47
<b>24. Ergasheva Orzigul Hakimovna</b> ONA TILI DARSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASH VA NUTQ O'STIRISH .....	48
<b>25. Erigitova Nigora Toxirjonovna, Qo'ziyev Nodirjon Qobilovich</b> TARIX FANINING O'QITILISHI .....	49
<b>26. Ganjayeva Shaxloxon Xo'sin qizi</b> O'QITISHDA SVETOFOR METODIDAN FOYDALANISH .....	51
<b>27. Nasiba G'apurova Sobirjonovna</b> MATEMATIKA DARSLARIDA YOSHGA DOIR INNAVATSION USULLARDAN FOYDALANISH .....	53
<b>28. Haqnazarova Obida Mamarajabovna</b> YOSHLARNI MEHNATSEVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING AHAMIYATI .....	54
<b>29. Isakova Anora Jumanovna</b> EFFECTIVE WAYS TO USE INTERACTIVE METHODS IN LEARNING ENGLISH TODAY .....	56
<b>30. Toshqulov Bahodir</b> BUYUK MUTAFAKKIR IBN SINO MEROSIDA MA“NAVVIY-AXLOQIY TARBIYA MASALARI TALQINI .....	58
<b>31. Kurbanova Charos, Bozorboyeva Nargiza</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA FANLARNI O'QITISHDA INNOVASION TA'LIMNING AFZALLIKLARI VA UNING IMKONIYATLARI .....	59
<b>32. Kutimova Tozagul Ibragimovna, Raximova Nasiba Sultannazarovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA PRILS TADQIQOTLARI.....	60
<b>33. Matyakubova Fazilat Hamdam qizi</b> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH .....	62
<b>34. O'ralova Zuhra Abdunazarovna</b> TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHISINING ZAMONAVIY YONDASHUVI.....	64
<b>35. Qurbanova Donogul Baxodirovna</b> ONA TILI VA ADABIYOT FANI O'QITISHDA VA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING SAMARASI.....	66
<b>36. Mohira Rahmonova Mahmudovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI FANINI O'RNI .....	67

<b>37. Rajabova Gulnoza Marufjon qizi</b> TA'LIMNING INTERFAOL METODLARI VA ULARNI AMALDA QO'LLASH TARTIBI.....	68
<b>38. Rajabova Gulshoda Dilovna</b> O'SIMLIKLAR DUNYOSI VA UNING AHAMIYATI .....	70
<b>39. Ravshanova Nilufar Suvonovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA BO'G'IN USTIDA ISHLASH METODIKASI .....	71
<b>40. Raximova Gulmira Karimovna</b> MAKTABDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA LOYIHALASH TEXNOLOGIYASINING AFZALLIGI.....	72
<b>41. Ravshanoy Raximova Karimjonovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDADARSLIK VA DASTURNING O'ZARO MOSLIGI .....	73
<b>42. Razaqberdiyeva Mavluda Bog'ibek qizi, Kurbanov Ruslonbek Shavkatovich</b> INFORMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH .....	75
<b>43. Ro'zmetova Nigora Atabayevna, Xudosheva Darmon Alimovna,</b> BOSHLANG'ICH SINFDAN MASOFAVIY TA'LIM TIZIMINI SHAKILLANTIRISH .....	77
<b>44. Safiyazov Xamdani Xojaboyevich , Akmalova Adolat Amanbayevna</b> MAKTABLARDA TA'LIM-TARBIYA SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA MULOHAZALAR.....	79
<b>45. Samandarova A'loxon Egamberganovna, Abdalova Sohiba Komiljonovna</b> GEOGRAFIYA DARSLARIDA HOZIRGI DAVRNING GLOBAL MUAMMOLARINI O'QITISH USULLARI .....	81
<b>46. Saporova Bakposhsha Bekturdiyevna, Saporova Ozada Qadamboyevna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI .....	82
<b>47. Sharipova Mehriniso Boqiyevna</b> BOG'LANISHLI NUTQQA OID ASOSIY KO'NIKMALAR .....	84
<b>48. Sharopova Madina Rizoidinovna</b> O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA MULOHAZALAR.....	85
<b>49. Munavvar Soliyeva Nozimjonovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA ICHIDA RAQAMLASHGA O'RGATISH .....	87
<b>50. Tolibova Nazira Tolibovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA ORFOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI.....	89
<b>51. Turabova Saodat Kosimovna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVOD O'RGATISH DARSLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA MULOHAZALAR.....	90
<b>52. Usmonova Oysafar Qo'chqorovna</b> MATEMATIKA DARSLARIDA QIZIQARLI O'YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI.....	92
<b>53. Ҳамрақулов Жаҳонгир Бахтиёрвич</b> ИНТЕГРАЦИОН ТАЪЛИМ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРДА ЭКОЭТИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК МАЗМУНИ .....	94
<b>54. Xojamov Umid Yuldashovich</b> MILLIY HARAKATLI O'YINLAR VA ULARNING BOLA TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI .....	96
<b>55. Dilafroz Yuldasheva adjabboyevna</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA SONLARNI BILAN ISHLASHGA O'RGATISH.....	98
<b>56. Yuldosheva Haticha Adambayevna</b> TEXNOLOGIYA FANIDA EKSKURSIYALARNI AMALGA OSHIRISH.....	100

<b>57. Yuldosheva Sanobar Hamidovna</b> BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DAARSLARIDA QO'LLANADIGAN METODLAR .....	102
<b>58. Yusupova Gulchehra Abdivahobovna</b> TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV.....	103
<b>59. Ахмедова Феруза Ибрагимовна</b> ИННОВАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ОБРАЗОВАНИИ.....	104
<b>60. Бердиева Гулноза Одиловна, Исломовна Зебинисо Авазжоновна</b> МЕТОДИЧЕСКАЯ РЕКОМЕНДАЦИЯ: РАЗВИТИЕ УЧЕБНОГО ПОТЕНЦИАЛА С ПОМОЩЬЮ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	106
<b>61. Латипова Зебохон Нарбековна</b> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ И ЛИТЕРАТУРЕ В ШКОЛЕ.....	107
<b>62. Назарова Хосият Бектурди кизи</b> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЭЛ АЗИЗ ИНСОН АЗИЗ.....	108
<b>63. Muazzamxon Rafiqova Yusufjonovna</b> TARBIYALANUVCHILARNI NUTQDA NAFAS OLIB NAFAS CHIQRISHINI RIVOJLANTIRISH .....	109



## ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### КИТОВХОНЛИК - МА'NAVIYAT SARCHASHMASIDIR

**Davlatova Zulfiya**, Xorazm viloyati  
Tuproqqal'a tumani 7-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon: +998995492473

**Bakoyeva Difuza**, Buxoro viloyati  
Buxoro shahar 6-IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon: +998914015654

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Inson ma'naviyatining sarchashmasi bo'lmish kitob hamda kitobxonlik, aholi orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Kitobxonlik madaniyati, Alisher Navoiy, Shavkat Mirziyoev, PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”, intellektual saviya.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi farmoyishi ta'bir joiz bo'lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma'naviyatimizda g'oyat ulkan voqea bo'ldi. Ushbu sa'y-harakat milliy adabiyotimiz va ma'naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo'lishiga astoydil ishonib turibmiz. Ayniqsa, bu o'rinda xorij tajribasini o'rganish, yoshlar o'rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o'rganish kabi masalalarning ko'tarilgani g'oyatda tahsinga loyiqdir. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”. Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Bilim – aql chirog'i”, “Go'zallik – ilmu ma'rifatda”. Bunday hikmatli naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyasi, kasbhunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rnini bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi qarorining qabul qilinishi ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning dalilidir desak, aslo, xato bo'lmas edi. Ushbu qarorga muvofiq, qabul qilingan dastur bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

I bosqich – 2020–2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

II bosqich – 2022–2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

III bosqich – 2024–2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

“Ayni paytda, - deydi Shavkat Miromonovich, - axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining



eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e‘tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”. Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to‘g‘risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqur falsafasi bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko‘kka ko‘taruvchi, uning ma‘naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o‘z ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir mash‘ala hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko‘rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Boladagi barcha tarbyaviy hislatlar dastlab oilada shakllanadi, demak kitobxonlik ham o‘z oilasi a‘zolari ko‘magi va ta‘sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a‘zolarining kitobga, o‘qishga munosabati katta ta‘sir ko‘rsatadi. Ota-ona har bir ishda, jumladan kitobga munosabatva uni o‘qishda ham bolalariga o‘rnak bo‘lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o‘qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so‘rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o‘rganish (aniqrog‘i o‘rganish) muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” (2017 yil 12 yanvar)gi farmoyish

2. <https://www.standart.uz/news/view?id=1627>



## BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

**Sultonova Hilola,**

Xorazm viloyati Bog'ot tumani  
2-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon: +998995051019

**Qurbonova Inobat,**

Xorazm viloyati Bog'ot tumani  
42-son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich, o'yin, ahamiyati, didaktik, faoliyat, aqliy, bolalar

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardanoq dars degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari kerak. Boshlang'ich sinf darslarini samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri – darslarda an'anaviy va noan'anaviy metodlardan samarali foydalangan holda darslarni to'g'ri tashkillashtirish va o'quvchilarni kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirishdir. O'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, dars samaradorligini ta'minlashda darslarda foydalaniladigan qiziqarli mashqlar, didaktik o'yinlar ahamiyati kattadir. Didaktik o'yinlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, ahloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi. Didaktik o'yinlar intellektual metodlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Didaktik o'yinlar, butun sinf ishtirok etganda bolalar o'rtasida o'zaro hamkor bo'lib ishlash, o'z-o'zini boshqara bilish, diqqatni bir joyga yig'ish, saranjomsarishta bo'lish, tez tushunish va savollarga tez javob berish va boshqa tarbiyaviy xislatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday didaktik o'yinlar, o'quvchining o'qituvchiga nisbatan yotsirash xislatlarini kamaytiradi. Natijada o'qituvchi bolaga do'stga, u yoki bu masalani hal qilishda hamkorga aylanadi. Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham har tamonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar. Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning boy tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar. Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mamnuniyat bilan ijro etadi.

O'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi. Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtirok qiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. «Kim aniqroq va tezroq», «Bo'sh kelma», «Eng yaxshi hisobchi», «Kim turgan saf yaxshiroq», «Doiraviy



misollar», «Zanjircha», «Narvoncha», «Qaysi surat bekitildi?», «Jadvalni qidirib top», «Nimani taqillatdim?», «Jim», «Bilmasvoyning xatolari», «Bu qaysi shakl?», «Zukkolar», «Zinadan tushing», «Topishmoqlar», «Zigzag», «Moychechak», «Fikrni davom ettir», «Bo'g'inlar», «Teatr», «Sonli jadvallar», «Qiziqarli kvadratlar», «Bolalar bog'chasida» «Mehmondorchilikda», «Kim epchil?», «Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin», «Ko'rganni eslab qolish diktanti» singari o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.

Har qanday interfaol usul o'quvchilarni to'g'ri va maqsadli ishlatganda mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Yangi pedagogik texnologiya — bu o'qituvchi asosiy javobgar shaxs bo'lgan ta'lim tizimining ratsional usullarini ishlab chiqaradigan jarayon. Chunki uning asosiy vazifasi o'quvchilarga tezkor, aniq va tushunarli tarzda ma'lumot berishdir. Har bir o'qitish tizmining shakllari, uslublari davr talablariga mos ravishda o'zgarishi shart.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi: Nasaf, 2009.
- 2.G'ulomov A., Ne'matov X. Ona tili ta'limi mazmuni. –T. 1995 y



## MANFIY BO'LMAGAN BUTUN SONLARNI RAQAMLASHGA O'RGATISH

**Mashhura Abobakirova Madaminjonovna**

Namangan viloyati Norin tuman

28-umumta'lim maktabi

Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

941795636 mashhuraabobakirova@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali o'qituvchilarni boshlang'ich sinflarda manfiy bo'lmagan butun sonlarni raqamlashga o'rgatish va bu orqali o'quvchilarni matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini o'stiradi va testlar asosida tushunchalar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Natural sonlar, xona birliklari, fanlar aro aloqadorlik, matematika, manfiy, butun sonlar, raqamlash, o'z aro uzviylik.

Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan, barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida ta'lim berish mamlakatimizning ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan ustuvor vazifalardan biridir Matematika o'quvchining ham aqlan rivojlantiradi. Bugungi kun o'qituvchining asosiy vazifasi uni to'g'g'ri yo'naltira olish va qobiliyatini o'stirish eng oily vazifalardan biri hisoblanadi.

Mavzuni o'rganish jarayonida ko'rgazmalilikdan foydalanishni bilish kerak: - mavzu bo'yicha dastur talablari asosida sonlarni xona qo'shiluvchilari yig'indisi shaklida tasvirlash;

- darslik bo'yicha ko'rgazmalar asosida suhbatlar olib boorish;

- o'quv materialini o'zlashtirishini mustahkamlashga va kuchaytirishga oid didaktik o'yinlar tanlash; - bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil bo'lishi bo'yicha turli metodlar va mashqlar, mustaqil ishlar tuza olish;

- turli xil ko'rinishdagi ko'rgazmali vositalar asosida yangi materialni va o'tilgan materiallarni mustahkamlash va bayon qila olish. Raqamlash metodikasi bosqichda o'qituvchining vazifasi bolalarda sanash malakalarini shakllantirish va 1-10, 100 ichida, 1000 ichida va ko'p xonali sonlarni sanay olishini, didaktik tamoyillar asosida natural qatorning tuzilishini ochib berish va bu asosda sonni natural ketma-ketlikning hadi sifatida ta'riflashdan iborat. Buning uchun o'quvchilarning quyidagilarga erishishlarini ta'minlash zarur:

1) O'quvchilarning miqdor va raqamlar tartibi haqidagi tushunchalarini aniqlash;

2) predmetlarni sanashni shakllantirish;

3) 1 dan 10 gacha sonlar ketma-ketligini yaxshi o'zlashtirib o'l ishlari kerak;

4) narsalarni sanashni va sanash tartibi ko'rsatilganda har bir narsaning berilgan guruhdagi tartib raqamini aytib bera olishlari kerak;

5) sonlarning 1 dan 10 gacha qatoridagi har bir son qanday hosil bo'lishini ongli ravishda o'zlashtirishlari kerak;

6) raqamlarni o'qib olishlari va har bir raqamni narsalarning mos soni bilan mos qo'ya olishlari kerak;

7) sonlarni taqqoslashni bilishlari kerak;

8) 2,3,4,5 sonlarning ikkita qo'shiluvchilardan iborat sonlar tarkibini barcha hollarini mustahkamlab, o'zlashtirib olishlari kerak;

9) 2+1, 4-1, 1+3, va hokazo ko'rinishdagi matematik yozuvlarni o'qiy olishlari va bunday yozuvlarni aniq rasmlar bilan mos qo'yishlarini bilishlari kerak;

10) miqdorlar yordamida predmetlarni o'zaro taqqoslash, «ko'p», «kam», «ortiq», «baland», «past» kabi tushunchalarni taqqoslay olishi hamda doira, kvadrat, uchburchakni bir-biridan farq qila bilishlari va nomini ayta olishlari kerak. Raqamlash metodikasi natural sonlar va nol haqidagi ma'lumotlarni o'nlik, yuzlik, mi glik, ko'p xonali sonlar konsentrlari bo'yicha kiritishni nazarda tutadi. Matematika dasturi o'z ichiga avvalo natural sonlar bilan to'rt arifmetik amal bajarishni oladi. Bu matematikaning yadrosini tashkil qiladi. Shu bilan birga algebra va geometriyaning asosiy tushunchalari, asosiy miqdorlar kiritilgan, ular arifmetik amallar bilan zaruriy o'rinda qo'shib o'qitiladi. Nolni nemirolash va ular ustida arifmetik amallar bajarish boshlang'ich matematika kursi asosini tashkil qiladi. Unga algebra va geometriya elementlari o'qitiladi. Dasturda natural sonlar va nol haqidagi ma'lumotlarni asta-sekin o'nlik, yuzlik, minglik va ko'p xonali sonlar konsentrlari



(takroriy) kiritish nazarda tutiladi. Bu o'nlik sanoq tizimining xususiyalari bilan, og'zaki va yozma raqamlashni takror-takror qo'llash orqali beriladi. 1-o'nlikni raqamlashda 1-10 sonlarini sanash, raqamlarni aytish, ketma-ketligini, katta-kichikligini o'zlashtirish nazarda tutiladi. 1- 120 o'nlik bilan nol soni ham birga o'rgatiladi. Uni bo'sh to'plamning xarakteristikasi sifatida berilgan. Raqamlash davomida 11-20, keyin 21-100 ichida sonlarni raqamlash qaraladi. 1,2- ....o'nliklarni hosil qilish, birgalikda o'nliklarni, ya'ni o'nli sanoq tizimining mohiyati tushuntiriladi. Keyingi sinflarda 100 ichida, 1000 ichida va ko'p xonali sonlar og'zaki va yozma raqamlash, arifmetik amallar bajarish, komponentlarning nomlarini o'rgatishlar amalga oshiriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Matematika o'qitish metodikasi” S.Alixonov . Toshkent 2011
2. “Matematika analiz” 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent “O'qitvchi-1994”
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH VA UNING AHAMIYATI

**Ra'no Abrorova**

Toshkent shahri Olmazor tumani  
16-umumta'lim maktabining  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon: +99890 925 97 25

**Annotatsiya:** *Maqolada bugungi ta'limning asosiy dolzarb muammolaridan biri bolani kitob o'qishga o'rgatish va unda kitobga muhabbat uyg'otish haqida so'z boradi*

**Kalit so'zlar:** *O'qituvchi, o'quvchi, o'qish turlari, didaktik o'yinlar, tahliliy fikrlash*

Bola maktabga qadam qo'yar ekan, eng avvalo qo'liga alifbo kitobini olib o'qituvchi yordamida harflarni, keying bosqichda bo'g'in, so'z, so'z birikmalari va gaplarni o'qishni o'rgana boshlaydi. O'qish o'quvchi uchun har tomomlama kerakli va foydali ilm bo'lib, uni mukammal o'zlashtirish nafaqat o'quvchining savodini oshirish uchun, balki uning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini charhlash uchun ham salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Barcha fanlarning asosini o'qish tashkil qilgani bois, uni to'liq egallagan o'quvchida har qanday yozma ma'lumotni o'zlashtirishda va uni o'z so'zlari bilan atrofdagilarga yetkazishda qiyinchilik tug'dirmaydi. Bugungi kunning dolzarb masalasi ham shunda, boshlang'ich ta'limda barchaga birdek savodxonlik asoslari o'rgatiladi, ammo darsdan bo'sh vaqtlarda o'quvchini kitobxonlikka qiziqtirish, uning nutqini o'stirish uchun o'z ustida ishlashi uchun qanday chora tadbirlarni amalga oshirish kerak? Bu chora tadbirlarning eng dastlabgisi bolaning yoshiga, qiziqishlariga mos o'quv materiallarini tanlash va uni tavsiya qilishdir. Shuningdek, tanlangan o'quv materialining hajmi ham katta ahamiyatga ega. O'quv materialini hajmini keskin oshirib yuborish yoki bolani darsdan bo'sh vaqtlarida o'zi qiziqmagan mavzudagi asarni o'qishga majbur qilish, bolada charchoq hisini hamda o'qishga bo'lgan shijoatini tushurib yuboradi. Pedagogika o'z navbatida psixologiya bilan uzviy bog'liq bo'lgani uchun kitob tanlashda va bolaga topshiriq berishda uning psixologik xususiyatlarini ham e'toborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning asosiy sevimli mashg'uloti o'yin bo'lgani bois, turli didaktik o'yinlar, qiziqarli topishmoqlar, kitob o'qish musobaqalari, o'qigan asari bo'yicha ro'lli sahna ko'rinishlarda qatnashish, ular uchun bir vaqtning o'zida ham zavqli mashg'ulot, ham nutqini o'stirishdagi foydali jarayon hisoblanadi.

O'qish darsining asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- To'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish. Bunda bola nima o'qiyotgani haqida tushunadi, so'zlarni bir-biriga tez ulab o'qiy oladi.
- O'quvchilarni dunyoqarashini o'stirish, ahloqiy tarbiyalash, ekologik, estetik, huquqiy, mehnat tarbiyalarini berish. Bunda bola yoshiga va qiziqishiga mos qilib tanlangan har bir asar uning har tomonlama tafakkurini kengayishiga xizmat qiladi.
- O'quvchilarda ijodiy tasavvur, nutqini o'stirish. Bu jarayonda bola nafaqat asarni ifodali o'qish, balki uni o'z so'zlari bilan so'zlab berishga ham o'rganadi.
- O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatish. Bu jarayon bolada tahliliy fikrlash, o'z mustaqil fikriga ega bo'lish kabi psixologik qobiliyatlarini rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

O'qish jarayoni tarbiya jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, bola darslikda berilgan har bir matnni o'qir ekan, undagi ijobiy qahramonlardan do'stlik, oila, atrof –muhitga muhabbat, mehnatsevarlik, iroda, kamtarlik kabi hislatlarni olib rivojlana boradi. Asardagi salbiy qahramonlar esa bolada qiyoslash ko'nikmasini shakllantiradi va u yomonlik, dangasalik kabi tushunchalarni salbiy oqibatlarini haqida ham tushunchaga ega bo'lib boradi.

O'qish darslarida quyidagi o'qish turlaridan foydalaniladi:

- Ovoz chiqarib o'qish. Bu o'qish turida o'quvchi uni atrofdegilar ham tinglayotgani his qiladi va o'qiyotgan matnga ko'proq e'tiborli bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, ovoz chiqarib o'qishga odatlangan o'quvchining nutqi, ichida o'qishga odatlangan o'quvchilikiga nisbatan ravon, xotirasi esa mustahkam bo'lib boradi.
- Matnni ongli ravishda o'qish. Bu o'qish turida o'quvchi nafaqat so'zlar va ularning talafuziga e'tibor qaratadi balki ularning ma'nosiga ham bir vaqtning o'zida ahamiyat berib ketadi,



matn ostida berilgan topshiriqlar bilan ishlaydi, savollarga javob beradi va asar bo'yicha tushunchasini ham erkin bildiradi.

- Ichda o'qish. Bu o'qish turidan o'quvchi hayoti davomida har qanday sohada foydalana oladi, shuningdek bu eng qiyin o'qish turlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchini tanlab o'qish, qismlarga bo'lib o'qish va diqqatni jamlash kabi ko'nikmalarini shakllantirishda salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Hulosa qilib aytganda, har bir tog'ri tanlangan matn va o'qish turi o'quvchining o'qish ko'nikmasini shakllanishiga va kitobga bo'lgan muhabbatini ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, dunyoqarashini kengaytiradi va tafakkurini sezilarli darajada o'stiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma o'qish. 2-sinf. Toshkent. “O'zbekiston” - 2015
2. Mavlonova R. “Pedagogika” T.: “O'qituvchi” – 2004.
3. To'xtaxo'jayeva M. “Pedagogika” T.: “O'qituvchi” – 2010.



## UZLUKSIZ TA‘LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Almanova Gavxar Abdurashitovna**

Sirdaryo viloyati Bayovut tumani 39-umummiy o‘rta ta‘lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Uzluksiz ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini oshirish uchun uning holati va rivojlanish tendensiyalarini uzluksiz monitoringini olib borish.

**Kalit so‘zlar:** Uzluksiz ta‘lim, PISA, STEAM

O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng barcha sohalar kabi, ta‘lim tizimi ham tubdan isloh qilinmoqda. O‘zbekistonda ta‘lim tizimida olib borilayotgan sa‘y-harakatlar, erishilayotgan natijalar xalqaro hamjamiyat tomonidan alohida e‘tirof etilayotgani diqqatga sazovordir. Yosh avlodga xalqaro talablar darajasida zamonaviy bilimlarni berish, yetakchi va ilg‘or o‘qitish uslublaridan foydalanish, uzluksiz ta‘lim jarayonining barcha sohalarida ushbu islohotlarni birdek amalga oshirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ta‘lim sohasida o‘tkazilayotgan islohotlarning natijasi sifatida nafaqat ta‘lim sohasida faoliyat yuritayotgan kishilar, balki xalqimiz ongida ham ta‘lim-tarbiya tizimiga nisbatan katta o‘zgarishlar paydo bo‘ldi, yoshlarimiz o‘rtasida esa bilim olishga bo‘lgan intilish va qiziqish kuchaydi. Zamonaviy dunyoda yangicha texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanib borayotganligini kuzati-shimiz mumkin. Ishlab chiqarish rivojlanar ekan malakali mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj ham kundan-kunga ortib bormoqda. Mamlakatimiz yoshlarining ma‘naviyatini shakllantirish va qaror toptirishda, ularni kasbga yo‘naltirishda xalq ta‘limi tizimining ahamiyati salmoqlidir. Shuning uchun umumta‘lim fanlari mazmuni milliy mafkura, umuminsoniy qadriyatlarga va boy o‘tmish merosimizga asoslangan bo‘lishi, shuningdek, mustaqil va bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga chiqqan davlat va milliy ehtiyojlarni qondirishga qaratilmog‘i lozim. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishi, yosh avlodning o‘zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi yoshlarimizdan fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi.

Uzluksiz ta‘lim – o‘zaro mantiqiy izchillik asosida bog‘langan, hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta‘lim tizimi. Uzluksiz ta‘lim tizimining faoliyati davlat ta‘lim standartlariga asoslanadi. Uzluksiz ta‘lim tizimi har taraflama mukammal va davlatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qilishga layoqatli malakali kadrlar tayyorlash uchun zaruriy muhitni yaratib beradi.

2018-yilning 5-sentabr kuni PQ-3931-sonli qaror asosida 2018-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi qabul qilindi. Ushbu dasturning ikkinchi bo‘limi “Ta‘lim sifatini yaxshilash va innovatsion ta‘lim texnologiyalarini joriy etish” deb nomlanib, unda uzluksiz ta‘lim tizimida yangicha o‘quv asturlari va darsliklarni, hamda STEAM ta‘limini xalq ta‘limi tizimida bosqichma-bosqich joriy qilish va takomillash-tirishning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tilgan. Unda uzluksiz ta‘lim tizimida faoliyat yuritayotgan har bir bo‘g‘in rivojlangan xorij tajribalarini joriy qilgan holda rivojlanishlarining nazariy asoslari belgilab berilgan. Yoshlarga bilim berishda ular olgan bilimlarini hayotda qo‘llash ko‘nikmasi kompetensiyaga asoslangan holda berilishi, har bir o‘quv topshiriqlarini chuqur mantiqiy fikrlaydigan va qiziqarli tarzda berilishi ta‘limga bo‘lgan qiziqishning yanada ortib borishiga olib keladi. Bugungi kunda dunyo miqyosida bir qancha xalqaro baholash dasturlari mavjud bo‘lib, ular orasidan o‘quvchilarimiz 2021-yilda PISA xalqaro baholash tadqiqotlarida qatnashadilar. PISA - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tashabbusi bilan o‘tkaziladigan xalqaro tadqiqot. O‘n besh yoshli o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini standartlashtirilgan baholashi bo‘lib, materiallar xalqaro dasturni amalga oshirishda ishtirok etuvchi mamlakatlar bilan birgalikda ishlab chiqiladi. Har bir davlatdan 4500 tadan 10000 tagacha bo‘lgan o‘quvchilar ishtirok etadilar. Mamlakatlardan ishtirok etuvchi o‘quvchilar jami 15 yoshli o‘quvchilarning 2% miqdorini tashkil qilishi kerak. PISA tadqiqotlari 1997-yilda tashkil etilgan va 2000 – yilda birinchi marta qo‘llanilgan. Tadqiqotlar har 3 yilda bir marta o‘tkaziladi. Test savollari PISA ga a‘zo davlatlarning mutaxassislari bilan kelishilgan holda xalqaro konsultantlar guruhi



tomonidan tuziladi. PISA tadqiqotlari matematik savodxonlik, tabiiy fanlar va o‘qish savodxonligi yo‘nalishlarda o‘quvchilarning bilimini nazorat qiladi.

Xalqaro PISA tadqiqotlarida qatnashishimiz, avvalambor, o‘quvchilarimiz bilimini xalqaro talablarga yetkazish, unga mosligini tahlil qilib borish imkonini beradi va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun zamin yaratadi. O‘quvchilarimizni boshqa xorij davlatlaridagi tengdoshlari bilan har taraflama solishtirish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash, yutuqlarni ko‘paytirish va kamchiliklar ustida ishlab, ularni bartaraf qilish imkonini beradi. Respublikamizdagi maktab o‘quvchilarining yuqori o‘qish suratlariga erishish imkonini beradi va mutaxassislarimizga monitoring tadqiqotlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu tariqa o‘tkazilgan tadqiqot o‘quvchilar bilim va ko‘nikmasining holati, maktabdagi ta‘lim sifati va olib borilayotgan ishlarning natijalariga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar haqida ma‘lumotlar bankini yaratish imkonini beradi. Asosiy e‘tibor, taklif qilingan savollarga o‘quvchilarning tabiiy fanlardan olgan bilimlari orqali javob berilishi, berilgan axborot asosida ilmiy jihatdan asoslanadigan xulosalar chiqarish qobiliyatiga qaratiladi. O‘quvchilarga taqdim etilgan hayotiy vaziyatlar har bir insonning shaxsiy hayotida yuzaga eladigan dolzarb muammolar, biror jamoa yoki jamiyat a‘zosi sifatida yoki dunyo fuqarosi sifatida inson hayoti bilan bog‘liq bo‘ladi.

Xalqaro tadqiqotlarda qatnashishimiz natijasida yoshlarimiz kelajakda o‘zlari duch keladigan qarama-qarshiliklarga qay darajada tayyor ekanligini aniqlashimiz va ularning hayotida yuzaga kelgan ziddiyatlar sabablarini tahlil qilish, izlash va aniqlash hamda o‘z g‘oyalarini taqdim etishga loyiqligi aniqlashga imkon beradi, bu esa uzluksiz ta‘lim tizimining keyingi rivojida juda muhim omil hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xalqaro tadqiqotlarda Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati TOSHKENT – 2019 (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma)
2. [http://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Uzliksiz\\_ta'lim&](http://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Uzliksiz_ta'lim&)



## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA HARAKATLI O'YINLAR ORQALI O'QUVCHILARNING JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

**Ikromova Shohsanam Nabijonovna**

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti  
Magistratura bo'limi Ommaviy sportni rivojlantirish va  
sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish yo'nalishi  
MOS 5121 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumta'lim maktablaridagi jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladigan harakatli o'yinlar va ular orqali o'quvchilarning jismoniy madaniyatini shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** O'qituvchi, harakatli o'yinlar, dars, jismoniy tarbiya, mashq.

O'qituvchi har bir dars uchun bolalar organizmiga har taraflama ijobiy ta'sir etuvchi turli harakatli o'yinlarni tanlashi va ularni o'tkazishda har xil usullardan foydalanib borishi lozim. Darsda, shuningdek, turli o'yinlarni o'tkazish jarayonida o'rganiladigan materiallarning metodik jihatdan izchilligiga alohida e'tibor berish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu izchillik, birinchidan, darsning ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini to'g'ri hal qilish, ikkinchidan, dars materiallarini to'liq o'tishga erishish, uchinchidan, butun dars davomida har bir mashqni muayyan me'yorda amalga oshirish imkonini beradi.

Darsning boshida yoki o'rtasida zo'r e'tibor berishni va o'zaro muvofiq murakkab harakatlar qilishni taqozo etadigan o'yin hamda mashqlar o'tkazilsa, dars oxirida o'quvchilarning charchagan tana a'zolarini birmuncha tinch holatga keltiradigan o'yin va mashqlarni o'tkazish kerak. Agar butun dars faqat o'yinlardan iborat bo'lsa, serharakat o'yinlarni kam harakatli o'yinlar bilan, bir xil yo'sindagi o'yinlarni ikkinchi xil o'yinlar bilan navbatlashtirib o'tkazish kerak.

O'yin boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun shunday bosqichki, bunda ular yangi bilim va tushunchalarni egallashga qaratilgan mustaqil faoliyatni boshlaydilar. Bolalar maktab tajriba uchastkasida ishlash va uyda foydali mehnat qilishdan tashqari, bo'sh vaqtlarining bir qismini turli o'yin va ermaklarga sarflaydilar. Bunday qilish ularga o'z ehtiyojlarini qondirish va yaxshi dam olish imkonini beradi.

Bundan tashqari harakatli o'yinlar bolalarni jismoniy jihatdan o'stirish uchungina emas, balki aqliy va ahloqiy jihatdan tarbiyalash uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlarda bolalarda maqsadga erishish uchun farosatlilik va qat'iyatlilik ko'rsatish, jamoa oldida, o'z xatti-harakatlari uchungina emas, balki o'rtoqlarining xatti-harakatlari uchun ham mas'uliyatni sezish xislatlari tarbiyalanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda bir nechta harakatli o'yinlarni ko'rib chiqamiz.

Halqaga irg'itish. Bu o'yinda 20-30 nafar o'yinchi qatnashishi mumkin. O'yin yaylovda yoki voleybol ustuni o'rnatilgan sport maydonchasida o'tkaziladi. O'yinning tavsifi quyidagicha. Halqa daraxtga, voleybol ustuniga yoki bo'yi 3-4 metrli maxsus yasalgan blokka o'rnatiladi. Halqa bilan irg'itish oralig'i 10-15 metr bo'lishi mumkin. Irg'itish uchun tennis koptogi yoki kattaligi va og'irligi o'shanday lattadan yasalgan koptok bo'lishi mumkin. O'yinning jamoalarga bo'linib yoki bo'linmasdan o'tkazsa ham bo'ladi. Jamoalarga bo'linganda o'yinni qaysi jamoa boshlashi chek tashlash yo'li bilan aniqlanadi. Har bir o'ynovchi irg'itish chizig'iga keladi va koptokni irg'itib halqaga tashlaydi. O'yinning qoidalari. Halqaga tushirilgan har bir koptok uchun bir ochko beriladi. Agar o'ynovchilar juda ko'payib ketsa, halqalar sonini ham ko'paytirish mumkin. Eng ko'p ochko to'plagan o'yinchi yoki jamoa g'olib hisoblanadi.

Mazkur o'yinni o'tkazish bo'yicha quyidagi metodik ko'rsatmalarga amal qilish lozim. Bu o'yin o'rta va katta maktab yoshidagi o'quvchilar uchun tavsiya qilinadi. O'yin boshlang'ich sinf o'quvchilarida mo'ljal olish qobiliyatini o'stiradi va hamda irg'itish malakalarini hosil qilishga yordam beradi. Shuningdek, o'ynovchilarda jamoa oldidagi mas'uliyatni sezish hissini tarbiyalaydi. Bu orqali o'z-o'zidan ko'rishimiz mumkinki, o'quvchilarning jismoniy madaniyatining shakllanadi va rivojlanadi.

“Chavandoz” – har bir sinfdan 10-12 o'yinchidan iborat guruh tuziladi. Guruhlar uchun 7-9 m kattalikda to'rtburchaklar tuziladi. Imkoniyat bo'lsa voleybol maydonchasidan foydalanish mumkin. Har bir guruh o'z navbatida ikkitadan jamoaga bo'linadi. Ular o'zlariga nom qo'yishadi,



Oldin noma'lum qizlar sonini  $x$  bilan belgilaymiz. O'gil va qizlar sonini

$(28 + x)$  deymiz.

Ikkita avtobusga ketganlar soni  $25 \cdot 2$  deymiz.

Yuqoridagilarni tenglashtiramiz:  $28 + x = 25 \cdot 2$

Noma'lumlarni  $x$  bilan belgilaymiz;

O'gil va qizlar soni  $(28 + x)$  bo'ladi;

Ularni ikkita avtobusga bo'lsak,  $(28 + x):2$ ;

2 ta avtobusga 25 tadan ketsa,  $(28+x):2 = 25$  tenglamani hosil qilamiz.

$$(28+x):2 = 25$$

$$28+x=25 \cdot 2$$

$$28+x=50$$

$$x=50-28$$

$$x=22$$

Tenglamalar tuzish yordamida sodda masalalar yechish ikkinchi sinfdan boshlanadi. Ular qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishdagi noma'lum komponentni topishga doir masalalar yechadilar.

2-masala. Vazada 11 ta olma bor edi. Tushlikda bir nechta olma olingandan keyin vazada 7 ta olma qoldi. Nechta olma olingan?

Bor edi 11 ta, uni  $11-x=7$  ko'rinishdagi tenglamaga keltiramiz. Bu tenglama noma'lum ayriluvchini topish qoidasiga asosan yechiladi.



$$11-x=7 \quad x=11-7 \quad x=4$$

Eng qiyin vaziyat noma'lumni to'g'ri o'rinda ishlatib, tenglamani tuzishdir. Bu amal to'g'ri bajarilsa, albatta masala yechimi to'g'ri ishlanadi.

3-masala. Noma'lum son 42 sonidan 9 ga kichik, bu sonni toping?

$$42-x = 9$$

$$x + 9=42$$

$$x = 42-9$$

$$x=33$$

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda murakkab masalalarni tenglama tuzish orqali o'rgatilsa, albatta ijobiy natija beradi.



## ОТА – ROMANIDA ISMLAR TAHLILI

**Abduxalilova Mushtariybonu**  
FarDU filologiya fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** maqolada Ulugʻbek Hamdamning “Ota” romani tahlilga tortilgan. Asardagi qahramonlar ismlaridagi ramziy maʼnolarga munosabat bildirilgan.

**Kalit soʻzlar:** ota, otalik burchi, ona, yogʻdu, sevinch

Hamмамizning sevimli asarlarimizdan biriga aylanib ulgurgan “Ota” romanida qatnashgan har bir ayol obrazining oʻz vazifasi bor. Ushbu asardagi Oychechak xola obrazi orqali, oʻzbeklarning haqiqiy onasi tasvirlab berilgan desak, mubolagʻa boʻlmaydi. Yakka-yu yagona qolgan farzandi uchun har narsaga tayyor, hattoki bu yoʻlda folbin hamda azayimxonlarga ham ishongan. Ushbu asardagi bosh qahramonlardan biri, Poʻlatning suyuqli yori, Oychechak xolaning haqiqiy qiziga aylanib ulgurgan Yogʻdu boʻladi. Chunki bu asarda ,Yogʻduning vafo va sadoqati tahsinlarga loyiq. Oʻn ikki yil oʻzi suygan insonni kutish ,u yoqligida ota-onasiga beminnat xizmat qilish uning oʻzbek ayollariga xos boʻlgan oliyjanob fazilatlarida aks etishini koʻrishimiz mumkin. Yogʻdu – bu ism aynan obrazga nima uchun tanlangan? Umid yogʻdusimidi? Urush dahshatlari ichida Poʻlat uchun nurmidi? Hayot nurimidi? Mazmunimidi? kabi savollarga asarni oʻqib chiqqan kitobxonigina javob topa olishi mumkin. Poʻlat urushga ketgan paytlarida Yogʻdu boʻsh yurmasdan oʻqib olgan edi. Bunga albatta Poʻlatning xohish-istaklari sababchi boʻlgan. Yogʻdu maktabda oʻqituvchi boʻlib ishladi. Sevinch dunyoga kelgandan soʻng, uni yer-u koʻkka ishonmas, hattoki sevimli kasbidan ham voz kechmoqchi boʻldi. Asarda biz koʻplab ismlarning ramziyliklariga duch keldik. Ulardan yana biri Sevinchdir. Uzoq yillar mobaynida kutilgan jajji Sevinch boshidan ne –ne ogʻir kunlarni oʻtkizadi.Uning oilasida tutgan oʻrnini albatta ismidan kelib chiqib anglashimiz mumkin.

Sevinch, u nafaqat ota-onasi balki bobosi hamda buvisining ham koʻzining oqu-qorasi edi. Uning yuzi oy kabi toʻlgan bir paytda yongʻin oqibatida jajji qizaloqning bir yuzi kuydi. Poʻlat uning otasi oʻz kasbi oʻt oʻchiruvchi boʻla turib, oʻz qizining kuyishiga sababchidek his qildi, oʻzini. Bu aybdorlik hissi aynan oʻt oʻchiruvchi boʻlib ishlagani uchun edi. Sevinch ota-onasi, oilasining yakkayu –yagona sevinchu-quvonchi edi. Bu fojeadan keyin Sevinchdan boshqa hech kim kulmasdi. Sevinchni esa yozuvchi taʼkidlaganidek bolaligi “bilmasvoyligi” kuldirar edi. Sevinch haqida gap ketsa tillar emas, nigohlar toʻqnashadigan boʻldi. Uning hali shoʻx –shodon bolaligi boshlanmay turib yakuniga yetgandek tuyulardi.Uning ilk bora maktabga qoʻygan qadami ne - ne orzu , hayajonlar bilan boshlanadi. Biroq oʻsha kuniyoq hayajonu,orzu – umidlar astagina soʻndi. Uning oʻrnini achchiq qaygʻuli alamlar egallaydi. Oʻsha maktabga qoʻygan birinchi kunidanoq ona -bola oʻzini koʻz yoshdan tiya olmadi. Kunlar oʻtib Sevinch oʻqishga kirdi. Eng achinarli holatlardan biri uning oʻqib yurgan oʻqishida ham birorta yaqin doʻsti, sirdoshi boʻlmadi. Bunga yagona sabab yuzining yarmidagi dogʻi edi.

Odamlarning tahqirlashiyu, qiyinchiliklarga bardosh bera olgan Sevinch yillar oʻtib shifokor boʻlib yetishadi albatta ota-onasining sogʻligi posboniga aylanadi. Asarning soʻnggi voqealari kitobxonni chuqur oʻyga toldirishi shubhasiz. Chunki bir tomondan avlodi davom etishi uchun otasidan yashirgan ulkan sir voqealar rivojini keskin oʻzgartirib yuboradi. Bunda biz yozuvchining yana bir ijodiy mahoratini anglashimiz mumkin. Oʻz qizining qurboniga aylangan “Ota” qolgan butun umrini qamoqxonada oʻtkizishga va u yerda oʻlib ketishga ham rozi boʻladi. Oʻn toʻrt yillik qamoq muddati berilgan, biroq muddatning yarmiga kelganda Poʻlat ota avf etiladi.Yoshi uch kam saksonga borib qolgandi. Poʻlat ota zaiflashib, belidan quvvati ketib, qarilikka soʻz berib qolgandi. Oʻz oʻlimi kutib yashagan Poʻlat otaga esa hali-beri oʻlim kelmaydi. Nabirasi Sevinchdan qolgan Yodgorini izlab topib unga bor mehrini beradi.Yodgor – begunoh bola, Poʻlat ota avlodining yagona davomchisi edi.Yodgorning otasi Poʻlat otani topib kelishi va bor haqiqatni qoʻrqib, qoʻrqmaygina aytishi bilan ushbu asar oʻz nihoyasiga yetadi. Umuman olganda, hayotdan umidi soʻngan otaning qalbiga Sevinch yana bir “sevinch”ni hadya qilgan edi. Ota yana hayotga umid bilan boqishni boshlagan edi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Ulugʻbek Hamdam “Ota” romani .Toshkent Yangi asr avlodi 2020-yil.



## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY E‘TIQODNI SHAKLLANTIRISH

**Almardonova Dilsora Majidovna**  
Surxondaryo viloyati Termiz tumani  
1- Maktab direktori  
+998936333619  
DilsoraAlmardonova@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy etiqodni shakillantirishni muhim masalalari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kasb, kasbiy madaniyat, kasbiy e‘tiqod, kasbiy mahorat, kasbiy motivatsiya.

Kasb tushunchasi – biror narsani o‘rganish, egallash, hamda foyda, hunar mashg‘ulot kabi ma‘noni anglatadi. O‘rganish, egallash kabi faoliyatlar kasbiy e‘tiqod tushunchasini shakillantirishning asosi sanaladi. Avvalambor, e‘tiqod tushunchasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, e‘tiqod – ishonish, ishonch ko‘ngilda tasdiqlash, maslak demakdir. Qattiq ishonch, dildan e‘tirof etuvchi tushuncha, nuqtai nazar, qarash deb ham tushiniladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy e‘tiqodni shakillantirishda, kasbiy mahorat yetakchi o‘rin egallaydi. Kasbiy mahorat – ta‘lim jarayonida pedagogik strategiya, strategic maqsad va vazifalarni to‘g‘ri belgilash, qarorlar qabul qilish, ta‘lim jarayonini loyihalashtirish, innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish, ta‘limni bosharish jarayonga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarini joriy etish hamda boshqaruv usullari va metodlari, tamoyillaridan samarali foydalanishdan iborat kasbiy texnik darajasi bo‘lib, unda kasbiy motivatsiya bilan chambarchas bog‘liq. Kasbiy e‘tiqod kasbiy tajriba asosida mustahkamlanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy e‘tiqodni shakillantirish ishontirish shakillari asosida amalga oshiriladi. Ishontirish – shaxsning bilimlar tizimiga, dunyo qarashiga, xulq atvoriga, xatti-harakatiga ta‘sir eta olish va uni qisman o‘zgartirish tushuniladi.

Bo‘lajak o‘qituvchiarda kasbiy e‘tiqodni shakillantirish kasbiy tarbiyalash orqali mustahkamlanadi. Kasbiy tarbiya shaxsni kasbiy shakillantirishning ikki tomoni mavjud.

Shaxsning o‘z individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan ichki tomoni va muayyan jamiyatning iqtisodiy va tarixiy sharoitlari va maqsadlari bilan aniqlanadigan tashqi tomonlaridir.

Adabiyotlar :

1. Milliy G‘oya: Targ‘ibot texnologiyalari va atamallari lug‘ati. - T. “Akademiya” - 2007.
2. Pedagogika:”Pedagogika nazariyasi va tarixi”. – Nishonova, Hasanboyeva, Usmonboyeva, Mdiyarova. 2010.



**BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO  
BAHOLASH – PIRLS TIZIMIDAN FOYDALANISH**

**Atajanova Durjangul Erkinovna  
Bakiyeva Muxabbat Saparboyevna**

Xorazm viloyati Urganch tuman  
10-son maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda xalqaro baholash tizimlaridan foydalanish hamda bugungi kun ta'limini aynan, ushbu tizimlar asosida tashkil etishning zarurati haqida va ushbu tizimlarni boshlang'ich sinflardan boshlab tashkil etishning ahamiyati xususida fikr mulohazalar yuritiladi

**Kalit so'zlar:** PIRLS, ta'lim tizimi, PF-5538-son

Bugun mamlakatimizda ta'lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllanmoqda. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo'g'ini bo'lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularni hayotga tatbiq etish yo'llari atroflicha belgilab berildi. Jumladan, unda mamlakatimizning 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) - o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur reytingida jahonning 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifasi qo'yilgani ham Ushbu sohani xalqaro darajada rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga ayllanayotganing dalili desak, xato bo'lmas edi.

PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matni o'qish va tushunish darajasini baholash. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi sifatida 4-sinf o'quvchilarini xalqaro baholash tizimi PIRLS haqida ko'proq ma'lumot o'rganish maqsadida [www.tdi.uz](http://www.tdi.uz) sayti va [t.me/milliymarkaz](https://t.me/milliymarkaz) kanaliga ulandim. Matni o'qish va tushunishga o'quvchilarni biz 1-sinf dan o'rgatamiz. Ularni xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga qanday tayyorlash kerak, degan savol tug'ilishi tabiiy. Men bu yo'nalishda bir qancha ishlarni reja asosida boshladim. O'qish darslarida internetdan kichik hikoya va ertaklarni olib, 2 xil variantda o'quvchilarga uyga vazifa qilib berdim. Ertasi kuni hikoya haqida savol-javob o'tkazdim. "Hikoya nima haqida?", "Qahramonlar kim?", "Siz hikoyadan nimani o'rgandingiz?", "Sizga qaysi qahramon yoqdi?" kabi savollar bilan ularni imtihon qildim.

PIRLS TESTLARI (mezon asosida o'zim tuzgan savollar):

"Yomon otliq jazosi" (Abdulla Avloniy). "Bir kishining Qosim ismli bir o'g'li bor edi. Ota va onasining so'ziga kirmasdan har xil yomon ishlarni qilur edi. Bolalar birla urushib, yaqalashib, kiyimlarini yirtib kelur erdi. Uyda onasi mehmon uchun asrab qo'ygan taomlarini yegon vaqtida, onasi: "— Qosim, o'g'lim! Taomni sen yedingmu", desa "Men yeganim yo'q, mushuk yegondir", der edi. Bora-bora otasini pulini ham o'g'urlab oladigon bo'ldi. Otasi bilib, "O'g'lim, pulni kim oldi?" desa, "Onam olgandur", deb onasini o'g'ri qilur erdi. Bir kuni otasi ustol ustig'a bir tanga qo'yub, o'zi uxlagan kishi bo'lib yotdi. Qosim kelib, sekin tangani olib, og'ziga soldi. Shul vaqt otasi ushlab olmoqchi bo'lg'onda tangani yutub yubordi. Tanga borub Qosimning halqumiga tiqilib, jon berdi.

Bolalar, ko'rdingizmi, yomonning yomonligi o'z boshig'a yetdi.

1. Hikoya kim haqida?

A) Farzand B) Qosim D) Ovqat E) Yomonlik

2. Siz yolg'on gapirganmisiz?

A) Ha B) Yo'q D) Ba'zan E) Bir-ikki marta



3. Qosim otasiga taomni nima yedi deb aytdi?

A) Mushuk B) It D) O‘zi E) Hech narsa demadi

4. Qosim nimani yutib yubordi?

A) Pulni B) Tangani D) Nonni E) Ovqatni

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarini matn ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantiribgina qolmay, o‘quvchilarning fikrlash hamda o‘z fikrini erkin bildiraa olish ko‘nikmasini shakllantirishga ham yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyolar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son

2. <https://www.xabar.uz/uz/talim/ozbekiston-pirls-2021-xa>



## BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Axmedova Marhabo Ismailovna

Allazarova Anagul Sapayevna

Xorazm viloyati Urganch tuman

10-son maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy usullari hamda ularni dars jarayonida qo'llashning afzalliklari haqida fikr mulohazalar bildiriladi

**Kalit so'zlar:** hamkorlikdagi faoliyati, ilg'or pedagogic metodlar, zamonaviy ta'lim, innovatsion metod.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-ahloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

"Juft barmoqchalar" metodi ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan samarali metodlardan biridir. Mazkur metodning nomi bolada uni bajarishga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Metodni darsning turli bosqichlarida qo'llash mumkin. Masalan, ona tili darslarida son mavzusini uyga vazifa sifatida berishda foydalanish samaralidir. "Juft barmoqchalar" metodi ona tili va amaliy san'atning integratsiyasini o'zida aks ettiradi. Metodning qo'llanilishida o'quvchilarning barmoqlari ishlatiladi. Bunda, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga qo'l mehnati yordamida o'ng qo'l barmoqlariga sonlar va hisob so'zlarni yozishni tushuntiradi, chap qo'l barmoqlariga esa miqdori ko'rsatilgan shaxs-narsalarning rasmlarini chizish kerakligi va oxirgi bosqichda ikki qo'l barmoqlarini qovushtirganda, son va miqdori ko'rsatilgan narsa o'rtasida muvofiqlik hosil bo'lishi ta'kidlanadi. O'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan "Juft barmoqchalar" namuna sifatida ko'rsatiladi va tasvir orqali tushuntiriladi: chap qo'l ko'rsatkich barmog'iga 2 soni hamda hisob so'z yozilgan qog'ozchalar yopishtirilgan, o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'iga esa piyozning rasmi chizilgan. Ikki barmoqni juftlashtirganimizda "Ikki bosh piyoz" degan so'z hosil bo'ladi. Shunday davom etgan holda qolgan barmoqlarimizga ham rasmlarni chizamiz va sonlarni yozamiz.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilimsaviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada



shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak. Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, innovatsion metodlarni rivojlanishi mamlakat ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bu esa, mamlakat iqtisodiyotini oshirishning eng to'g'ri yo'li hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, maktablarda boshlang'ich sinflardan o'rgatib borish har bir pedagog oldidagi eng yusak vazifalardan biri.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.

2. Axmedov M., Abduraxmonova N.Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. “Turon-iqbol” 2008 yil., 160 bet

3. BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI, Nilufar Mahamadjon, Qizi Qo'Chqorova,



**KIMYO DARSLARIDA “AYLANA STOL ATROFIDA” METODINI QO’LLASH  
TEKNOLOGIYASI**

**Bekchonova Malika Soforboyevna**

Bog’ot tumani 41-son maktab

Telefon: +998 (94) 314 23 75

bekchonova.malika\_41@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola “Aylana stol atrofida” metodi orqali kimyo darslarini o’qitish haqida.

**Kalit so’zlar:** Didaktik o’yin, ro’lli o’yin, teatrlashtirilgan dars, “Aylana stol atrofida”, ishchanlik o’yini.

Respublika prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’limini rivojlantirish, yosh avlodga jahon andozalariga mos bilim, iqtidor va ko’nikmalar berish, ularni ona Vatanga, milliy istiqlol g’oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida ko’rsatayotgan doimiy g’amxo’rliги tufayli ta’lim-tarbiya ishlarining bugungi qiyofasi tubdan o’zgardi. U mustaqillikka erishib, taraqqiyot yo’lidan dadil borayotgan mamlakatimiz ruhini, g’oyalari va intilishlarini o’zida aks ettirgan ta’lim tizimiga aylanmoqda. Eng asosiysi, mamlakatimizda ta’limning hali jahon amaliyotida kam uchraydigan betakror milliy modeli yaratildi.

Didaktik o’yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o’yinlardan iborat. Bu o’yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko’nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ishchanlik o’yin darsi – dars mavzusi bo’yicha masalalarni hal etish jarayonida o’quvchilarning faol ishtirok etishini ta’minlash orqali yangi bilimlarni o’zlashtirish mashqi.

Ro’lli o’yin darsi – dars mavzusi bo’yicha masalalarni o’rganishda o’quvchilarga oldindan ma’lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu ro’lni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustaxkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog’liq sahna ko’rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo’yicha chuqur, aniq ma’lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o’quv fani bo’yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o’quv kursi va shu kabilar) asosida o’tiladigan dars.

**“Aylana stol atrofida” metodi**

“Aylana stol atrofida” metodi asosida ishlash qoidalari

1. Birgalikda o’rganish usuliga asoslanadi.
2. Qog’oz va har xil rangdagi qalamlar kerak bo’ladi.
3. Guruh a’zolari atrofida qog’oz va qalam surilib boriladi.
4. Ishtirokchilar o’rtaga tashlangan mavzuga oid yuqoridagi masala asosidamasala tuzadi
5. Guruhdoshiga uzatadi.
6. U ham tuzgan masalani boshqa rangdagi qalamda yozib keying ishtirokchiga beradi;
7. Ranglar turli bo’lishi har bir ishtirokchining shaxsiy fikrini, masala yuzasidan ishtirokini aniqlash uchun kerak bo’ladi.
8. Fikrlar jamlanib, muhokama qilinib masalaning yechimi topiladi.

Masalan: “Kimyoviy reaksiya turlar” mavzusi yuzasidan masalalar tuzing?

Har bir o’quvchiga bittadan oq qog’oz beriladi, qog’ozda masalalar har xil rangli ruchkalarda yozib chiqiladi.

Birinchi guruh: 20 gr  $KMnO_4$  parchalanganda necha l n.sh.da kislorod ajraladi?

Ikkinchi guruh: masala guruh a’zolari bilan birgalikda yechiladi va uchinchi guruhga masala tuzib beriladi. 3 g fosfor yonganda qancha  $P_2O_5$  hosil bo’ladi?

Uchunchi guruh: masala guruh a’zolari bilan birgalikda yechiladi va birinchi guruhga masala tuzib beriladi.

2 gr  $Al_2O_3$  temir bilan qaytarilganda necha gr Al hosil bo’ladi?



Har bir guruhga aytilgan topshiriqni bajaradi, o`qituvchi tomonidan tahlil qilinib, rag`batlantiriladi.

Bunday darslar o`quvchilarga fanlararo bog`liqlikni o`rgatish orqali ularda odam tuzilishining ilmiy asoslarini to`liq idrok etrok etish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ijodiy tafakkurlarni rivojlantirishga hizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlarro`yhati:**

1.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar. – T.: —Iste`dodl jamg`armasi, 2008.

2.Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.– T.: —Fan va texnologiyalarl nashriyoti, 2011.

3.Ro`zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo`llanilishi Metod.qo`ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANI O'RGATISH

**Sadoqat Davronova Tojiddinova**

Namangan viloyati Norin tuman

28-umumta'lim maktabi

Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

934322807 sadoqatdavronova@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali o'qituvchilarni boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'rgatish va o'quvchilarni matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini o'stiradi va turli hil didaktik ko'rgazmalardan foydalanish orqali yetarlicha samara berishi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Amliy, ko'rgazmaliy, ta'lim-tarbiya, interfaol metodlar, o'quvchilar va o'qituvchilar, mantiqiy masalalar, guruhlarda ishlash

Yurtimiz rivoji bugungi kun yoshlari qo'lida bo'lib ularni kamoliga yetkazishda ta'limni o'rni juda beqiyosdir. Bugungi kun bolalari juda ham talabchan va qiziqishi kuchli. Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish vazifalari va bolalar bog'chasida arifmetika asoslarini tarkib toptirish, - miqdor, makon va zamonga oid tasavvurlarni rivojlantirish o'qitish, ning asosiy shartidir. Har bir mashg'ulotda tarbiyachi mavzu mazmunining asosiy masalalari va uni darsda ishlash metodikasini ochib beradi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, berilayotgan tavsiyalar; odatda, bolalarga berilishi kerak bo'lgan topshiriqlar, mashqlar, savollarning tipik namunaiaridir. Bunday mashqlar sonini o'qituvchi sinf bilan ishlashning aniq shart-sharoitlarini hisobga olib, mustaqil ravishda aniqlashi kerak. Katta guruhladi bolalar o'qitishda didaktik ko'rsatma materiallardan keng foydalanish xarakterlidir. Amaliy ishlar, ko'rgazma tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan topshiriqlar ham namunalar sifa- tida qaralishi mumkin. O'qituvchi ularga o'zida bo'lgan ko'rsatmaqo'llanmalarni hisobga olib tuzatishlar kiritishi mumkin. Ko'pchilik hollarda tavsiya etilayotgan og'zaki mashqlar materialini o'qituvchi turli usullarda berishi, ba'zan esa guruhning tayyorgarligiga qarab almashtirishi ham mumkin. O'qituvchi tavsiya etilayotgan didaktik o'yinlarga ham ijodiy yondashish kerak. Bunda o'yinlarni o'tkazishda foydalaniladigan, har bir mashg'ulotning aniq vazifalarini hisobga olib, o'zi o'yinlardan foydalanishi mumkin. Tayyorlov guruhlarda matematikani o'rgatish metodikasi Bolalar bog'chasining tayyorlov guruhi bir haftada ikkita, bir yilda 72-74 mashg'ulot o'tkazish rejalashtiriladi. Mashg'ulotlar sentabrdan may oyining oxirigacha har biri 25-30 minutdan o'tkaziladi. Mashg'ulotlarda didaktik o'yinlar, ko'rgazmali materiallardan keng foydalaniladi. Bolalar mashg'ulotlarga qiziqib qatnashishlari uchun tarbiyachi quyidagi talablarga rioya qilishi lozim:

1. Dastur materiallarini yaxshi o'zlashtirib olishi. 2. Puxta material (namoyish qiluvchi va tarqatma) tayyorlash.

3. Bolalar faoliyatini o'zgartirib turishga va ularning qiziqishlariga e'tibor qilish. . .

4. Mashg'ulot o'rtasida harakatli o'yinlar o'tkazishni rejalashtirish.

5. Mashg'ulot davomida bolalarning mustaqil xulosa chiqarishlariga erishish. –

6. Bolalarning xilma-xil javoblarini rag'batlantirish.

Dastur materialini mashg'ulotlarga taqsimlashda bolalarning bilim va ko'nikmalariga, ularning tayyorgarligiga e'tibor berish lozim. Maxsus atamalarni to'g'ri qo'llay bilish katta ahamiyatga ega. Masalan, son va raqam tushunchalarini aralashtirib yubonmaslik kerak. «Qaysi son katta, qaysinisi kichik» deb so'raladi (qaysi raqam ,katta deyish mumkin emas). Mashg'ulotda hamma bolalarning faol ishtiroketishlariga erishish maqsadida har bir bolaning oldida tarqatma materiallar bilan bir qatorda ko'rgazmalar bo'lishi tavsiya etiladi. Bunda hamma bolalar o'rtoqlarini javobini diqqat bilan eshitishga harakat qiladilar, intizom buzilmaydi, shu bilan bolalarni test sinovlariga tayyorgarlik ham hisobga olinishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Matematika o'qitish metodikasi” S.Alixonov . Toshkent 2011

2. “Matematika analiz” 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent “O'qitvchi-1994”

3. www.ziyouz.com kutubxonasi



МАКТАБДА ОНА ТИЛИ ФАНИНИ О’ҚИТИШДА “ЗИГ–ЗАГ” YANGIN INTERFAOL  
TEXNLOGIYASIDAN FOYDALANISH.

**Egamberganova Oydinoy**

Surxandaryo viloyati Termiz tumani  
24-maktab Ona tili va adabiyot fan o’qituvchisi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o’qituvchi va o’quvchi faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalanilgan haqida ma’lumotlar keltirilgan.

*Kalit so’z:* ta’lim, tarbiya, tizim, spiker, bosqich, so’z turkumi, topshiriq.

Respublikamizda ta’lim tarbiyaning mazmun va mohiyatining o’zgarishi o’qituvchi va o’quvchi oldiga yangidan – yangi muammolarni ko’ndalang qilib qo’ydi. Ta’lim-tarbiya jarayonida vujudga kelgan ta’lim yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonlarda ta’lim texnologiyalarini qo’llashni taqozo etadi. Ta’lim tarbiya jarayonida, jumladan, ona tili darslarida so’z turkumlari mavzusini o’rganish barobarida o’quvchilarning bilim va tahsil olishga bo’lgan qiziqishlarini orttiriladi, bilish faoliyati faollashtiriladi, ta’lim tarbiya jarayonini yuqori darajada bo’lishiga imkon yaratadi.

Gulli o’simliklar bo’limining umumiy tavsifi va ularning bir-biridan farqi.

**“Zig-zag”:**

**1-bosqich** - mayda guruhlariga ajratiladilar va spiker (boshliq saylanadi).

**2-bosqich** – o’quvchilar raqamlanadilar va bir xil raqamlar bir-birini “topadilar”.

**3-bosqich** - topshiriq beriladi.

**I guruh vazifasi:**

**Masala.** So’z turkumlarini umumiy tavsifiga oid ma’lumotlarni qisqa muddat ichida o’qib o’zlashtirish.

**II guruh vazifasi:**

**Masala.** So’z turkumlarning bir-birlardan farqi bayon etilgan ma’lumotlarni qisqa muddat ichida o’qib o’zlashtirish.

**III guruh vazifasi:**

**Masala.** So’z turkumlari bayon etilgan ma’lumotlarni qisqa muddat ichida o’qib o’zlashtirish.

**IV guruh vazifasi:**

**Masala.** So’z turkumlarini bir biriga bog’lanishi bayon etilgan ma’lumotlarni qisqa muddat ichida o’qib o’zlashtirish.

**V guruh vazifasi:**

**Masala.** So’z turkumlarining turlari bayon etilgan ma’lumotlarni qisqa muddat ichida o’qib o’zlashtirish.

**4-bosqich** – berilgan topshiriqni o’zlashtirish uchun berilgan vaqt tugagach, yana o’z joylariga qaytib boradilar, har bir a’zo o’zi o’zlashtirgan materialni eski sheriklariga aytib beradi.

**5-bosqich** – o’qituvchi guruxlarga savol beradi va javoblar baholanadi.

**6-bosqich** – guruxlar baholari guruxlarning raqamlari ko’rsatilgan jadvalga qo’yib boriladi.

Har bir raqamlanganlar yangi va har xil topshiriqlar olganini hisobga olsak, har bir talaba o’z guruhi manfaati uchun ham berilgan topshiriqni bilishi kerak va bilishga majbur. Chunki, u o’z guruhi qaytganda, o’rgangan mavzu bo’yicha savol-javobda guruhi nomidan qatnashishi kerak. Ushbu pedagogik texnologiya yordamida o’quvchilar o’qigan ma’lumotlarini 80-90% o’zlashtiradi. Sababi ushbu jarayonda, o’qiydilar, eshitadilar, ko’radilar, gapirib beradilar va amalda bajaradilar. Insonlar bilimlarini o’qiganlarining taxminan 10%ini, eshitganlarining 20%ini, ko’rganlarining 30%ini, ko’rgan va eshitganlarining 50%ini, o’zi gapirib berganlarining 70%ini va o’zi amalda bajarganlarining 90%ini eslab qolar ekan.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Aldjanova I.R. Bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashda pedagogik innovatsiyalardan foydalanish. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2011

2. Abdullayeva K. va boshqalar. Savod o’rgatish metodikasi. T., «O’qituvchi», 1996-yil. 18-25-betlar.

3. Jo’rayev R.H., Raximov B.X., Xolmatov Sh.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2005. -49 b.



## ОНА ТИЛИ ДАРSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASH VA NUTQ O'STIRISH

**Ergasheva Orzigul Hakimovna**  
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
29-makab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
(+998919752886)

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinflar o'quv dasturida ona tili, o'qish bolalarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta'sirchanligini ta'minlashning muhim omilidir", deyiladi. Bu vazifalar grammatik mavzularni o'rganish, mashq matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug'aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi.

**Kalit so'zlar:** Grammatika, tahlil, nutq, estetika, etika, so'z tarkibi, urg'u, bo'g'in.

Ona tili o'qitishning bosh maqsadi ham tilning jamiyatda tutgan o'rni, vazifasi bilan belgilanadi. Til - aloqa vositasi, chunki so'zlovchi fikr-mulohazalarini til orqali bayon qiladi, tinglovchi esa til vositalari orqali ro'yobga chiqqan fikrni anglaydi. Ona tili fani o'quvchilarni fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga

tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro'yobga chiqadi, shu sababli har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilish uning grammatik qonun-qoidalarini, ta'rifini o'zlashtirishgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish hamdir, ya'ni fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug'at ustida

ishlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Lug'at ishida so'zning ma'nosi, talaffuzi va imlosi e'tiborda tutiladi. Bular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o'quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o'zgalar

nutqini anglashlarini ta'minlashdir. Buning uchun o'qituvchi ona tili darslarida qo'llangan har bir so'zning va ta'limiy jarayonlarda: ekskursiya, o'zaro suhbat, turli tadbirlarda ishlatilgan so'zlarning ma'nosiga e'tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olishi kerak. Tilning lug'at boyligini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi uchun ona tili darslarida so'zlar va ularning ma'nolari quyidagicha tanishtiriladi:

1. O'quvchilarni notanish so'z va iboralar bilan tanishtirish. O'quvchilar darslikdagi so'z va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan bo'lishi mumkin. Bu so'z yangi paydo bo'lgan so'z bo'lmasa ham, o'quvchi uning ma'nosini bilmaydi, demak, o'quvchi uchun yangi so'z hisoblanadi. Masalan, 1 -sinf «Ona tili» darsligida xabib (do'st), darparda (oyna o'rniga shaffof qog'oz yopishtirilgan derazaparda), mag'rur (kekkaygan, mag'rur-kamtar), kamol (har tomonlama yetuk, to'kis, kamol topmoq-xazon bo'4moq), xaroba (qarovsiz qolgan vayrona), qardosh (do'st, birodar, qarindosh-urug), safdosh (harbiy xizmatda birga, tashkilotda birga), sarkarda (qo'mondan, lashkarboshi), zeb (bezak, ko'rk, husn), qasr (hashamatli saroy, ko'shk) kabi so'zlarga duch keladilar. Bunday so'zlarning ma'nosini sinonimlar keltirib kengaytirish yo'li bilan, qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan izoh berish yo'li bilan, gap tuzish orqali ma'nosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish yo'li bilan tushuntirish mumkin. Bunday ishlash o'quvchilarda so'z ma'nolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi.

2. O'quvchilarni so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish. O'quvchilar ko'p ma'noli so'zlarning bir ma'nosini tushunsa, boshqa ma'nosini bilmasliklari mumkin. Bolalar so'zlarning hamma ma'nolarini birdaniga o'zlashtirib ololmaydilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova □ Ona tili o'qitish metodikasi □
2. Internet ma'lumotlari



## TARIX FANINING O‘QITILISHI

**Erigitova Nigora Toxirjonovna**  
**Qo‘ziyev Nodirjon Qobilovich**  
O‘zbekiston tumani 29-maktab  
tarix fani o‘qituvchisi  
e-mail:qobilovich@inbox.uz

**Annotatsiya:** maqolada tarix fanini o‘qitish, ajdodlar merosini o‘quvchilarga yetkazish, tarixiy davrlarni yoritish, o‘quchilarda o‘z xalqi tarixidan faxrlanish hissini shakllantirish kabi masalalarga e‘tibor qaratilgan

**Kalit so‘zlar:** tarix fani, tarixiy an‘analar, ajdodlar merosi, O‘zbekiston tarixi

Taniqli metodist A.I.Strajev aytganidek: «Tarix o‘qitish metodi tarixiy material bo‘yicha qilinadigan ana shu mantiqiy operatsiyalardan tashkil topadi». O‘qitish metodlarini ba‘zan o‘quvchilarning bilish faoliyati, faollik darajasiga qarab klassifikatsiyalash tavsiya qilinadi. Bu tarzda ajratish o‘qitish metodlaridan ko‘ra, ko‘proq o‘qitishning umumiy xarakteriga taalluqlidir. 60-yillarda tarix o‘qitish metodlari va ularni klassifikatsiyalash turlicha hal qilindi. Metodist A.I.Strajev «Tarix o‘qitishning tashkil etilishi, metodlari va vositalari tarix fanining ma‘lum ta‘lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi»— deydi. Biroq, u ham o‘qitishning asosiy metodlarini tarixiy jarayonning o‘zini o‘rganish metodidan iborat qilib qo‘yib, masalada noaniqlikka yo‘l qo‘yadi. A.I.Strajev quyidagi o‘qitish metodlarini tavsiya qiladi: 1) tarixiy faktlarni o‘rganish metodlari; 2) xronologiyani o‘rganish metodlari; 3) mahalliy tarixiy voqealarni o‘rganish metodlari; 4) asosiy tarixiy tushunchalarni shakllantirish metodlari; 5) sabab-natija aloqalarni o‘rganish metodlari; 6) tarixiy jarayonning qonuniyatlarini ochib berish metodlari. Ma‘lumki, tarix o‘qitish — o‘qitish va o‘rganishni tashkil etish jarayonidan iborat.

O‘qitish metodikasida tarix ta‘limi metodlari tizimining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi va bu sohada yagona fikr bo‘lmaganligi o‘rta ta‘lim va o‘rta maxsus ta‘lim tizimida tarix o‘qitish amaliyotida jiddiy kamchiliklarga olib keldi. Ko‘p hollarda o‘qituvchilar o‘qitish metodlari va usullarini tanlashda dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga faqat tayyor bilim berish, ya‘ni ularni o‘qitish (ta‘limning bir tomonini)ni ko‘zda tutib, o‘quvchilarning o‘rganishi (ta‘limning ikkinchi muhim tomonini)ni uyushtirish, unga rahbarlik qilish, bilish, malaka va qobiliyatlarini sistemali ravishda o‘stirib borish kabi muhim momentlarni e‘tibordan chetda qoldiradilar. Shuningdek, o‘qitishning metod va usullarini tanlashda o‘quv materialining mazmunidagi o‘ziga xosliklarni, uning ta‘lim-tarbiya vazifalarini, o‘quvchilarning bilimi va malakalarini e‘tiborga ola bilmaslik hollari ham shunday jiddiy kamchiliklar jumlasidan edi. Bu hol ma‘lum darajada o‘quvchilarning tarix predmetiga qiziqishlari pasayishiga, umumiy ta‘lim-tarbiya ishlarining natijasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, o‘rta ta‘lim va o‘rta maxsus ta‘lim tizimida amaliyotida, ayniqsa keyingi yillarda o‘quvchilarni tarix predmeti vositasida tarbiyalashda, uni o‘qitishni ilmiy asosda olib borish, ta‘lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish sohasida ko‘pgina ilg‘or tajribalar to‘plandi va umumlashtirildi. Belgilab bergan muhim vazifa — tarixiy bilimlarning samaradorligi va sifatini oshirishning muhim sharti va vositalaridan biri bo‘lgan bu ishlar tarix o‘qitish metodlari sistemasini va metodik usullarini ham ilmiy asosda ishlab chiqish va amalda ulardan muvaffaqiyatli foydalanish imkoniyatini beradi.

O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘rganish o‘quvchilarning bu tarixiy an‘analar va oliyjanob fazilatlar manbalarini, ular mustahkam zaminga egaligini, tarixan tarkib topganligini, avloddan avlodga o‘tib, mazmunan boyib borganligini, jamiyatning ravnaqi va farovonligi, insonlarning ma‘naviy kamoloti uchun xizmat qilib kelganligi, ularni bundan keyin ham asrab-avaylab davom ettirish, avlodlarimizning insoniy fazilatlariga sodiq bo‘lish o‘zlarining muqaddas burchlari ekanligini anglab olishlariga yordam beradi.

O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘rganish o‘quvchilarni avlodlarimizning ko‘p ming yillik madaniy va ma‘naviy merosi, ularni jahon ilmiy tafakkuri va madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan

ulkan hissasi bilan tanishtirish, madaniyatimizning benazir allomalari nomlarini hurmat bilan tilga olish, ular bilan fahrlanishga, milliy iftixor tarbiyasini amalga oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, O‘zbekiston xalqlari tarixi o‘qituvchilarining milliy ongini o‘stirishda, o‘zlikni anglashida, ular siyosiy madaniyatini oshirishda, mustaqil respublikamizning ijtimoiy



faol va ma'naviy barkamol kishilarni haqiqiy inson, vatanparvar qilib tarbiyalashda juda katta imkoniyatlarga egadir. Maktabda O'zbekiston xalqlari tarixini o'qitishning bu imkoniyatlaridan samarali foydalanish o'qituvchiga, uning mazkur tarixning yangilangan mazmunini, uni o'qitish uslubi-yatini mukammal bilishiga, ta'lim va tarbiya ishlarini ilmiy asosda uyushtira olishiga bog'liqdir.

Tarix o'qitish metodikasi o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. O'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'rganilishi tarix o'qitish metodikasining predmetini tashkil etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. U.Jo'rayev. 7-sinf Jahon tarixidan o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.-T.: 2000
2. N. Norqulov, U.Jo'rayev . 8-sinf O'zbekiston tarixi. Sharq. T. 2000
3. J.Raximov. 9-sinf O'zbekiston tarixi. Toshkent. 2000



## O'QITISHDA SVETOFOR METODIDAN FOYDALANISH

**Ganjayeva Shaxloxon Xo'sin qizi**

Xorazm viloyati Shovot tumani

8 – maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinflarni o'qitishda svetofor metodidan foydalanib o'qitish haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy metodlar, ta'lim metodlari, svetofor metodi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

### **Svetofor metodi ta'rifi:**


Ma'lum mavzuni o'rganish vaqtida o'qituvchi u bo'yicha tyezislarni tayyorlaydi (5-7ta, mavzuning murakkabligiga qarab). Tezislar navbatma – navbat doskaga yoziladi (tasviri tushiriladi yoki oldindan tayyorlangan plakatlar shaklida ilib qo'yiladi). O'quvchilarga o'ylab chiqish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. So'ng tezis bilan rozi bo'lgan har bir o'quvchi yashil kartochkani ko'taradi; rozi bo'lmagan – qizil kartochkani; ikkilanayotgan yoki qaror qabul qilishda betaraf bo'lishni xohlayotgan – sariq kartochkani yuqoriga ko'taradi. Agar ishtirokchilar fikri asosan bir-biriga mos keladigan bo'lsa, o'qituvchi navbatdagi tezisga o'tadi. Agar tezis muhokama qilinishni talab qilsa, ishtirokchilardan o'z qarorlarini asoslab berish iltimos qilinadi.

### **Foydalanish doiralari:**

Tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda, topshiriqlar ma'lum o'quv mavzusiga va ma'lum yoshdagi o'quvchilar guruhiga moslashtirilgandan keyin.

### **Afzalliklari :**

Ushbu mashq barcha o'quvchilarning fikrini bilib olishga imkon beradi: hych kim oddiygina tomoshabin bo'lib qolmaydi. Ishtirokchilarning ko'pchiligida mashq boshlanganidan kyeyin birozdan so'ng nuqtai nazardagi tafovutlar sabablarini bilish va o'z fikrini asoslash bo'yicha kuchli qiziqish paydo bo'ladi. O'quvchilarning nutqini, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, asoslash qobiliyatini rivojlantiradi.



**Qiyinchiliklari:**

Agar vaqt cheklovlari sababli munozara o'tkazishga imkon bo'lmasa, ushbu uslubdan foydalanish kerak emas. Agar tezislarining ko'pchiligi bo'yicha ishtirokchilar fikri bir-biriga mos kyelsa, mashqqa bo'lgan qiziqish tezda yo'qoladi. Mashq o'tkazish uchun resurslarni puxtalik bilan tayyorlashni talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sayidahmedov N. «Yangi pedagogik texnologiyalar». T. «Moliya» 2003
2. yil.
3. Farberman V. «Ilg'or pedagogik texnologiyalar». T. «Fan» 2000 yil
4. Ishmatov Q. «Pedagogik texnologiya». Namangan 2004 yil.



## МАТЕМАТИКА ДАРSLARIDA YOSHGA DOIR INNAVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

Nasiba G'apurova Sobirjonovna

Namangan viloyati Norin tuman  
28-maktab boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi  
934909676 nasibagapurova@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarida yoshga doir usullar orqali matematika fanini o'rgatish haqida keng ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, o'quv predmeti, matematika darsi, nazariy ma'lumotlar, bilim, mustahkamlash, tanqidiy fikrlash

Boshlang'ich sinfda matematika darsi va o'qitishning turli shakllari Maktabda matematika o'qitishni uyushtirishning tarixiy, murakkab, ko'p yillik tajribada tekshirilgan va hozirgi zamonning asosiy talablariga javob beradigan shakli darsdir. O'quvchilarning matematik bilimlarni o'zlashtirishi faqat o'quv ishida to'g'ri metod tanlashga bog'liq bo'lmasdan, balki o'quv jarayonini tashkil qilish formasiga ham bog'liqdir. Dars deb dastur bo'yicha belgilangan, aniq jadval asosida, aniq vaqt mobaynida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning o'zgarmas soni bilan tashkil etilgan o'quv ishiga aytiladi. Dars vaqtida o'quvchilar matematikadan nazariy ma'lumotga, hisoblash malakasiga, masala yechish, har xil o'lchashlarni bajarishga o'rganadilar, ya'ni darsda hamma o'quv ishlari bajariladi. Matematika darsining o'ziga xos tomonlari, eng avvalo, bu o'quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu xususiyatdan biri shundan iboratki, unda arifmetik material bilan bir vaqtda algebra va geometriya elementlari ham o'rganiladi. Matematika boshlang'ich kursining boshqa o'ziga xos tomoni nazariy-amaliy masalarning birgalikda qaralishidir. Shuning uchun har bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy o'quv va malakalar singdiriladi. Odatda darsda bir necha didaktik materiallar amalga oshiriladi: yangi materialni o'tish; o'tilgan mavzuni mustahkamlash; bilimlarni mustahkamlash; bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish; mustahkam o'quv va malakalar hosil qilish va hokazo. Matematika darslarining o'ziga xos yana bir tomoni shundaki, bu - o'quv materialining abstraktligidir. Shuning uchun ko'rgazmali vositalar, o'qitishning faol metodlarini sinchiklab tanlash, o'quvchilarning faolligi, sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi kabilarga ham bog'liq. Matematika darsida turli-tuman tarbiyaviy vazifalar ham hal qilinadi. O'quvchilarda kuzatuvchanlikni, ziyorlikni, atrofga tanqidiy qarashni, ishda tashabbuskorlikni, mas'uliyatni va sof vijdonlilikni, to'g'ri va aniq so'zlashni, hisoblash, o'lchash va yozuvlarda aniqlikni, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlarini tarbiyalaydi. O'quv ishini tashkil etishning darsdan tashqari quyidagi shakllari mavjud:

1. Mustaqil uy ishlari.
2. O'quvchilar bilan yakka va guruh mashg'ulotlari.
3. Matematikaga qobiliyatli o'quvchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar.
4. Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar.
5. O'quvchilar bilan ishlab chiqarishga, tabiatga ekskursiya.

Bu yerda sanab o'tilgan ish shakllari va dars, bir-birini to'ldiradilar. Asosiy masala darsga taalluqlidir. Darsda **Itan;ma** ishlarga bevoqif o'qituvchi rahbarlik qiladi. QO'shimcha mashg'ulotlarda esa Ish o'qituvchining o'zi tomonidan yoki o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladi. *Boshlang'ich sinflarda matematika darslar tizimi* O'quvchilar bilan har bir darsda bir necha tushunchalar bilan ish olib boriladi. Har birini shu darsning turli bosqichlarida o'zlashtirishi mumkin. Har bir tushunchani tushunish boshqa bir tushunchani takrorlash, esga olish bilan olib borilsa, bu tushuncha esa keyingi tushunchalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. O'qitish jarayonida har bir o'quv materiali rivojlantirilgan holda olib boriladi, bu o'quv materiali o'zidan keyin o'qitiladigan materiallarni tushunish uchun poydevor bo'ladi. Boshqa tushunchaning o'zlashtirish jarayonini qarasa, u bir necha darslarning o'zaro bog'liqlik o'qitilishi natijasida hosil bo'ladi. Shunday qilib matematik tushunchalarini hosil qilish birgina darsning o'zida hosil qil- 56 inmasdan, balki o'zaro aloqada bo'lgan bir qancha darslarni o'tish jarayonida hosil qilinadi. Bunday darslarni birgalikda darslar tizimi deb ataymiz. Shuning uchun o'qituvchi mavzuning mazmunini ochadigan darslarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirishi kerak. Eng katta talab darsning o'quv-tarbiyaviy maqsadini e'tiborga olish juda ham zarurdir

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Matematika o'qitish metodikasi” S.Alixonov . Toshkent 2011
2. “Matematika analiz” 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent “O'qituvchi-1994”
3. www.ziyouz.com kutubxonasi



**YOSHLARNI MEHNATSEVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING AHAMIYATI**

**Haqnazarova Obida Mamarajabovna,**  
Navoiy viloyat Nurota tuman 3-maktab  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Alisher Navoiy merosi shu qadar ulkanki, bu merosni har qancha o'rgangan bilan uning mohiyatiga to'la yetib bo'lmaydi. Unda ilgari surilgan g'oyalar va ularning badiiy talqini asrlar osha kishilarni hayratga solib kelmoda. Chunki Navoiy qalamga olgan, badiiy aks etirgan turmush muammolari, hayotiy haqiqatlar, vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, sadoqat, vafodorlik, rostg'oylik, ma'rifatparvarlik singari g'oyalar bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotgan emas va ularning naqadar zamonaviy ruh kasb etishi buyuk mutafakkir badiiy merosining qadr-qimmatini tobora oshirib bormoqda. Biz shoir ijodiga qayta-qayta murojaat qilar ekanmiz, mustaqillik tufayli yuzaga kelgan milliy istiqlol mafkurasi oldimizga qo'ygan ulug'vor vazifalarni hal etishimizda bu asarlar nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini, yosh avlodni barkamol insonlar qilib voyaga yetkazishda ko'makdoshligini his etamiz.

Yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash bugungi kun pedagogikasining muhim talablaridan biridir.

Kasb-hunarga yo'naltirishda va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda badiiy asarlar yetakchi o'rin tutadi. Xususan, bu borada Alisher Navoiy asarlarining alohida o'rni bor.

Buyuk mutafakkir shoir, so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy o'zining bebaho va umrboqiy asarlari bilan o'zbek adabiyotini yuksak darajaga ko'tardi. Uning ijodi biz uchun ilg'or intilishlari, hayotiy mazmuni, ko'pqirraliligi bilan yanada qadrlidir.

Alisher Navoiyning “Xamsa” asari insoniyat badiiy tafakkurida sodir bo'lgan mumtoz hodisalardan bo'lib xalqimizning, boy ma'naviy xazinalardan biriga aylandi.

Bugungi kunda Navoiyshunos olimlarimizdan N.Karimov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, S.G'aniyeva, A.Abdug'afforov, B.Qosimov, N.Mallayev, B.Valixo'jayevlarning ilm oldidagi xizmatlarini hoyatda katta bo'lib, ularning ilmiy izlanishlari bizni Navoiyni anglashga, asarlarining mazmun-mohiyatiga chuqurroq kirib borishimizga, yanada teranroq tushinishga yordam berib kelmoqda.

Alisher Navoiy ijodida halol mehnatni ulug'lash, uning inson hayotidagi ahamiyatini ta'kidlash muhim o'rin tutadi. Buni birgina “Farhod va Shirin” dostonidagi quyidagi baytdan ham bilib olishimiz mumkin:

Zaruratkim, solib bir o'zgacha tarx,

Bu “Mehnatnoma”ni qilg'umdurur sharx.

Asar mazmunidan kelib chiqqan holda Farhodning mislsiz qahramonliklari, xususan mehnatsevarligi, mehnatda ko'rsatgan mo'jizalarini ko'zda tutib Navoiy bu asarni “Mehnatnoma” deb ataydi. Dostonning asosiy qahramon iFarhod obrazidagi insoniy fazilatlar orasida mehnatsevarlik alohida ajralib turadi. Mehnat insonni yuksaklikka yetaklaydi, umrini bezab, mazmun-mohiyat kasb etadi. Farhod hunarda kamolotga erishgunga qadar uzoq vaqt tajriba orttirdi. Horundan toshtaroshlik hunarni o'rgandi, malaka hosil qildi. Boniydan me'morlikni, Moniydan esa naqqoshlik sirlarini qunt va sabot bilan o'rgandi, bu san'at unga yoqib qoladi.

Alisher Navoiy har bir ishda tajriba to'plash, malaka hosil qilish, mashqlar inson uchun shuhrat keltirishi va kutilgan natijalar garovi ekanligini ta'kidlaydi:

Jahonda har kishi kim bir ishi bor,

Ishida ul kishining varz ishi bor.

Farhod Shirin ishqida beorom bo'lib, qiyinchilikarni yengib Shopur bilan Arman yurtiga boradi. Farhod Arman tog'larida ariq qazish bilan mashg'ul bo'lgan kishilarning zahmatini yengillashtirish uchun bor hunarini ishga soladi. Horundan o'rgangan hunari bilan yeng shimarib ishga kirishar ekan, og'ir mehnatdan ezilganlarga yordam qila turib shunday o'ylaydi:

Hunarni asrabon netkumdir oxir,

Olib tuproqqamu ketkumdir oxir!

Farhod boshqalarga oylab qila olmagan ishlarini bir kunda bajaradi. Farhod o'zi bajarayotgan ish bilan shuhrat qozonadi, bunday afsonaviy bahodirning qahramonligi tezda atrofga tarqaladi, Shirin ham Farhodning aql-u zakovati, hunariga lol bo'ldi.



Navoiy Farhoddagi insoniy fazilatlarini sanab, Farhodning bolalikdan boshlab ilm o`rganishi, uning bilmagan ilmi qolmaganligi, xususan uning mehnatsevarligini san`at darajasiga ko`tarib tasvirlaydi.

Adabiyot darslarida o`quvchilarni kasb-hunarga va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda Alisher Navoiy asarlarining o`rni beqiyos. Xususan, “Farhod va Shirin” dostonidagi ijodiy mehnat, kasb-hunar egallash va egallangan kasb-hunar sirlarini o`z o`rnida mohirlik bilan ishlatish, el-yurt farovonligi yo`lida tinimsiz ishlash va ijodkorlik, fidoiylik o`quvchilar ma`naviy salohiyatiga samarali ta`sir etadi, axloqan kamolotga erishishga undaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning kasb-hunar egallashlari uchun keng sharoitlar yaratilgan. Hatto 2019-yilning hukumatimiz tomonidan “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb nomlanishi ham tadbirkor, hunarmand kishilarni yanada ilhomlantirdi, g`ayrat va shijoat bilan ishlashga, o`z hunarining go`zalligini olamga namoyish etishga, mehnatining samarasini ko`rishga yana bir bor imkoniyat yaratdi.

Alisher Navoiy qarashlaridan kelib chiqqan holda qalbida vatanparvarlik jo`sh urib turgan har bir shaxs kasb-hunar egallashi, egallagan kasb-hunarini asrab yurmasdan elimizning gullab yashanishi, odamlarga ko`proq naf keltirish yo`lida

Sarflashi kerak.

Bobokalonimiz Alisher Navoiy butun umrini xalq ishiga, mamlakat istiqboliga baxsh etdi. Mehnatni ulug`lagan, o`zi ham zo`r kuch, matonat bilan ijod etgan bu siymo o`zidan badiiy nom qoldirdi va bizga uzoq asrlar ortida turib hanuz:

Umrni zoye etma, mehnat qil

Mehnar saodatning kaliti, bil-deya da`vat qilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. 20 tomlik. 3-tom. Xazoyin ul maoniy. G`aroyib-us-sig`ar. -Toshkent: Fan, 1998.

2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. 20 tomlik. 4-tom.



## EFFECTIVE WAYS TO USE INTERACTIVE METHODS IN LEARNING ENGLISH TODAY

**Isakova Anora Jumanovna,**

English Teacher of the secondary school № 32  
Yangihayot district, Tashkent

**Abstract:** The article is devoted for the effective ways of teaching grammar. Actuality of the theme is justified as it sets conditions for revealing high progress in teaching a foreign language and for developing effective methods which can be helpful for foreign language teachers. Different progressive methods of teaching English grammar are given in this paper as well.

**Keywords:** interactive methods, communication, effective lesson, teaching methods; education, learning language;

Today, in its most general form is defined mandatory minimum content of social scientific education graduates. Teachers became known list of the main teaching units.

Gradually formed an idea of what to do in foreign language lessons, what is taught. But there are still teachers and trainers concerned about how to teach and train how to teach and learn. Great teachers are nimble, observant, and responsive, always keeping an open mind about how to best engage their students and get them excited about learning - and that means considering trying out different interactive teaching styles in the classroom.

Under an interactive learning means a special form of organization of cognitive activity, which involves very specific and predictable target. So, one of these goals - the creation of comfortable conditions for interaction of teacher and student, i.e. the conditions under which a student feels their success, their intellectual consistency, which makes productive the learning process. The essence of interactive learning is an organization of educational process in which virtually all students are involved in the learning process, they have the ability to understand and the reflected over the fact that they know and think.

However, when it comes to teaching in schools and other institutions this might be required. There are many different ways of making grammar a little more interesting. A variety of different games can be designed in order to help with this.

1. Including Games. Games and fun activities are a vital part of teaching English as a foreign language. Whether you're teaching adults or children, games will liven up your lesson and ensure that your students will leave the classroom wanting more.

They can be used to warm up the class before your lesson begins, during the lesson to give students a break when you're tackling a tough subject, or at the end of class when you have a few minutes left to kill. There are literally hundreds, probably thousands, of games that you can play with your learners. EFL games are used to test vocabulary, practice conversing, learn tenses - the list is endless. This will often get the learners motivated to get the answers right and therefore allow them to learn much faster. Amongst teenagers this can be particularly effective, whether the class is divided into two or more groups. By turning it into a competition, everyone will become a lot more active and a lot of fun can be had by every-one. Grammar games are particularly useful in an ESL classroom to make sure that grammar points are being absorbed by students.

2. Telling a Story. Another way to make grammar a little easier to digest is to teach it in the form of storytelling. Perhaps get the learners to form a "story stick" where-by everyone contributes a line to the overall story. If there are any grammar mistakes in this, then leave it until the end. When the entire story is finished and written out on the board, get a learner to come up to it and make the appropriate corrections. With participation from the class, have the entire text corrected. Ask the students questions as to why certain tenses are the way they are. Having something to focus on like this will keep their attention and therefore allow for the understanding of grammatical structures to sink in a lot easier.

3. Using songs. Music is often a great way of getting students to learn. By singing phrases, this will become embedded into the mind a lot faster. This is particularly true if one is teaching children or even teenagers. In order to do this, find a song that uses several tenses or differing grammar points. Get the students to sing along, and then write up the lyrics on the board. Get them then to sing it together, getting the tune into their head. After this, one can then quiz them on what tenses



or grammatical points are in the actual text. Make this short and quick, and once they get the hang of it have them sing the song again. After this, try and make a game out of it. Select individuals to say or sing a verse or phrase from the song, but change the tense. This way they will be able to practice with using the different tenses and verb forms, but in a much more light-hearted way.

4. Making class communicative. Communicative classes focus on communication and language use by learners rather than theory and repetitive practice. Make a habit of encouraging your pupils to use the language that they know to get their meaning across, even when the grammar isn't perfect. In grammar class, include speaking activities and give your learners a chance to put their language use to practical applications whenever possible.

Thus, using an interactive approach to teaching English, you can optimize the process of mastering the skills of foreign language and make it more effective in higher education.

**Reference:**

1. Harmer, Jeremy. The Practice of English Language Teaching. Essex: Longman Press. (2001).
2. Khristorojdestvenskaya L.P. “English course”
3. Oxford Picture Dictionary Book (2nd Edition)



## BUYUK MUTAFAKKIR IBN SINO MEROSIDA MA“NAVIY-AXLOQIY TARBIYA MASALARI TALQINI

**Toshqulov Bahodir**

Navoiy viloyat Xatirchi tumani  
4-umumta'lim maktab kimyo fani o'qituvchisi  
Jo'rayeva Zamira,  
Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Abu Ali Ibn Sino butun musulmon xalqining qomusiy olimi, jahon ilmu va madaniyatini eng mashhur namoyondalaridan biri. Ibn Sino o'rta asr faninig turli sohalari–falsafa, tibbiyot, tabiatshunoslik, badiiy adabiyot bo'yicha yozgan asarlari bilan madaniyatimiz tarixida o'lmas iz qoldirdi. Uning rivojiga katta hissa qo'shdi. O'z davrida -“Shayx-ur-raisi” (Olimlar raisi) unvoni bilan taqdirlandi.

Ibn Sino – “Tib qonunlari” asarida yaxshilikka olib boruvchi axloq qoidalarini egallash, inson axloqiy munosabatlarini shakllantirishga yordam beruvchi tadbirlar orqali ta'lim-tarbiyani izchil amalga oshirish mumkinligini alohida qayd etadi. Eng muhim axloqiy boylik, Ibn Sinoning ta'kidlashicha, adolatdir. Axloqiy tushunchalar aqlga va aqliy bilimga asoslanishi lozim. Lekin inson qanchalik bilimdon olim bo'lmasin, axloqiy prinsiplarga tayanmasa, u odobsizlik va yomonlikka yo'l qo'yadi. Ibn Sino – “Qush tili” asarida ikkiyuzlamachilik, xoinlik kabi xislatlarni qoralaydi. Inson ustidan har qanday zo'ravonlikni inkor etadi.

Ibn Sinoning yozishicha, insonning eng yaxshi xislatlaridan biri–o'zining yomon axloqiy xislatlarini anglab, ularni yo'qitishga intilishidir. Uning yaxshi xislatlari ichida boshqalarga e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishi maxsus o'rin tutadi. Kimki o'zini axloqiy tarbiyalash uchun o'z oldiga qo'ygan vazifasini bajarib o'z xulqini tuzatishga intilsa, unga hech narsa qo'rqinchli emas.

Kimki o'z xatosini tuzata olmasa, u boshqalarning tarbiyasi haqida g'amxo'rlik qila olishi mumkin emas. Boshqa odamni tarbiyalamoqchi va uning axloqini tuzatmoqchi bo'lgan tarbiyachi avvalo uni yaxshi o'rganmog'i va uning kamchiliklarini yaxshi bilib olmog'i lozim. Aks holda tarbiyachi o'z oldiga qo'ygan vazifani bajara olmaydi. Zero bemorning kasalini bilmay turib uni

tuzatishga kirishgan odamday bo'lib qoladi. Tarbiya tarbiyalanuvchini yomon axloqiy xislatlardan ozod qilishi, unga yaxshi axloqiy fazilatlarini singdira boorish jarayonida amalga oshiriladi.

Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy- ro'zg'or tutish masalalari haqida so'z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila va ota-onaning asosiy vazifasidir. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota- ona tarbiyachi bo'lishi mumkin. Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bola bilan izzat- nafsiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama- yakkam suhbatda bo'lish unga nasihat qilishdir.

Nasihat qilishda suhbatdoshga nihoyatda hurmat bilan yondoshish, uni kamsitmaslik kerak. Ortiqcha so'z aytib, uni zeriktirmaslik han zarur. Bir xil nasihatlarini qaytara berishlik ta'sir qilmaydi. Ibn Sino shunday yozadi: -Sening fikrlaring bolaning yuragiga yetib borib unga o'ylab fikr yuritishga imkon bersin. Agarda sening suhbatdoshing yoki do'sting sening so'zlaringga va nasihatingga e'tibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga ko'chir”.

Ibn Sino hikmatlaridan namunalar keltiramiz:

- Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat natijasida erishiladi.

- Xulqning muvozanatda bo'lishi badan salomatligini saqlaydi. Ibn Sino bolada axloqiy xislatlarni mehnat va jismoniy, aqliy tarbiya

bilan uzviy holda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari o'z mohiyati bilan insonparvarlik mohiyatiga ega. Haqiqiy do'stlik, yaxshi do'st orttirish, do'stga sadoqatli bo'lish muhim o'rin egallaydi.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA FANLARNI O'QITISHDA INNOVASION TA'LIMNING AFZALLIKLARI VA UNING IMKONIYATLARI

**Kurbanova Charos, Bozorboyeva Nargiza**

Xorazm viloyati Urganch tumani

43- son umumta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarga ta'lim–tarbiya berishda kasbiy mahoratini, iste'dodi, tajribasi va madaniyati pedagogik texnologiyalarini qo'llashi, o'quvchilarni o'zaro faollikka olib kelishiga bog'liqligi hamda ichki siyosiy muhitda ham farovon va barqaror jamiyat qurish uchun kuchli va malakali, siyosiy va huquqiy bilimlarga ega kadrlar kerakligi haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'z:** interfaol, ta'lim, kasbiy, pedagog, texnologiya, o'quvchi, til.

Hozirgi kunda o'quvchilar, talabalar, tinglovchilar aqliy ta'limini rivojlantirish uchun ta'lim va tarbiya birligiga beriladigan bilimning ilmiy bo'lishi, bilimning sistemali va izchil bo'lishi barobarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishilmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish yuzasidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg'un foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan. Darhaqiqat, axborotlar globallashtirilgan davrda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish samaradorligini oshirish dolzarb muammo sanaladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qitiladigan fanlar, jumladan, onatili va adabiyotni o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanish uchun uning ta'limi mazmunining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish zarur.

Axborot texnologiyalar o'qituvchilarning kasbiy o'sishi uchun ularga o'z fanlari bo'yicha o'qitishning yangi usullarini kiritishga, yangi yondashuvlarni qo'llashga, g'oyalarni ro'yobga chiqarish va yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga onatili va adabiyot fanini o'qitishda axborot texnologiyalarining yuqorida qayd etilgan vazifalarini e'tiborga olgan holda, ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish yo'llarini belgilash va amaliyotga joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifa sanaladi.

O'quvchilarning axborot dasturlari bilan ishlashi natijasida o'quv va aqliy mehnat ko'nikmalari rivojlantiriladi;

dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari darslarda, shuningdek, darsning barcha bosqichlarida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash, nazoratning haqqoniyligi, muntazamliligi, keng qamrovliligi, takrorlanuvchanligini amalga oshiradi;

o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish dasturlaridagi o'quv topshiriqlarning qiyinlik darajasiga ko'ra: reproduktiv, produktiv, qisman-izlanishli va ijodiy xarakterda bo'lishi o'quvchilarning topshiriqlarni bilimi, ehtiyoji va qiziqishiga mos holda keyingi bosqich topshiriqlarini bajarishga bo'lgan intilishini orttiradi;

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi o'quvchilarning ot, sifat, fe'l, son va so'z turkumlarini tasavvur qilishlari, abstraktsiyalash va xotirada saqlash imkonini kengaytiradi; o'quvchilarning motivlari va o'zlashtirish darajasi ehtiborga olingan holda zarur hollarda takroran o'rganish va o'quvchilarning bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish imkonini beradi;

Adabiyot darslarini animatsiyalar tarzida virtuallashtirish o'quvchilarning ko'rgazmali-obrazli fikr yuritish va o'quv materialini to'liq o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi;

Boshlang'ich sinf darslarida animatsiyalardan foydalanish darsning barcha bosqichlarida o'quvchilarning bilish-faoliyatini faollashtirishga olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi — Ta'lim to'g'risidagi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1998. — b. 57.
3. A. G'ulomov, M. Qodirov “Ona tili o'qitish metodikasi”, Toshkent., 2001 yil.
4. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. Москва. «Просвещение», 1991 год.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA PIRLS TADQIQOTLARI

**Kutimova Tozagul Ibragimovna**  
**Raximova Nasiba Sultannazarovna**

Xorazm viloyati Urganch tuman  
10-son maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda PIRLS xalqaro baholash tadqiqotidan foydalanish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** PIRLS, matn, tajriba, o'qish, savodxonlik, xalqaro, test, usul.

Prezidentimiz SH.Mirziyoevning yosh avlodni bilimli komil inson qilib tarbiyalash to'g'risidagi, kelajak yosh avlod qo'lida ekanligi ular bi necha jihatga ega bo'lish lozimligini ta'kidlaydi, ya'ni: "... o'z haq-huquqini taniydigan bo'lsin, buning uchun kurashsin; - o'z kuchi va inkoniyatlariga tayanadigan bo'lsin, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko'rsin..."

2017-2018 o'quv yillarida maktab yoshidagi bolalarni o'qishga tortish 97%ni, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni maktabga jalb qilish 100%ni tashkil qilgani holda jahonning Xalqaro ta'limni nazorat qilish tashkilotlarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'limning sifati xususidagi ma'lumotlarning yo'qligi quvonarli holat emas.

O'tgan yili Xalqaro YuNISEF ta'lim sohasi vakillari mamlakatimiz 4-sinf o'quvchilari ta'lim sifatini oshirish masalasi yuzasidan saylanma nazorat ishlarini amalga oshirdilar. 4-sinflarda o'tkazilgan tajribalar o'quvchilarning 42,9 foizi o'qiganlarini tushunishlari, uy vazifalarini bajarishlari uchun 30–60 minut vaqt sarflashlarini aniqlash imkonini berdi. Mazkur holat boshqa mamlakatlar bilan taqqoslanganda bir qator nomuvofiqliklar, tafovutlarning mavjudligini ko'rsatib berdi [2].

Xalqaro testlarga murojaat qilishning sabablari nimalar bilan izohlanadi?

1. Agar biz milliy ta'limimiz jahon standartlari talablariga javob berishini istasak, demak dunyo pedagogikasi rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishimiz talab qilinadi, aks holda ta'lim –tarbiya jarayoni past darajadagicha qolib ketaveradi. Har qanday vosita ma'lum vaqtdan so'ng mahnan eskiradi. SHu bois ta'lim natijalarini baholashning eng ilg'or usullarini qo'llashda PIRLS tajribasi bizga qo'l keladi. Chunki

PIRLS xalqaro ekspertlar hamjamiyati tomonidan endi ta'limga qadam qo'ygan o'quvchilar o'qish savodxonligini tekshirishning dunyo miqyosida tan olingan dasturi hisoblanadi.

2. Ikkinchi sabab pragmatik ahamiyatga molik bo'lib, ta'lim amaliyotida ilmiy natijalardan foydalanish ko'nikmalariga taalluqlidir. PIRLS testlari—to'rtinchi sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi xalqaro monitoringini amalga oshiradi. Mazkur dasturning ishtirokchilari 2001 yildan buyon har 5 yilda ta'lim natijalari kimga va nimaga bog'liq ekanligi, bu borada aynan qanday nostandart yechimga kelish kerakligi to'g'risida muhim ma'lumotlarni to'plab kelmoqda.

Nima uchun ta'lim tizimi samaradorligi markaziy ko'rsatkichi o'qish savodxonligi deb ehtirol etiladi? Chunki aynan matnlarni o'qish orqali orttiriladigan axborotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmalari har bir inson taqdiri va mamlakat ravnaqiga o'z tahsirini ko'rsatadi:

- yuqori o'qish savodxonligiga ega bo'lgan o'n besh yoshli bola katta ehtimol bilan o'qishni tamomlaydi, ta'limning keyingi bosqichini davom ettira oladi;\_\_

- o'qish savodxonligi darajasi mamlakat iqtisodi ravnaqini tahminlashda boshqa har qanday ta'lim natijalariga nisbatan ustuvorlikka ega.

Nega aynan 4-sinfni bitirayotgan o'quvchi bolalarning o'qish savodxonligi? Sababi, aynan shu yoshda rus olimi Leontevning ehtiroficha, asta-sekinlik bilan o'qish ta'limidan ta'lim olish uchun o'qish bosqichiga o'tiladi.

PIRLS testlari predmeti keng tushunchani ifodalaydi. Millis Martin: "O'qish savodxonligi –jamiyat yoki muayyan bir shaxs uchun qadrlil bo'lgan turli yozma nutq shakllarini tushunish va foydalanish qobiliyatlari. O'quvchi ko'plab matnlarga murojaat qilish asosida o'z xususiy tushunchalarini loyihalashtiradi. Ular ta'lim olish, maktab ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish, kitobdan zavq olish uchun o'qiydilar,"-deb ta'kidlaydi.

Mazkur e'tirof mohiyatan yozma nutqdan foydalanish hamda matnlardan foydalanish asosida o'z xususiy his-tuyg'ularini yozma shaklda ifodalash ko'nikmalarini anglatadi. PIRLS testlari nazariy doirasi jihatdan to'rt xil asosiy o'qish ko'nikmalarini aniqlash imkonini beradi:



- matnda ochiq-oydin ifodalangan axborotni topish;
- uning asosida oddiy aqliy xulosalar chiqarish;
- matndagi g'oya va axborotlarni sharhlash, integratsiyalash;
- matn shakl va mazmunini baholash.

Mazkur to'rt o'qish ko'nikmalari har bir matn yuzasidan test savollarini tuzishda asos vazifasini o'taydi. PIRLS ochiq matnlaridan foydalangan holda sanab o'tilgan o'qish ko'nikmalarining har biriga to'xtalib o'tamiz. Test materiallari va natijalarini tahlil qilishda ifodalanayotgan o'qish ko'nikmalari orasidagi chegaraning nisbiy ekanligiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Matnni o'qishda ular yaxlit holda amalga oshiriladi, o'qish bilan bog'liq har qanday vazifani amalga oshirish o'quvchidan mavjud barcha ko'nikmalari safarbarligini taqozo qiladi.

Biz ko'rib chiqayotgan PIRLS testlari 12 ta matn (shulardan 6 tasi badiiy va 6 tasi axborot shaklida) hamda 175 ta savolni qamrab olgan. Matn va savollarni ishlab chiqishda PIRLSga ahzo davlatlarning yetakchi mutaxassislaridan iborat ekspert kengashi har bir matn yuzasidan beriladigan savollarga javob berishda o'quvchilarning aynan qaysi bir o'qish ko'nikmalari talab qilinishi bilan bog'liq murakkab vazifalarni hal qilishlariga to'g'ri keladi [4].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimiz ta'lim jarayoniga Xalqaro PIRLS testlarini joriy qilish bitiruvchi sinf o'quvchilarining tafakkur faoliyatini rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, nostandart qarorlar qabul qilish va kreativ fikrlashlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Adabiyot**

1. Mirziyoev SH.M. O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi mahruzasi. Toshkent, 03.08.2017.
2. TSukerman G.A. i d. CHitatelg'skie umeniya rossiyskix chetveroklassnikov: uroki 'IRLS. - M.: 2016.



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Matyakubova Fazilat Hamdam qizi**

Shovot tumani 12-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (90) 559 69 08

matyakubova.fazilat\_12@umail.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali dars samaradorligini oshirish yo'llari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalar, “Tushunchalar tahlili”, “Charxpalak”, “Zinama-zina” “O'zim tekshiraman”, “Bo'lishi mumkin emas”, “Ortiqchasini top”, “Juftini top” metodlari.

Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darajasi mustaqil respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarda o'z aksini topmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim oluvchi-yoshlarning ijodiy g'oyalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 997-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta'limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda Moliya vazirligining xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etishi belgilandi.

Darhaqiqat, boshlang'ich ta'limda bola shaxsining aqli, dunyoqarashi, savodxonligi, mantiqiy tafakkuri, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, o'qish darslarida bola borliq, atrof-muhit bilan tanishadi, yaxshini yomondan ajratishni anglaydi, vatan tuyg'usini his qiladi. Ko'rganini va o'qiganini qayta hikoyalash ko'nikmasi shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziquvchanligi va bilishga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda pedagogik va axborot texnologiyalaridan darslarda samarali foydalanish bugungi kun pedagoglaridan zamon bilan hamnafas bo'lishni talab qiladi.

Boshlang'ich sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarni darsdagi faolligiga erishiladi, dars mazmuni o'quvchilarga tushunarli tilda bayon etiladi.

Bu borada “Tushunchalar tahlili”, “Charxpalak”, “Zinama-zina” singari metodlar bilan bir qatorda “O'zim tekshiraman”, “Bo'lishi mumkin emas”, “Ortiqchasini top”, “Juftini top” singari didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

“Tushunchalar tahlili”, “Charxpalak”, “Zinama-zina” metodlarida boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha o'quv fanlarida foydalanish mumkin. Ushbu metodlardan dars jarayonida foydalanilganida juftlikda yoki kichik guruhlarda ishlash mumkin.

Savod o'rgatish darslarida “Ortiqchasini top” didaktik o'yinini qo'llash orqali sinf o'quvchilarining eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Ushbu didaktik o'yinni tayyorgarlik davrida rasmlar yoki tayyor predmet va o'yinchoqlar asosida tashkil qilinganida ham yaxshi natijalar qo'lga kiritiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'qitish tamoyillaridan biri sanalmish ta'lim-tarbiyaning ko'rgazmalilik tamoyili asosida darslarni tashkil qilishga harakat qiladi. Bunda talab asosida ko'rgazmalilik aniq predmet va narsalarni kuzatish va ko'rsatish orqali;

Mavjud predmetlar va narsalarning modeli va nusxasidan foydalanish orqali;

Hodisaning tasviri, rasm, jadval yoki xaritalarni ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi ushbu tamoyilni amalga oshirishda multimediyaviy vositalaridan foydalanishi mumkin. O'tilayotgan mavzuni bola tasavvurida yaqqol hosil qilish va ta'lim sifatini oshirishda multimediyaviy vositalari orqali namoyish qilishning ahamiyati beqiyosdir.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida o'qitishni avtomatlashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar beradi.

Boshlang'ich ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish bugungi kun ta'lim jarayonining muhim vazifasi hisoblanadi.

Ayniqsa tabiatshunoslik darslarida televideniya orqali berib boriladigan ilmiy-ommabob



filmlar, audio-video texnikasi vositalari orqali beriladigan o'quv materiallari, kompyuter va internet materillaridan foydalanish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009.
2. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari . - T.: 2008.



## ТА’ЛИМ ЖАРAYONIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHISINING ZAMONAVIY YONDASHUVI

**O‘ralova Zuhra Abdunazarovna.**

Yunusobod tumani 150-maktab

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining dars jarayonida zamonaviy yondashuvi hamda zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o‘zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta‘limni tashkil eta oladigan o‘qituvchilar haqida so‘z yuritiladi.*

**KALIT SO‘ZLAR:** *aktyor, rejissyor, zamonaviy, interfaol, kompetentlik, o‘qituvchining ijodkorligi, yaangi individual yondashuv, shaxs rivojlanish, muammolar, integratsion ta‘lim.*

Zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo‘lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta‘lim usullarini yaxshi bilishi, dars mobaynida ma‘lum nazariy bilimlarni o‘quvchiga yetkazishi, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malaka hosil qilishi, ma‘naviy sifatlarni shakllantirishi, o‘quvchi bilimni nazorat qilishi hamda baholash o‘qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi.

Hozirgi kunda ko‘pgina metodik innovatsiyalar interfaol usullarni qo‘llash samara bermoqda. Interaktiv o‘qitishni asosiy xususiyatlari nimada? Interaktiv ta‘lim berish bu bilim olish jarayonini tashkil qilishni o‘ziga xos bo‘lgan shaklidir. U aniq va aytib bera oladigan maqsadlarni o‘z oldiga qo‘yadi. Bunda o‘quvchi o‘zini muvaffaqiyatini, intellektual qodirligini oldindan tushunib yetadi. Bugungi kunda zerikarli darslar o‘rniga darslarni tashkil etishga ma‘suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma‘suliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o‘zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta‘limni tashkil eta oladigan o‘qituvchilarga talab oshib bormoqda.

Ta‘limda moddiy baza, standart, o‘quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o‘zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni olib boruvchi o‘qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga bog‘lanib qolaveradi. Pedagog qachon obro‘ga ega bo‘ladi qachonki kuchli maxoratga ega bo‘lsa. U o‘zini ustida tinmay izlansa, yangicha yondasha olsa, va o‘quvchiga o‘z ota onasi kabi mexr beraolsa. Shunday ekan yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g‘ayri insoniy hisoblanadigan zo‘ravonlik pedagogikasidan voz kechib o‘quvchi shaxsini xurmat qilib unga kelajakda faqat buyuk ishonch bera olish kerak. Buning uchun esa o‘quvchiga to‘g‘ri muomila munosabatni, demokratik yondashuvni, o‘zaro munosabatlarni mustaxkamlab ularni singdirib borishimiz zarur. Munosabatlarni demokratlashtirish o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- o‘quvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish,
- o‘quvchining erkin tanlab olish huquqi;
- xatoga yo‘l qo‘yish huquqi;
- o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqi
- pedagog va o‘quvchilar munosabati zayli: taqiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, buyuk ishonch ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g‘ayri insoniy hisoblanadigan zo‘ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir. Yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta‘lim tizimida o‘quv fanidan o‘quvchiga emas, o‘quvchidan o‘quv fani tomonga harakatlanishni taqozo etadi, o‘quvchilarning mavjud imkoniyatlarni inobatga olib, ularni rivojlantirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo‘ladi.

Individual yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat:

- o‘rtacha o‘quvchiga yo‘naltirishdan voz kechish;
- shaxsning yaxshi xislatlarini izlash;
- shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzish.
- Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar zarur bo‘ladi:
- har bir o‘quvchi qiyofasida noyob shaxsni ko‘rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul



qilish, unga ishonish. Pedagogda barcha o‘quvchilar iste’dodli degan ishonch bo‘lishi kerak.

- shaxsga, yutuqni ma’qullovchi, qo‘llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya’ni o‘qish qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kerak.

- bevosita majburlashga yo‘l qo‘ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg‘u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik.

- pedagogik jarayonda, o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko‘maklashish.

- Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Shirin so‘z odam haqida», «So‘kmoq va la’natlamoq ta’qiqlanganligi haqida» batafsil yoritilib berilgan. Unda shaxsni so‘kish uni o‘ldirish bilan tenglashtirilgan.

Shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri xal qilish uchun avvalo uning xulqiga ta’sir etuvchi omillarning tabiatini, shaxsning shaxsiy xususiyatini yaxshi o‘rganmoq lozim. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi ma’naviy qiyofasi, insoniy fazilatlarini ro‘yobga chiqadi. “Xar bir inson degan edi Farobiy - o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va yuksak yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muxtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi va ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga extiyoj tug‘iladi. Shu sababli odam yashash uchun zarur bo‘lgan narsalarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi ko‘p insonlarning birlashuvi orqaligina o‘z tabiati bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin”.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Movlonova.R, Raxmonqulova.N, Matnazarova.K, Abdullaeva.M. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” – T.: 2015. – 33 b.

2. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi. 1996 y. – 97.

3. Yo‘ldoshev Q. - Adabiyot o‘qitish metodikasi fanidan ma’ruzalar matni. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2010. – 120 b.



**ONA TILI VA ADABIYOT FANI O'QITISHDA VA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARNING SAMARASI**

**Qurbanova Donogul Baxodirovna.**

Yangiariq tumanidagi 26-son umumiy o'rta ta'lim maktabining Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

*Annatsiya:* Bu maqolada zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishda o'qituvchilarga metodik tavsiyalar berish.

*Kalit so'z:* Vatan, shaxsiy, ruhiy, jismoniy, siyosiy, yangi, g'oya, dastur.

Pedagogik jarayonning eskirib qolgan texnologiyasini yangisiga almashtirish, ta'limga davr talablari asosida yondashish, darsga esa yangicha usullarning loyihasini tadbiiq etish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Ta'lim jarayonida yuqori sifat va samaradorlikka erishish ta'lim-tarbiya jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab qiladi. «Innovatsiya» iborasi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, «innovation» - «yangilik kiritish», «yangi g'oya» degan ma'nolarni bildiradi. Innovatsion o'qitishda bilimlar vazifasi o'zgaradi. Ya'ni, avvalgi doimiy yod olishdan mantiqiy fikrlash, izlanishga o'tiladi. Bunday faoliyat o'quvchi faoliyatidagi ijodkorlikni rivojlantiradi. U o'z tengdoshlari va o'qituvchisi bilan o'zaro faol «sub'yekt-sub'yekt» munosabatlariga kirishadi. O'qitish jarayoni dinamik va barhayot jabha bo'lganligi tufayli ham unga yangilik kirishi va yangilanish amaliyotining davom etishi tabiiydir. Shuning uchun ham, sinalgan va samara beradigan zamonaviy texnologiyalarni qo'llash zaruriy holdir. Ona tilini o'qitishda eng ko'p tarqalgan va xususiyatga ega bo'lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar quyidagilar hisoblanadi: suhbat, bahs, o'yin, keys-stadi, loyihalar usuli, muammoli usul, aqliy hujum va boshqalar hisoblanadi.

**Bahs (munozara)** - aniq muammo bo'yicha fikr almashish, muhokama shaklidagi ta'lim berishning faol usuli. Munozara usuli hamma vazifalarni bajaradi Bu usuldan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- yangi bilimlarni shakllantirishda;
- o'quvchilar u yoki bu savollarni chuqur o'ylab ko'rish, ularning mohiyatiga kirishni ta'minlashda;
- o'quvchilarni dalil va dalillarga asoslangan xulosalar orasidagi farqni tushunib yetishga o'rgatishda;
- o'zaro fikr almashinuv ko'nikmalarni shakllantirishda;
- o'quvchilarga shaxsiy fikrida mustahkam turish va uni himoya qilishiga yordam berish.

Munozara erkin bo'ladi, qachonki, u erkin rivojlansa, boshqaruvchan bo'lishi mumkin. U faqat o'zlashtirish lozim bo'lgan mavzu va savollarga taalluqli bo'lishi kerak.

**Insert – samarali** o'qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi. Avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo'yilish muolajasi. Shundan so'ng matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi. Insert - matn bilan ishlash jarayonida ta'lim oluvchiga o'zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta'minlovchi kuchli asbob. Insert - o'zlashtirishning majmual vazifalarini yechish va o'quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o'quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o'qitish usulidir

Matnda belgilash tizimi

1. (Ў)Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi M.P Xamidova , M.Y Ayupova Toshkent -2009
2. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarni o'qitish N.N. Djamilova Toshkent -2018  
www.ziynet



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI FANINI O'RNI

**Mohira Rahmonova Mahmudovna**

Namangan Viloyati Norin tuman

28-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

+998945066083 rahmonovamohira@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda ona tili fanining o'rni va nutq ko'nikmalrni rivojlantirish haqida keng ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ona tili, ta'lim, grammatika, fonetika, orfografiya, punktuatsiya, orfoepiya, leksika, jalb qilish, rivojlantirish, o'zbek tili.

Muallimlik kasbimiz ekan, biz kelajakdan nafaqat olim va ulomolar qolaversa ma'naviy yuksak, etiqodi buyik va irodasi mustahkam farzandlar tarbiyalashni oldimizga bosh maqsad qilib olganmiz. Shundoq ekan biz ilk sinflarimizda qabul qilayotgan yosh va qalbi murg'ak bolalarni qo'lidan tutar ekanmiz ularga ta'lim bilan birga tarbiyani teng tutashimiz lozim. Nafaqat dunyoviy bilimlar qolaversa bizning jonojon tilimiz bo'lgan Ona tilida o'quvchilarning erkin yozishi va nutq ko'nikmalarni rivojlantirishimiz juda ham zarur. Bu holatda boshlang'ich sinflarda ona tili asosiy o'rin egallaydi. Ona tilidan ta'lim mazmuni kichik sinflarda ona tili fanini rivojlantirish maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, til hodisalarini baholashga oid munosabatlardir. Shunday o'quv materiallari darsga olib kirildi, deb tasavvur qiling: shakli bir xil, ma'nolari har xil bo'lgan so'zlarga omonimlar deyiladi: o't-o't. Bu mavzu tarkiban bilimlar (shakli bir xil bo'lgan so'zlar, ma'nolari har xil bo'lgan so'zlar, turli so'z turkumlariga mansublik, turli so'roqlarni olish va sh.k.), ko'nikma malakalar (om onim larni boshqa so'zlardan, masalan, sinonimlardan farqlash, ular ishtirokida nutq- tuza olish va sh.k.), ijodiy faoliyat tajribasi (omonimlarni yangi-yangi matnlar tarkibida tanib olish, ular haqidagi bilimlarni turli o'quv va hayotiy sharoitlarga tatbiq eta bilish va sh.k.), om onim larning nutqdagi ahamiyatini baholay olishdan iborat. «Ma'lumot mazmuni» keng tushuncha bo'lib, ta'lim mazmuni ma'lumot mazmuni matnida ifodalanadi. Bir tomchi suvda quyosh aks etganidek, ma'lumot mazmunini tashkil etgan tarkibiy qismlar (bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) ta'lim mazmunining ham elementlari sanaladi. O'zbek tilshunosligi fani va ona tili predmeti. Ona tilidan ma'lumot mazmuni ona tili predmetida mujassamlangan bo'lib, u kishilarning o'zaro aloqalashuvi uchun zarur bilimlarni izchil bayon qilishga moslashtirilgan. Binobarin, ona tili predmeti hozirgi o'zbek tilshunosligi fanining ilmiy yutuqlari, tilning hozirgi taraqqiyoti xususidagi tasavvurlar, tilni sinxronik o'rganish natijalari negizida tuzildi. Ammo bu «hozirgi o'zbek tilshunosligi» va «ona tili predmeti» bir xil, o'zaro teng degan xulosaga olib kelmasligi kerak.

Maktablarda o'qitiladigan ona tili predmeti o'zbek tilshunosligi fanidan quyidagicha farq qiladi. Fan va o'quv predmeti. Fan va o'quv predmetining vazifalari turlichadir. O'zbek tilshunosligida kishilar tomonidan kashf etilgan bilimlarning barchasi mujassamlangan bo'lib, uning vazifasi ona tilini bundan taraqqiy ettirishdir. Ona tili predmeti yoshlarni ijtimoiy hayotga, ishlab chiqarishga tayyorlash maqsadida kishilarning o'zaro aloqalashuvi uchun zarur bilimlar bilan qurollantiradi. Binobarin, o'zbek tilshunosligi fani va ona tili predmeti jam'iyatda bajaradigan vazifasiga binoan o'zaro farq qiladi. O'zbek tilshunosligi fani nihoyatda murakkab bo'lib, unda grammatik bilim va tushunchalarni, til hodisalarini ajratish uchun ishlatilgan term inlarning barchasi o'z aksini topgan. Ona tili predmeti esa o'quvchilarning bilish imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi, yoshiga moslashtirilgan tuzilgan. Demak, ona tili predmetida ta'limning lingvodidaktik, psixologik, fiziologik tomonlari hisobga olinadi. Tilni yoshga doir kateqoryalarda o'rgatish maqsadga muvofiq bo'lib, boshlang'ich sinflarda til va nutq ko'nikmalarning ilk qadamlari qo'yiladi va asta sekin rivojlantiriladi. Birinchi sinf o'quvchisi harf tanimaydi va bolalarcha o'z dunyosida yashaydi, uning ona tili alifbosini tanitish va til ko'nikmalarni o'stirishda o'qituvchini roli asosiy bo'lganini egallaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “ONA TILI DIDAKTIKASI” O. Roziqov, M. Mahmudov, B. Adizov, A. Hamrayev Toshkent-2015
2. Ona tili. M. Hamroev, D. Muhammedova, D. SHodmonqulova, X. G'ulomova, SH. Yo'ldasheva, Toshkent -2008
3. Ona tili va adabiyoti (o'quv qo'llanma) A.R.Rafiyev, N.G'ulomov. Toshkent-2014.
4. www.ziyo.com kutubxonasi



## ТА’ЛИМNING INTERFAOL METODLARI VA ULARNI AMALDA QO’LLASH TARTIBI

**Rajabova Gulnoza Marufjon qizi**  
Namangan viloyati Pop tumani  
2-son umumiy o'rta ta'lim maktabning  
kimyo va biologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talimning interfaol metodlari haqida, ularni dars jarayonlariga qo'llash orqali olinadigan natijalar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, interfaol metod, pedagogik texnologiya, dars, organayzer.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishli qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

*Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi.* Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiq lashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.



Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

**Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:**

**Interfaol metodlar:** “Keys-stadi” (yoki “O'quv keyslari”), “Blist-so'rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta'lim” va boshqalar.

**Interfaol ta'lim strategiyalari.** “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zin-ama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va h.k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategic yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

**Interfaol grafik organayzerlar:** “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalar. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. J.G`Yo`ldoshev, S.A. Usmonov. «Pedagogik texnologiya asoslari», T., O`qituvchi, 2004 y.
2. J.G`Yo`ldoshev. «Yangi texnologiyaning yo`nalishlari, muammolari, yechimlari», Xalq ta'limi jurnali., 1999 y, 4-son



## O`SIMLIKLAR DUNYOSI VA UNING AHAMIYATI

**Rajabova Gulshoda Dilovna**

Buxoro viloyati G`ijduvon tumani  
63-IDUM biologiya fani o`qituvchisi  
(+998919740485)

**Annotatsiya:** O'simliklar dunyosi Yerdagi hayotning birlamchi manbaidir. Ular yiliga 380 mlrd. t organik modda hosil qiladi, buning 325 mlrd. t dengiz va okean o'simliklarga, 38 mlrd. t o'rmonlarga, 6 mlrd. t o'tloqlarga to'g'ri keladi. Bundan tashqari o'simliklar, ya'ni yashil o'simliklar tufayli fotosintez jarayoni ro'y beradi, Yerdagi hayotning yashashi uchun zarur bo'lgan kislorodni ishlab beradi.

**Kalit so'zlar:** Fotosintez, avtotrof, geterotrof, vegetativ, karbonat angidrit, kislorod

Agar fotosintez jarayoni bo'lmasa, havodagi karbonad angidridning miqdori ko'payib kishilar va hayvonlar nobud bo'lar edi. Biroq atmosferadan, suv yuzasidan va tuproqdan kelayotgan o'sha SO<sub>2</sub> gazi o'simliklar tomonidan yutilib, fotosintez natijasida yashil o'simliklar atrofga kislorodni chiqarib turadi. Shunday qilib, fotosintez orqali Yer sharidagi suv 5,8 mln. yilda, atmosferadagi kislorod 5800 yilda, SO<sub>2</sub> 7 yilda bir marta yangilanib turadi.

Insonning kundalik hayotida o'simliklarning ahamiyati juda katta. Chunki o'simliklar muhim tabiiy geografik omil sifatida er yuzasida suv oqimiga, bug'lanishga, tuproqda nam saqlashga, atmosferaning quyi qismidagi havo oqimiga, shamol kuchi va yo'nalishiga, hayvonlarning hayotiga ham ta'sir etadi.

O'simliklar shahar, qishloq mikroiklimiga ta'sir etib, havosini tozalab, uni kislorod bilan boyitib turuvchi sanitarlik vazifasini bajaradi.

O'simliklardan har xil kiyim bosh, ichimliklar tayyorlashda keng foydalaniladi. O'simliklar chorva mollar uchun asosiy ozuqa manbai, insonlarsha estetik zavq beradi. O'simliklar jamiyat uchun (agar undan oqilona foydalanib, muhofaza qilib, kayta tiklab turilsa) behisob oziq-ovqat manbai, texnika xom ashyosi, tibbiyotda dori-darmon tayyorlash, qurilish va boshqa sohalar uchun, qurilish va boshqa sohalar uchun hom ashyo resursidir.

O'simliklar – bu qayta tiklash mumkin bo'lgan tabiiy resurs hisoblanib, Yer shari geografik qo'big'ida muhim rol o'ynaydi. Chunki o'simliklar sayyoramiz yuzsining g'uyoki bir «kimxob» sifatida qoplab olib, tuproq hosildorligini oshirishda, atmosferani toza saqlashda, daryolarning gidrologik rejimini tartibga solib turishda, inson va hayvonot dunyosi uchun ozuqa moddalar etkazib berishda va inson hyoti uchun normal gigienik sharoit yaratishda muhim vazifani bajaradi.

Yer sharida o'simliklar turi juda ko'p bo'lib, ularning juda oz qismidan kishilar xo'jalik faoliyatlarida foydalanmoqdalar. Yer sharidagi 300 ming o'simlik turidan faqat 6000 turini inson kundalik hayotida foydalansa, shuning 1500 turi esa dorivor o'simliklarga to'g'ri keladi.

2. Inson xo'jalik faoliyatida yangi o'rmonzorlar tashkil etish, madaniy o'simliklarni ko'paytirish, yaylov va o'tloqlar sifatida yaxshilash va territoriyasini kengaytirish hisobiga o'simliklar maydonini ko'paytirib boradi. Buning ustiga ilg'or agrotexnikani qo'llab ekilgan ekinlarda yashil masslar miqdoritabiiy o'simliklarga nisbatan yuqori bo'ladi, yashil o'simlik massalrining miqdori botqoqlik va zahkash erlarni quritish, tuproq sho'rini yuvish, erlarni sug'orish, o'simliklarga mineral va organik o'g'itlar solish, o'simlik kasalliklariga va zararkunandalariga qarshi kurashish, madaniy o'simliklarni yangi navlarini yaratish orqali ko'paytirib boriladi. Bularning hammasi insonning o'simliklar dunyosiga ko'rsatayotgan ijobiy ta'siridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'simliklar dunyosi" ensklopediyasi 1-tom.
- 2.5-sinf "Botanika" darslik
3. Internet ma'lumotlari.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA BO'G'IN USTIDA ISHLASH METODIKASI

**Ravshanova Nilufar Suvonovna**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

4-makab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

(+998919739750)

**Annotatsiya:** Bo'g'in murakkab tushuncha bo'lgani uchun boshlang'ich sinflarda uning qoidasi berilmaydi. Dasturga ko'ra, o'quvchilarda so'zni bo'g'inlarga bo'lish ko'nikmasini shakllantirish vazifasi talab etiladi. O'quvchilar so'zni bo'g'inlarga bo'lishda so'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi, degan tushunchaga asoslanadilar. Bu tushunchani ular savod o'rgatish davridayoq hosil qiladilar.

**Kalit so'zlar:** Bo'g'in, urg'u, intonatsiya, tovush, sillabema, ochiq bo'g'in, yopiq bo'g'in.

Bolalar yozilgan so'zdan dastlab unli harfni topadilar, keyin so'zda nechta unli bo'lsa, uni shuncha qism (bo'g'in)ga bo'ladilar. 1-sinfda o'quv yilining birinchi yarmida og'zaki va yozma tarzda bo'g'inlarga bo'lish, shuningdek, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, muayyan bo'g'inli so'z tanlash mashqlari har darsda o'tkaziladi. So'zni bo'g'inlarga to'g'ri va tez bo'lish ko'nikmasini hosil qilish 1-sinfda o'tkaziladigan muhim mashqlar qatoriga kiradi. O'quvchilar o'qish va yozish jarayonini egallashda mana shu ko'nikmaga tayanadilar. O'zbek grafikasida bo'g'in tamoyili yetakchi tamoyil hisoblanadi.

O'quvchi so'zni to'g'ri yozish uchun uni awal bo'g'inlarga bo'ladi. Bo'g'inlardagi tovushlarning o'zaro bir-biriga ta'sirini aniqlaydi, un dosh va unli tovushlarni ifodalash uchun zarur harflardan foydalanadi. O'quvchi quyidagicha muhokama yuritadi:

«Vatan» so'zida ikki bo'g'in bor. Birinchi bo'g'inga va ya'ni, v, a harflarini yozaman, ikkinchi bo'g'ingatan: ya'ni t, a, n harflarini yozaman. O'quvchi so'zni bo'g'inlarga bo'lish, bo'g'indagi har bir tovushning o'rnini, tartibini aniq ko'z oldiga keltirib, bo'g'inlab aytish ko'nikmasiga ega bo'lsa, so'zdagi harflarni tushirib qoldirmay, o'rnini almashtirmay yoza oladi. Shuning uchun bo'g'in ustida ishlashga so'zni bo'g'inlab ko'chirib yozish. bo'g'inlab diktovka bilan yozish (bo'g'inlab izohlab yozish) mashqlarini ham kiritish lozim. Ikkinchidan, so'zni bo'g'inlarga bo'lish ko'nikmasi o'quvchilar uchun so'zning oldingi qatorga sig'may qolgan qismini keyingi qatorga bo'g'inlab to'g'ri ko'chirish uchun zarur. O'quvchilar «So'zlar bir yo'ldan ikkinchi yo'lga bo'g'inlab ko'chiriladi» va «Bir harfdan iborat bo'g'inni olding yo'lda qoldirib yoki keyingi yo'lga ko'chirib bo'lmaydi» degan asosiy bo'g'in ko'chirish qoidalarini I sinfdayoq o'rganadilar. Oddiy tuyulgan birinchi qoida ham so'zni bo'g'inlarga bo'lish, bo'g'in ko'chirish qoidasiga mos keladigan maktab, Ra'no, singil kabi so'zlar misolida juda ko'p mashqlar bilan mustahkamlashni talab etadi. Bolalar, ayniqsa, singil, ko'ngil, tongi kabi so'zlarni bo'g'inga bo'lishda qiynaladilar, chunki bu so'zlarda bitta jarangli undosh tovaish ng harf birikmasi bilan ifodalanadi. Bu so'zlarni bo'g'inga bo'lishda bu ikki harf singlim, ko'ng-lim, tong-gi so'zlaridagi kabi oldingi bo'g'inda qolishi, yoki

si-ngil, ko'-ngil, to-ngi so'zlaridagi kabi keyingi bo'g'inga ko'chirilishi kerak (Bir tovushni ifodalagan harfni ikkiga bo'lib bo'lmaydi). Keyingi qoida esa aka, ota, oila, mudofaa, mutolaa kabi so'zlar misolida yanada ko'proq mashq bilan o'rgatish va mustahkamlashni talab etadi. Bu qoidalar keyingi sinflarda yangi murakkabroq so'zlar misolida mustahkamlab boriladi. Dasturga ko'ra, tutuq belgisi {ma'no, sun'iy kabi) so'zlarni bo'g'inga bo'lish va ko'chirishda tutuq belgisi har doim birinchi bo'g'inda bo'lishi, katta, ikki kabi ikkita bir xil undoshli so'zlarni bo'g'ingabo'lganda ikkita bir xil undoshning biri oldingi bo'g'inda qolishi, ikkinchisi keyingi bo'g'inga o'tishi (kat-la, ik-ki kabi) o'quvchilarga 2-sinfdayoq o'rgatiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova «Ona tili o'qitish metodikasi»
2. Internet ma'lumotlari



## МАКТАБДА МАТЕМАТИКА ФАНИНИ О'QITISHDA LOYIHALASH TEKNOLOGIYASINING AFZALLIGI

**Raximova Gulmira Karimovna**  
Urganch shahar 14-son umumta'lim  
maktabining matematika fani o'qituvchisi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalanish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

*Kalit so'z:* loyihalash, metod, o'quvchi, ta'lim, pedagogik, fikr, g'oya.

Loyihalash metodi ta'lim texnologiyasining muhim bo'limlaridan biri xisoblanadi. Bu metod ta'lim oluvchilarga hayot tarziga moslashish, mustaqil, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga yordam beradi. Loyihalash so'zi (lot. rojectus - olg'a tashlangan fikr, g'oya, obraz), ma'nolarini bildiradi. Bu metod kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish, proekt ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikrning ifodasidir. U bildirilgan fikrni mohiyatini va uni amalga oshirish imkoniyatlarini ochib beradi. Loyihalash metodi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biri bo'lib, o'qituvchining o'quvchilar bilan individual ishlash imkonini beradi. O'qituvchi dars vaqtidan unumli foydalanib, o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ular bilan yakka tartibda ishlaydi. Bunda ularning kasbiy fanlarni chuqurroq egallashlariga kengroq yo'l ochib beriladi. Loyihalash ishlarini tashkil etishda didaktik vazifaning qo'llanilishi va uni hal etish muammolari ko'rib chiqiladi.

Fanning turli sohalaridagi bilimlarni bir butun holga keltirib, muammolarni topish va yechish faoliyatni tanlash huquqidan foydalanib, turli taxmin, g'oyalarni ilgari surish, tadqiqot o'tkazish, tahlil qilish;

loyihalash metodi ta'lim oluvchilardan quyidagilarni talab qiladi: o'z faoliyati natijasiga mas'ul bo'lish, mustaqil qaror qabul qilish, yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash, uning sabablarini qidirish, xatolarni topish va to'g'rilash; turli yechim va takliflar natijalarini ilmiy tahlil qilish jamoada ishlash, turli nuqtayi nazar, fikrlar muhokamasida qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish;

Loyiha qatnashuvchilari o'z qiziqishlari, fikr doiralari bilan bir-birlariga yaqin, yordam beruvchi o'quvchilar bo'lib, ularni loyihada oldiga qo'yilgan maqsadlari birlashtiradi va quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

1 - bosqich. Loyihani ishlab chiqish. Unda loyihani amalga oshirish shakllari va vositalari, bosqichma-bosqich natijalari ham ko'rsatiladi.

2 - bosqich. Loyihada belgilangan vazifalar bajariladi. Bu bosqichda o'quvchilar mustaqil ravishda individual va guruh bo'yicha qo'yilgan vazifalarni bajaradilar. Ma'lumot, axborot to'playdi. To'plangan ma'lumotlarni muhokama qilinadi, Jadvallar, grafiklar ishlab chiqiladi, Namoyish (slayd) lar, illyustrativ materiallar tayyorlanadi.

3 -bosqich. Loyihaning barcha qatnashchilari tomonidan tayyorlangan ishlar bir butun qilib birlashtiriladi. Avval loyihaning xomiaki varianti yozib chiqiladi. So'ngra yakuniy variant tayyorlanadi. Rasmiy talablar asosida tayyorlanadi.

4 -bosqich. Loyihaning so'nggi varianti ekspertga, taqrizga beriladi. Bunda matn aniq asoslangan bo'lib, bajarilgan ishlarning mazmuni va erishilgan natijalarni gavdalantirishi kerak. Matnda albatta, jadvallar, slaydlar, grafiklar, chizmalar, dasturlar va boshqa shunga o'xshash materiallar bo'lishi shart.

5 -bosqich. Ish taqrizga beriladi. Loyihaga ekspert xulosasi olinadi, tashqi taqriz natijasini e'lon qilingach, tugallangan hisoblanadi.

6 -bosqich. Loyiha taqdimoti. Taqdimot loyihada bajarilishi belgilangan mezonlar asosida juriy (hakam) yoki komissiya a'zolari tomonidan baholanadi. Hay'at a'zolari tarkibi loyiha ishlab chiqilayotganda aniqlanadi. Tayyorlangan loyihani ko'rib chiqib, tanlanib, so'ngra tayyorlangan hisobot ko'rib chiqiladi. Hay'at ishni baholashi uchun baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev R.H. va bosh. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Toshkent, 2005. -49 b.
2. Ganiyeva M.A., Fayzullayeva D.M. Keys-stadi o'qitishning pedagogik texnologiyalari to'plami. Metodik qo'llanma. -T.: TDIU, 2013. - 95 bet.
3. Jo'rayev R.H., Raximov B.X., Xolmatov Sh.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Toshkent, 2005. -49 b.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDADARSLIK VA DASTURNING O'ZARO MOSLIGI

**Ravshanoy Raximova Karimjonovna**

Namangan viloyati Norin tuman  
28-maktab boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi  
945904527ravshanoyraximovna@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darsliklari va ularga mosligi haqida keng ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Darslik, matematika, asosiy xususiyati, mavzuning mazmuni, uziliksiz mustahkamlash, o'quvchilarga mosligi.

Darslik matematika o'qitishda o'quv jarayonini ta'minlash-ning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi va davlat dasturiga to'la mos qilib tuzilgan bo'ladi. Darslik o'qituvchiga o'z ishini ratsional rejalashtirishga yordam beradi, chunki u har qaysi mavzuning o'quv materialini mustahkamlashni yoritgan bo'ladi, materialni o'rganish uchun tayyorgarlikni o'z vaqtida ta'minlaydi, shuningdek, ilgari o'tilgan materialni tizimli ravishda va uzluksiz mustahkamlash va takrorlashning manbaidir. Darslikning mazmuniga kiradigan u yoki bu savollar dasturda ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Darslikning asosiy xususiyati shundaki, u dasturning talabini ochishi, uni konkretlashtirishi, dasturda ko'rsatilgan savollar qanday darajada qaralishini o'zida aks ettirishi kerak. Masalan, 2-sinf dasturida «teng ikki qismga bo'lish va mazmuni bo'yicha bo'lish, uni umumlashtirish» degan mavzuni darslikda yoritilishini diqqat bilan qarasaq, uni bayon qilishda yengilgina xatoga yo'l qo'yish mumkin, o'qituvchi diqqat bilan bu mavzuning mazmunini tushunmasa, o'quvchilarga mavzuda ko'rsatilgan ikki holni: teng ikki qismga bo'lishi va mazmuni bo'yicha bo'lish savollarini to'g'ri tushuntiraolmagan bo'ladi. Ko'p sondagi misollarni yechish orqali ham sonlarni teng ikkiga bo'lish ustida mulohazani aniq tushuntira olmasligi mumkin. Haqiqatan ham darslikda masalalar yechilishining bu turlariga alohida bob ajratmagan, hech qayerda bunga o'xshash savol va vazifalar ajratib ko'rsatilmagan. IV sinf dasturidan yana bir misol keltiramiz. Dasturda «millionlar sinfi ichida yozma va og'zaki raqamlash» degan mavzu bor. Lekin bu mavzuga turli xildagi savollar to'plami kiradi. IV sinf o'quvchilari bilan ishlashda qaysi savollar asosiy bo'lishi, qaysilar yo'l-yo'lakay qo'shib tushuntirilishi, qaysi savollar asosiy o'rinni egallashi lozimligini darslik ko'rsatib berishi kerak. Shuningdek, darslik boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning mazmunini dastur talabiga nisbatan oydinlashtiradi. Darslik ko'pincha dasturdagi alohida savollarni o'qitish ketmaketligini aniqlaydi, dastur talabida tuziladi. 107 Dastur esa kursning qurilish tizimini butun holda aks ettiradi (asosiy mavzularni o'qish va bo'lish), ba'zan mavzularning ichida materiallarning joylashish tizimini ko'rsatadi. Lekin dastur har bir mavzuning o'qitish metodikasini ochishni ko'rsatmaydi, chunki bu mazmun darslikda bayon qilinadi. Masalan, I-sinf dasturida «10 ichida qo'shish jadvali, 10 ichida ayirish», deb nomlab umumlashgan yo'nalish berilgan. Darslikda esa "10 ichida qo'shish va ayirish"ning har xii hollari

bilan o'qituvchilar tizimli ravishda o'quvchilarni tanishtiradi. Shunday qilib, boshlang'ich sinf matematika kursining tuzilish tizimi darslik bilan dasturning uzviy bog'liqligi asosida tuzilgan. Shuningdek, darslik dasturdagi tushuntirish xatida bayon qilingan asosiy metodik ko'rsatmalarni ochadi. Darslik o'qitish jarayonida fikr azariya va amaliyotning o'zaro aloqadorlik talabini yoritishning aniq yo'llarini ko'rsatib beradi. Boshlang'ich sinf matematikasi I-IV sinfuchun mo'ljallangan darsliklarda berilgan bo'lib, unga maqsadga muvofiq tanlangan masala va misol, mashqlar, savol va vazifalar, dastur o'z ichiga olgan nazariy savollar, bilim va malakalarni shakllantirish yo'llari kiritiladi. Darslikda bilimlarni tizimli mustahkamlash maqsadida mashqlar majmuasini vaqtlar bo'yicha taqsimlash, ularni har xii sharoitlarda qo'llash kabi materiallar beriladi. Darslikda tavsiya qilinadigan mashqlar o'zaro bog'lanish-da, kursning har xil savollari bilan aloqada bo'lgan holda tuziladi. Masalan, dasturda I sinf birinchi yarim yil bo'yicha mustaqil materiallarni o'qish malakalari beriladi. Darslikda esa arifmetik mat: nli materiallar ikkinchi yarim yilda berila boshlaydi. Shunga taalluqli masalalar darslikda o'quv yilining boshidan boshlab berilishi zarur. Bunday holda o'qituvchining o'zi o'quvchilarga mos qilib masala matnini tuzishi zarur. Har bir sinf uchun mo'ljallangan darslik og'zaki hisoblash usullari bilan malaka hosil qilishga mo'ljallangan yetarlicha mashqlarni o'z ichiga oladi. Ba'zi hollarda o'qituvchi darslikdan foydalangan mashqlarni



yana qo'llaydi, bunda bu mashqdlar o'quvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilganligi uchun unga o'quvchilar qiziqishmaydi. Bu masalada darslikda qo'shimcha tarzda maxsus qo'llanmaning bo'lishi katta foyda beradi. Mashqlar tizimini tanlashda darslik o'qituvchi uchun asosiy manzil bo'lib xizmat qilishi kerak. Bu tizim shunday qurilishi kerakki, dastuming barcha talablarini bajarish uchun zaruriy sharoit yaratilgan bo'lishi kerak. Masalan, bunday murakkab masalaning yechilishi darsliklaming tarkibiy tuzilishiga bo'ysunishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Matematika o’qitish metodikasi” S.Alixonov . Toshkent 2011
2. “Matematika analiz” 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent “O’qitvchi-1994”
3. [www.ziyo.com](http://www.ziyo.com) kutubxonasi



## INFORMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

**Razzaqberdiyeva Mavluda Bog'ibek qizi**  
**Kurbanov Ruslonbek Shavkatovich**  
Xorazm viloyati Urganch tuman  
10-son maktabi informatika o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabda informatia darslarini o'qitishda turli innovatsion metodlardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** “Bumerang” texnologiyasi, Amaliy mashg'ulotlar, “zakovat” usuli,

Hozirgi vaqtda o'qitishga yondashuv hayot va faoliyatning rivojlanish dinamikasining o'ziga xos xususiyatlari, turli xil ta'lim texnologiyalarining o'ziga xosligi va shaxs, jamiyat va davlat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'quv jarayoniga yangilik, innovatsiyalarni kiritishga qaratilishi kerak.

*“Bumerang” texnologiyasi.*

Ushbu metod o'quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'lish hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'qivchilarni baholay olishga qaratilgan.

Metodning maqsadi: O'quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarning o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash jarayoni mobaynida har bir o'quvchi tomonidan o'z baholarini egallashiga imkoniyat yaratish.

Metodning qo'llanishi: Amaliy mashg'ulotlar hamda suhbat-munozara shaklidagi darslarda yakka tartibda, kichik va jamoa shaklida foydalanilishi mumkin.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: O'quvchi dars jarayonida mustaqil o'qishlari, o'rganishlari va o'zlashtirib olishlari uchun mo'ljallangan tarqatma materiallar (o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha qisqa matnlar, suratlar, ma'lumotlar).

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:


Ushbu metod bir necha bosqichda o'tkaziladi:

- o'quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi;
- o'quvchilar darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mustaqil o'rganish uchun mavzu bo'yicha matnlar tarqatiladi;
- berilgan matnlar o'quvchilar tomonidan yakka tartibda mustaqil o'rganiladi;
- har bir guruh a'zolaridan yangiguruhtashkil etiladi;
- yangiguruh a'zolarining har bir guruh navbati bilan mustaqil o'rgangan matnlari bilan axborot almashadilar, ya'ni bir-birlariga so'zlab beradilar, matnni o'zlashtirib olishlariga erishadilar;
- berilgan ma'lumotlarning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi, ya'ni guruh a'zolari bir-birlari bilan savol-javob qiladilar;
- yangi a'zolar dastlabki holatdagi guruhlarga qaytadilar;
- darsning qolgan jarayonida o'quvchilar bilimlarini baholash yoki to'plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhda “guruh hisobchisi” tayinlanadi.

**“ZAKOVAT” USULI**

Zakovat usuli asosan darsni o'tilgan mavzuni takrorlash hamda darsni mustahkamlash qismlarida o'tkaziladi. Bu usul o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, tezkorlik bilan javob berishga undaydi. O'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu usul o'quvchilarning o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlashda ham yordam beradi. Zamonaviy o'qituvchi kompyuterning amaliy dasturlarida ishlashni mukammal bilishi lozim. Zakovat usuli “Zakovat” intellektual o'yiniga o'xshab ketadi. Bu usul Power Point dasturida tayyorlanadi. Baraban o'quvchi tomonidan bosiladi.

Strelka qaysi savolga borib tuxtasa o'sha savol ochiladi.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Informatika darslarini interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini bir necha barobar oshiradi. O'quvchini mazkur fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Умарова У.У. (2020). Использование педагогических технологий в дистанционном обучении моодле. Проблемы педагогики 51:6, С. 31-34.
2. Бобоева М.Н. (2021). "Номанфий бутун сонлар туплами" мавзусини укитишда айрим интерфаол методлардан фойдаланиш. Scientific progress, 2:1, pp. 53-60.
3. Хайитова Х.Г. (2020). Использование эвристического метода при объяснении темы «Непрерывные линейные операторы» по предмету



## BOSHLANG‘ICH SINFDAN MASOFAVIY TA‘LIM TIZIMINI SHAKILLANTIRISH

**Ro‘zmetova Nigora Atabayevna**  
**Xudosheva Darmon Alimovna**

Xorazm viloyati Urganch tuman  
10-son maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy axborot kommunikatsiyalarining hayotimizga kirib kelishi natijasid ta‘lim tizimidagi tub sifat o‘zgarishlar hamda zamonaviy ta‘limni yaratishda masofaviy ta‘limni keng ko‘lamli joriy etishning muhim shartlari haqida fikrlar yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ilmiy innovatsion metodlar, talim metodlari, kompyuter aloqa, sun‘iy yo‘ldoshli televideniye, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy

Hozirgi zamon ta‘lim jarayoniga ananaviy tushunchalar qatorida yangiyangi tushunchalar kirib kelmoqda. Qo‘yida shu tushunchalardan asosiylari keltirilib, ularga ta‘riflar berib o‘tilgan. O‘qitish – bu ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilgan tizimli bilim va ko‘nikmalar bilan qurollangan jarayondir. Ta‘lim – bu o‘qitishning natijasi bo‘lib, shaxsiyatni tarbiyalash va rivojlantirishdir. Masofaviy o‘qitish – eng yaxshi an‘anaviy va innovatsion metodlar, o‘qitish vositalari va formalarini o‘z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta‘lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta‘lim formasidir. Masofaviy o‘qitish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta‘lim tizimidir. U ta‘lim oluvchiga ma‘lum standartlar va ta‘lim qonun-qoidalari asosida o‘quv shartsharoitlari va o‘qituvchi bilan muloqotni ta‘minlab berib, o‘quvchidan ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o‘qitish jarayoni ta‘lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo‘lishiga bog‘liq emas. Masofaviy ta‘lim – masofadan turib o‘quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o‘qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta‘lim oluvchilarga ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi ta‘lim kompleksidir.

Hozirgi kunda keng qo‘llanishini zamon talab qilayotgan masofaviy ta‘lim tizimiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, masofali o‘qitish - davlatda va xorijda aholining keng qatlamiga masofada turib o‘quvchi va o‘qituvchini o‘quv axborotlar bilan almashinish vosita (kompyuter aloqa, sun‘iy yo‘ldoshli televideniye va sh.k.) larga asoslangan maxsus axborot-ta‘lim muhiti yordamida ta‘lim xizmatlar majmuasini taqdim qilishdan iborat. Masofali o‘qitishning xususiyatlariga, birinchidan, o‘quvchini o‘qituvchidan uzoqdaligi; ikkinchidan, mustaqil o‘qitish - sirtqi o‘qitish shaklining qandaydir varianti; uchinchidan, axborot vositalari va ashyolarini o‘quv jarayoniga faol birlashishidir. Masofaviy o‘qitish texnologiyasi tushunchasi standartlashtirilmagan. Eng ko‘p tarqalgan ta‘rif quyidagicha: masofaviy o‘qitish texnologiyasi bu ta‘limni belgilangan mazmunini nusxalab amalga oshirishga yo‘naltirilgan usullar tizimi, maxsus vositalarning, o‘qitish shakllarining majmuasidir.

Ushbu tizim haqida fikr borganda, tarixga nazar tashlasak, masofali ta‘limni dastlab buyuk ajdodlarimiz Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiy va boshqalar amalga oshirganlar. Ular boshqa shaharlardagi shogirdlariga xat orqali (chopar, kabutar yordamida) bilim va topshiriqlar berib turganlar. Ammo xat orqali axborot (ma‘lumot) almashishga haftalab, oylab vaqt ketgan. Olimlar orasidagi bu an‘ana telegraf, radio va televidenie kashf etilishigacha davom etdi. Hozirgi davrda esa, kompyuter texnikasi axborot telekommunikatsiyasi va internet tizimi asosida masofali ta‘lim, xuddi o‘qitishning kunduzgi shakli darajasidagidek amalga oshirilmoqda. Masofaviy o‘qitish texnologiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ta‘lim axborotlarini taqdim etish texnologiyasi;
- ta‘lim axborotlarini uzatish texnologiyasi;
- ta‘lim axborotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi.

Yangi ta‘lim texnologiyalaridan biri, uy sharoitlarida kompyuter yoki telekommunikatsiya yordamida boshqa davlatda joylashgan maktabda kurslarni o‘tish imkoniyatini beradigan masofali o‘qitishdir. Virtual ta‘limda, shuningdek, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqishini ko‘tarish kabi vazifalari ham mavjud va bu yerda an‘anaviy ta‘limda ham foydalaniladigan, tarmoq o‘yinlari, virtual seminarlar, treninglar va hamkorlikdagi jamoaviy loyihalar va boshqa shu kabi psixolog-pedagogik texnologiyalar katta ahamiyat kasb etishi mumkin.



Masofali ta'limda ham o'quvchilar xuddi kunduzgi o'quv shaklidagidek bir-birlari bilan telekommunikatsiya tizimi orqali o'zaro muloqotda bo'ladilar va maslahatchi (o'qituvchi)laridan yordam olib turadilar. Masofali o'qitishda o'quvchilarni onlayn (qachon axborot kerak bo'lganda, o'sha paytda axborot olish imkoniyatiga onlayn tartibi deyiladi) qo'llab-quvvatlash, chat va forumlar, onlaynli axborot taxtalari, onlayn do'konlari va boshqa maslahat vositalari bo'lishi kerak. Masofali o'qitishni amalga oshiradigan o'quv yurtlari, asosan, ular tomonidan taklif etiladigan o'quv dasturlariga muvofiq ravishda tabaqalanadilar.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali ish jarayonida qulaylikka hamda yuqori ish sifatiga erishishimiz mumkin. Masofaviy o'qitish tizimi ham darsning qulay bo'lishi hamda sifatli ta'limni yaratish uchun xizmat qilmoqda. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida keng qo'llanib kelinayotgan tizimdan biz ham hozirda foydalanishga o'tmoqdamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.marifat.uz](http://www.marifat.uz)



**МАКТАBLARDA TA'LIM-TARBIYA SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH  
BO'YICHA MULOHAZALAR**

**Safiyazov Xamdani Xojaboyevich**

Xorazm viloyati Gurlan tumani  
9-son umumiy o'rta ta'lim maktabning  
ingliz tili fani o'qituvchisi

**Akmalova Adolat Amanbayevna**

Xorazm viloyati Gurlan tumani  
9-son umumiy o'rta ta'lim maktabning  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga to'siq bo'ladi-  
gan muammolar va ularni yechimlari to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, sifat, bilim, innovatsion, pedagog, yangilik, muammo.

Ma'lumki, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq bo'lib, bu borada mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu vazifalar respublikamiz Prezidentining qator farmon va qarorlari da o'z aksini topgan.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj mavjud. Shu bois, ta'lim sifatini oshirishda o'quv jarayonini davr talablariga mos holda tashkil etish, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarini takomillashtirish, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, zamonaviy innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, mavjud muammolarni bartaraf qilish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir.

Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilim, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib boradi. Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi sohalari rivojlanishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayoni vujudga keladi. Bunday sharoitda malakali pedagoglarga bo'lgan talab ortib, fanning fundamental asoslari, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egalagan, kasbiy tayyorgarligi yuqori bo'lgan hamda zamonaviy innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llay oladigan ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalanish jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Bu o'z navbatida, mamlakatda modernizatsiya jarayonining tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ammo, bu sohaga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini joriy etish bo'yicha pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi. Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir pedagog ta'limga oid yangiliklarni muntazam o'rganib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi muhim.

Bugun fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o'quv dasturi mazmuniga tez kiritish talab etiladi va bu orqali zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Bundan tashqari zamonaviy o'qitish texnologiyalari, ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar bo'lajak pedagoglarda zaruriy bilim, muhim qonuniyat va ko'plab fundamental tushunchalarni chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Ta'limning sifatini oshirishda pedagoglar bilim va kasbiy mahoratining davr talablariga mosligi, o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan oqilona foydalanishi, tashkil etilayotgan darslarning samaradorligi, ta'lim oluvchi yaxshi o'zlashtirishi uchun har bir mavzuning pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llagan holda o'tilishini ta'minlash talab etiladi. O'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni amaliyotga joriy etish, ta'lim oluvchilarda egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, kasb tanlash, mustaqil ta'lim olish, o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'qitishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish, mustaqillik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik kabi kasbiy siyatlarga ega yoshlarni tayyorlash hamda pedagoglarni rag'batlantirish maqsadida katta ahamiyatga



ega, sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin, tahlil va o'rganish natijalari hozirgacha ta'lim tizimimizda saqlanib kelayotgan muammolar borligini ko'rsatmoqda. Jumladan:

- ta'lim muassasalarida malakali pedagoglarning yetishmasligi, ularni tayyorlashda amaliyotga joriy etilgan o'quv reja va dasturlarining yaratilishida sohadagi islohotlar to'liq inobatga olinmasligi hamda ular mazmunan eskirganligi;

- ta'lim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashda hamda iqtidorli yoshlarning kreativ g'oyalarni amaliyotga tatbiq etilishida tizimli va innovatsion faoliyat to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi;

- pedagoglar tomonidan ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmaganligi;

- pedagoglar tomonidan innovatsion pedagogik texnologiya va metodlarini amaliyotga keng joriy etilmasligi;

- ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlik to'liq yo'lga qo'yilmaganligi;

- o'quv mashg'ulotida ta'lim oluvchilarga bahslashish, o'zining fikrini bayon etishga imkon juda kam berilishi;

- ayrim mashg'ulotlarda pedagoglar eski ma'lumotlarni takrorlash bilan cheklanib qolayotganligi, ularning talab darajasida tayyorgarlik ko'rmaganligi, bilim va kasb saviyasining pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, kompetentliklari esa yetarli darajada emasligi sezilmoqda.

Bu muammolarni bartaraf etish pedagoglarning malakasini muntazam oshirishni, bunda alternativ usullarni qo'llash hamda tinimsiz izlanishlarini yo'lga qo'yish kabi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bu o'z navbatida pedagoga katta mas'uliyat yuklaydi.

Hozirda o'quv dasturi mazmuni va strukturasi qayta ko'rib chiqish juda muhim. U pedagog uchun "ko'zgu" vazifasini bajarishi lozim. Chunki, inson ko'zgu (oyna)ga qarab o'zining butun bir vujudini ko'radi. Shuning uchun ham pedagog o'z fani bo'yicha o'quv dasturiga qarab, butun bir faoliyatini, o'quv mashg'ulotida ta'lim oluvchilarga yetkazishi lozim bo'lgan jarayon borishini, unda amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalarni eslaydi.

Ta'lim sifati, uning maqsad va vazifalarini, mazmunini, shakl, metod, texnologiya va vositalarini to'g'ri tanlash muhim. Har bir mashg'uloti ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga, o'quv adabiyotlaridan kerakli axborotlarni mustaqil topishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Mashg'ulot sifati o'qilayotgan, tahlil qilinayotgan mavzuga pedagogning mas'uliyat bilan yondashishi, uning mazmunini ta'lim oluvchilarga yetkazishga qaratilgan mahorati, mashg'ulotni bugungi kun talabi asosida tashkil etish va boshqarish uslubiy faoliyati bilan belgilanadi. Pedagog mavzuni yoritish uchun uning muhim bo'lgan nazariya bilan asoslanganligi, fikrlarni mantiqan bog'langanligini tushuntira olsa, ma'lum maqsadga erishgan bo'ladi. Buning uchun zamonaviy o'qitish texnologiyalari imkoniyatlari va usullaridan foydalanish zarur. Jumladan, mashg'ulotda muammoli, modulli, loyihalash, evristik hamda hamkorlikda o'qitish texnologiyalaridan foydalanish ta'lim oluvchilarni ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, mustaqilligini oshirish, ularda o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Bugungi kunda o'quv mashg'ulotlari sifatini oshirish masalasiga yangicha yondashish, bajarilgan ishlar bilan cheklanmasdan, uni muntazam ravishda takomillashtirish, yangi uslub va shakllarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha:

- o'quv mashg'ulotining mantiqiy-tuzilish shaklini (o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda ketma-ketlik) aniqlash, ularni bevosita hayot talablariga moslashtirish;

- muammoli topshiriqlarni tuzish, ular asosida uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalarni tayyorlash;

- pedagogik texnologiyalarning zamonaviy turlarini qo'llash, tajribadan o'tkazish, natijalariga qarab, o'quv jarayoniga joriy etish, shu tariqa ta'lim oluvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga erishish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.Mavlyanov va boshq. Ilg'or pedagogik texnologiyalar bo'yicha o'quv mashg'ulotini loyihalash. T., 2016.

2. A.Mavlyanov va boshq. Pedagogik texnologiya tamoyillari asosida mashg'ulotlarni olib boorish texnologiyasi. T., 2010.



## GEOGRAFIYA DARSLARIDA HOZIRGI DAVRNING GLOBAL MUAMMOLARINI O'QITISH USULLARI

**Samandarova A'loxon Egamberganovna**

Qo'shko'pir tumani 17-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (94) 235 26 13

ae.samandarova\_17@inbox.uz

**Abdalova Sohiba Komiljonovna**

Qo'shko'pir tumani 17-son maktab o'qituvchisi

Telefon: + 998 (99) 348 90 12

abdalova.sohiba\_9012@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola geografiya darslarida hozirgi davrning asosiy muammolari va ularning yechimi o'qitish haqida.

**Kalit so'zlar:** Atrof-muhit, tabiiy ofatlar, demografik muammo, ekologik muammo, urush va tinchlik.

Insoniyat jamiyatining taraqqiyoti hechqachon va hechqayerda oson, beto'siq kechmagan. hardoim va hamma davrlarda jamiyat oldida muayyan muammolar ko'ndalang bo'lib turgan. Bular, bir tomondan, tabiat ofatlarining natijasi o'laroq namoyon bo'ladigan yer silkinishlari, suv toshqinlari, qurg'oqchilik, quyosh radiatsiyasi o'zgarishi bilan bog'liq turli epidemik kasalliklar va hokozolar bo'lsa, ikkinchi tomondan, insoniyat faoliyati natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotga oid bo'lgan antropogen muammolardir. Jahon miqyosida jarayonlari tahlili shunu ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda, insoniyat uchun o'tkir, dolzarb bo'lib turgan global muammolar quyidagilardan iborat:

a) yer yuzida tinchlikni ta'minlash va yalpi qirg'in urushlarining oldini olish (urush va tinchlik muammosi);

b) atrof-muhitni samarali muhofaza qilish (ekologik muammolar);

d) aholi sonining orta borishi bilan ishlab chiqarish rivojlanishi mutanosibligiga erishish (demografik muammo)

e) yer yuzi aholisini zarur oziq –ovqat va energiya manbalari bilan ishonchli ta'minlash;

f) ochlik-qashshoqlik va qoloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlangan va ularda keyinda qolgan mamlakatlar o'rtasidagi keskin farqni bartaraf etish;

g) xavfli kasalliklarni tugatish;

h) inson ma'naviy-axloqiy muhiti sofligini ta'minlash;

Bu muammolarning har biri u yoki bu darajada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy huquqiy nuqtayi nazardan ilmiy tahlil etilgan. Kelib chiqishi, chuqurlashib borishi, ko'lami va hal etilishining murakkabligi jihatlariga ko'ra, ularni uch guruhga ajratish mumkin.:

Birinchisi, mavjud ijtimoiy tuzumning tabiati, turli mintaqa davlatlarning xilma–xil manfaatlarini taqozo etilgan muammolar.

Ikkinchi guruhi, -inson kelib chiqadigan muammolari.

Uchinchisi, "Jamiyat–tabiat" tizimi doirasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan muammolar

Global muammolarning turlari o'zaro qanchalik farqlansada, bu sohalaridagi umumiylik dastavval butun insoniyatning hayoti, shart–sharoitlari, imkoniyatlari va istiqboli masalalaridir.

Ikkinchi tomondan ular u yoki bu darajada hozirgi davrning bosh omili- fan-texnika inqilibi bilan aloqadordir, ya'ni uning oqibatidir. bizning davrimizda fanning rivojlanish sur'atlari g'oyat kattadir.

Fanda erishilgan kashfiyotlar tezda yangi texnika vositalari yaratishni ta'minlansa, o'z navbatida texnika rivojlanishi ham fanda yangi o'zgarishlar sodir etishga jiddiy turtki bermoqda. Bularning natijasi o'laroq, erishilgan kashfiyotlar muayyan maqsadlarga xizmat qilmoqda. Bu esa global muammolarning yanada o'tkir, dolzarb bo'lib turishiga olib kelmoqda. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, yerdagi hayotni saqlab qolishning asosiy sharti-yalpi qirg'in urushlarning oldini olish hamda sayyoramizning bir qancha mintaqalari xalqlari qoloqligini tugatib, insoniyat jamiyati mutanosib rivojlanishiga erishish va ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish insoniyat kuch g'ayratlarini birlashtirish lozim boladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi 9-sinf darslik,, Jahon mamlakatlari geografiyasi,, ilmiy metodik qo'llanma.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA  
MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI****Saporova Bakposhsha Bekturdiyevna****Saporova Ozada Qadamboyevna**

Xorazm viloyati Urganch tuman

10-son maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchilari

**Annotatsiya:** ushbu maqolada zamonaviy innovatsion ta'limning asosi bo'lmish, darsda multimedia vositalaridan foydalanish hamda bu orqali o'quvchilarda o'zlashtirishni oshirish hamda darslarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** multimedia, animatsiya, innovatsion, kommunikatsiya, raqamli o'quv resurs, audio, video, grafika, kompetentlik.

Multimedia vositalari pedagogik nuqtayi nazaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilishida kompyuter asosida yangicha yondashuv hisoblanadi. Shu orqali, o'quvchilarda ta'lim jarayonining samaradorlik darajasini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababdan boshlang'ich sinf darslarini o'rganishda rivojlantiruvchi muammoli va pedagogik texnologiyalarni asosiy jihatlarini o'zida ifodalovchi “Multimedia-dars”, “Slaydli dars”, “Seminar dars” kabilarni qo'llash tavsiya etiladi. Seminar dars o'quvchilarning mustaqil chiqishlarini jamlovchi, lozim topilgan paytda munozaraga asos yaratuvchi dars hisoblanadi. Bunday darslarda o'qituvchi boshqarib, yo'naltirib turish vazifasini bajaradi, o'quvchilar esa mustaqil ijodiy ishlovchi o'z fikriga ega shaxs sifatida o'quv faoliyatiga kirishadilar. “Multimediali darslar” dan foydalanish ta'lim dars jarayonida sifat va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu jarayonda o'qituvchi:

- O'quv materialini ko'rgazmali taqdim etadi;
- Yangi materialni jadallik bilan yetkaza oladi;
- Axborotlar tezligi va hajmini animatsiyalar ko'magida boshqara oladi;

Boshlang'ich ta'limda multimedia texnologiyasining barcha fanlar kesimida keng ko'lamda qo'llanilishi natijasida ta'lim tizimining sifatiga ta'sir ko'rsatish tushuncha va bilimlarni tezroq o'zlashtirishini ta'minlab beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili fanidan o'rganiladigan o'quv materiallarini osonlashtirish maqsadida o'quv materiallari bir-biri bilan bog'liq qismlarga ajratiladi, so'ngra ta'limni o'zlashtirish samaradorligini oshirish uchun vazifalar ketma-ket bajarilishi rejalashtirilgan bo'ladi.

Masalan, ona tilidagi maktab so'zi dastlab ikki bo'g'inga mak-tab, so'ngra tovushlarga m, a, k, t, a, bajratiladi. Ushbu tovushlarning birikishidan mak birinchi bo'g'in, tab ikkinchi bo'g'in hosil bo'ladi va bu bo'g'inlar birikib maktab so'zi hosil qilinadi. Bu bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligi oshib, nutqida maktab so'zining mazmun-mohiyatini, maktabning ta'lim beruvchi maskan ekanligi, o'quvchilar maktabda o'qish va tarbiya topadigan joy ekanligi to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi. Bunda monitor ekranida maktabning umumiy ko'rinishi, maktab atro-fida gullarning ochilib turishi, xush kelibsiz, degan so'zning maktab peshtaxtasiga yozib qo'yilganligi, bolalarning maktabga sumkalarini ko'tarib borishlari monitor ekranida harakatlar bilan namoyish etilishi qiziqarli tarzda kechadi. Muhim tomoni shundan iboratki, ushbu texnologiyada o'rganilayotgan o'quv materiallari multimedia asosida bajariladi. Ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atda jadallik bilan rivojlanishi barcha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ayniqsa, “...boshlang'ich ta'limning sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarni takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya-texnologiyalarini keng joriy etish masalalari” bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimida ayniqsa, ona tili ta'limida dolzarblik kasb etmoqda.

Ona tili ta'limini audio, video va multimediali vositalar yordamida amalga oshirish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish innovatsion faoliyatlardan biri sanaladi. Hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda o'qitish usuli ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha multimedia vositalaridan foydalanib, tatbiq qilinmoqda. Hatto, har bir oila multimedia vositalarisiz, hordiq chiqarmaydigan bo'lib qoldi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish samarasi an'anaviy usulga qaraganda 2 barobar unumli va vaqtdan yutish mumkin ekan. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30%



gacha vaqtni tejash mumkin bo‘lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o‘quvchilar berilayotgan materiallarni ko‘rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% gacha oshadi. Bunga qo‘shimcha sifatida o‘quv materiallari audio, video va grafika ko‘rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi.[4] Bunga multimedia vositalari asosida chet tillarini o‘rganish jarayonida yana bir bor ishonch hosil qildik. Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib shuni aytish lozimki, boshlang‘ich ta‘limning sifat va samaradorligini rivojlantirishda o‘qituvchining kasbiy kompetentligi va o‘qimishlilik darajasi, bolalar psixologiyasi, zamonaviy pedagogik axborot texnologiyalarini puxta bilishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan, hozirgi paytda pedagog va dastur tuzuvchisi mutaxassislarning birlashib, turli fanlardan multimedia darsliklari yaratish ta‘lim samaradorligini oshirish uchun kutilgan natijalarni berishini unutmasligimiz kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: Fan, 2006
2. Ta‘limni boshqarish tizimlarida multimodal biometrikaga asoslangan talabalar davomatini o‘lchash. Multimedia bo‘yicha IEEE Xalqaro Simpoziumi (2009), 699- 744-betlar.



## BOG`LANISHLI NUTQQA OID ASOSIY KO`NIKMALAR

**Sharipova Mehriniso Boqiyevna**

Buxoro viloyati G`ijduvon tumani  
45-makab boshlang`ich sinf o`qituvchisi  
(+998914487098)

**Annotatsiya:** O`qituvchi bog`lanishli nutqni rejalashtirganda, turli janrda mashq qilishni ko`zda tutadi va o`quvchilarga hikoya, tasvir va muhokama elementlarini o`rgata boradi. Bunda ko`proq hikoya tarzidagi matn tuzdirishga ahamiyat beradi. Bolalarning bog`lanishli nutqni egallash darajasiga qarab, matnga tasvir va muhokama elementlari kiritib boriladi.

**Kalit so`zlar:** Nutq, bilim, ko`nikma, malaka, kompetensiya, bog`lanishli nutq, janr, kinoya.

O`quvchilar nutqini o`stirish ularga aniq ko`nikmalarni singdirish demakdir. Boshlang`ich sinf o`quvchilari mustaqil mashq sifatida bog`lanishli nutqni o`stirishdan quyidagi ko`nikmalarni bilib oladilar:

1. Mazvuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to`liq yoritish ko`nikmasi. Masalan, “Biz uy ishlarida ota-onamizga qanday yordamlashamiz?” mavzusi berilsa, o`quvchilar aniq bajargan ishlari haqida hikoya qiladilar. Ular mavzuni yaxshi tushunishlari uchun bayon matni qayta hikoya qildiriladi, inshoda esa berilgan mavzu yuzasidan mustaqil hikoyalash mashq qilinadi.

2. Inshoni asosiy fikrga bo`ysundirish ko`nikmasi. Bolalar ishi ma`lum fikrni (tabiatning ajoyib tasvirini idrok etish, o`zlarining baxtli hayotidan g`ururlanish, mehnatga va mehnatkash insonlarga muhabbatni) ifodalaydi.

3. Hikoya, insho uchun mavzuga taalluqli, uni yoritishga zarur bo`lgan materialni yig`ish. Bu bayonga ham taalluqli bo`lib, namunaviy matn tahlil qilinadi, mazmunini to`g`ri tushunish ustida ishlanadi, asosiy mazmun ajratiladi.

4. Materialni tartibga solish, uni tegishli izchillikda joylashtirish, matn rejasini tuzish va shu reja asosida yozish ko`nikmasi.

5. Fikrni adabiy til me`yorlariga rioya qilgan holda to`g`ri ifodalay olish ko`nikmasi. Buning uchun bayon va inshoni nutqiy shakllantirishdan oldin unga til tomondan tayyorgarlik ko`riladi.

6. Matnni og`zaki yoki yozma tuzish, inshoni yozish, ya`ni barcha tayyorgarlik ishlarini yakunlash ko`nikmasi.

7. Yozilgan matnni takomillashtirish ko`nikmasi. Bu ko`nikma o`z ijodiga tanqidiy munosabatda bo`lish asosida tarbiyalanadi. O`quvchilar material tanlashda va uni joylashtirishda, so`z tanlash, so`z birikmasi va gap tuzishda o`zlari yo`l qo`ygan kamchilikni, xatoni fahmlashga o`rgatib boriladi. O`qituvchidan o`quvchini navbatdagi inshoga tayyorlashda shu mashqning pedagogik maqsadini, o`quvchilarni nimaga o`rgatishni, tafakkuri va nutqini qanday boyitishni, shuningdek, mashqlar izchilligida shu inshoning tutgan o`rnini aniq ko`z oldiga keltirish talab etiladi. Shuning uchun o`quvchilarning bog`lanishli nutqini o`stirishga oid mashq turlarining bir yillik rejasini tuzib olish tavsiya etiladi.

Metodik an`anaga ko`ra matnli mashqlar tasvirlash, hikoya qilish

va muhokamaga bo`linadi. Boshlang`ich sinflarda bular, asosan, *tasvir* yoki muhokama elementlari bo`lgan hikoya tarzida uchraydi. Har uchala janr uchun foydalaniladigan material xarakterida ham, qurilishida ham, til vositalarini tanlashda ham o`z xususiyatlari mavjud. Insho yoki bayonga tayyorlanayotganda o`qituvchi (yoki o`quvchi) matnning janr xususiyatlarini hisobga oladi. Hikoya boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun mos janr hisoblanadi, chunki u jo`shqin, jonli, ta`sirchan bo`ladi. □O`qish kitobi□da bunday hikoyalar ko`plab berilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. Qosimova, S. Matchonov, X. G`ulomova □Ona tili o`qitish metodikasi□
2. Internet ma`lumotlari



## O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA MULOHAZALAR

**Sharopova Madina Rizoidinovna**

Buxoro viloyati Jondor tumani

38-son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish haqida va bunda qilinishi lozim bo'lgan ishlar va metodlar haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, so'z, mulohaza, o'quvchi, talaffuz, gap, og'zaki, yozma, til.

Nutq-kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tilidan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi: 1) so'z ustida ishlash; 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash. Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida bog'lanishli nutq hikoya va insho lug'atini boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida, bola nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti - nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Bolalarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda «tilni sezish» shakllanadi.

Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasi idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Buning o'zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o'zlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til normalarini o'zlashtirish. Maktab bolalarni adabiy tilni sodda so'zlashuv tilidan, dialekt va jargondan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan bola yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki-so'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Til kishilik jamiyatida muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida ahamiyat beriladi. Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar nutqining rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan



biri o'quvchilarning uyda, ko'chada yoki sinfdan tashqari paytlarda tojik, turkman, qirg'iz yoki boshqa (sheva) tilda so'zlashib, maktabda o'zbek tilida o'qishidir. Etnografik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, yurtimiz hududida juda ko'p tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar, qozoqlar yashaydi. Ularning ko'pchiligi uyda tojik, qirg'iz va hokazo tilda so'zlashib, maktabda o'zbek tilida o'qishdi. Bu hol, shubhasiz, o'quvchilarda tilning boy imkoniyatlaridan foydalangan holda o'z fikrini erkin bayon qilish imkoniyatini chegaralaydi.

Xullas, o'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o'qituvchigagina bog'liq emas. Barcha imkoniyatlar to'laligicha ishga solinsagina fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish jarayoni oson kechadi. O'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochadi.

Bizga ma'lumki, o'quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim. Quyida shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiramiz.

**"Hikoya"**. O'qituvchi xattaxtaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. Masalan: Nafisa, soat, yomg'ir, kitob kabi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'z ishtirokida hikoya tuzadilar.

**"O'zara bog'liqlik"**. O'quvchilarga rasmlı kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o'quvchi rasmdagi predmet haqida gapirib beradi. Masalan: "Bu olma. Olma bog'da o'sadi va mevaga kiradi. Uni o'quvchilar juda yaxshi ko'rishadi" Keyin ikkinchi bola ham o'zidagi predmet haqida gapiradi va o'zidagi predmet bilan birinchi o'quvchidagi predmetni o'zara bog'liqligini aytishi kerak.

**"Umumiylikni izlash"**. O'quvchilar aylana qurib o'tiradilar. Olib boruvchi o'quvchilardan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan ikkita so'zni aytadi. Masalan: maktab va o'quvchi, kitob va javon, quyosh va gul... To'pni tutib olgan o'quvchi so'z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to'pni qaytaradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. - T.: O'qituvchi, 1980.
2. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. -T., 2000. 3. Muhiddin-ov A.G'. O'quv jarayonida nutq faoliyati. - T.: O'qituvchi, 1995.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ICHIDA RAQAMLASHGA O'RGATISH

**Munavvar Soliyeva Nozimjonovna**

Namangan viloyati Norin tuman

28-umumta'lim maktabi

Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

939126024 munavvarsoliyeva@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali o'qituvchilarni boshlang'ich sinflarda matematika fanlarida ichida raqamlashga o'rgatish usullari haqida tushunchalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Onlik, sonlarni raqamlash, sanash, sanoq malakasi, cho'p, taxminiy savollar, rivojlantirish, o'qituvchi, o'quvchi, bolalar.

«O'nlik» mavzusida *sonlarni* raqamlash, *tayyorgarlik davri* Birinchi sinfga kelgan bolalar turli joylardan va turlicha matematik tayyorgarlikka ega bo'ladi. Bolalar bog'chasi yoki ba'zi oilalarda tayyorgarligi bor bolalar 1-10 gacha sonlarni o'qish, sanash, teskari sanash, yozish malakalariga ega bo'ladilar. Ba'zan, mutlaqo tayyorgarlikka ega bo'lmagan bolalar keladilar. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi 1-sinfga kelgan bolalarning tayyorgarligini individual aniqlashdir. Bu ish o'qish boshlanguncha yoki birinchi haftadayoq amalga osnirilishi kerak. Aniqlashda quyidagi taxminiy savollar bo'lishi mumkin:

1. Sanashni bilasizmi? Sanang-chi?

2. Doiracha, cho'p, bayroqchalarni sanang-chi?

3. Stolda qancha qalam bo'lsa, shuncha bayroqcha oling.

4. Qaysi doirachalar ko'p? Qizillarimi, ko'klarimi?

5. Tartib bilan qo'yilgan narsalarni tartib bilan sanang.

6. 5-1, 8-2, 4-3 kabi savollar. Har bir o'quvchining bilim darajasini hisobga olish maqsadida o'qituvchi quyidagi jadval bilan qaydnomani tuzadi:

Nomeri, Vaqti **Familiyasi**

-Tayyorgarlik davrining (6-7 mashg'ulot) asosiy vazifasi raqamlashni o'rganishga o'tish uchun zarur bo'ladigan bilimlar, malakalar va ko' ikmalarni aniqlash. 1-sinfning 1- mavzusi 1-o'nlik sonlarini raqamlashdan iborat. Bunda bolalar sanoq malakasini hosil qilish, 1-10 gacha bo'lgan son haqidagi tasavvur shakllantirish, sonlar qatorini hosil qilish kabi ishlarni bajarish kerak. 10 ichida raqamlashda o'qituvchining vazifasi bolalarda sanash malakalarini shakllantirish va 1-10 sonlar kesmasida natural qatorning tuzilishini ochib berishi va bu asosda natural ketma-ketlikning hadi sifatida ta'riflashdan iborat. Raqamlashni bilish natijasida o'quvchilar quyidagilarga erishadilar:

1. 1 dan 10 gacha sonlar ketma-ketligini to'la o'zlashtirish.

2. Narsalarni sanashni va sanash tartibi ko'rsatilganda har bir narsaning tartib raqamini aytib bera olishi.

3. Sonlarning 1 dan 10 gacha har bir son qanday hosil bo'lishi

(1 ni qo'shish yoki 1 ni ayirish bilan).

4. Raqamlarni o'qiy olishlari va har bir raqamga mos keladigan narsalar to'plamini mos keltirishi.

5. Sonlarning katta, kichik, tengliklarini bilish.

6. 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10 sonlarini bir necha qo'shiluvchilardan iborat qilib yoza olishni.

7. 2+1, 4-1, 1+3 kabi yozuvlarni o'qiy olishi va natijasini hisoblay olishi.

8. Doira, kvadrat, uchburchaklarni bir-biridan farqlab, nomlarini aytish va ularni chiza olishi.

Natijada quyidagi savollarga javob bera oladigan bo'lsin:

1. U yoki bu son qanday hosil qilinishi mumkin?  $4+1=5$ ,  $6-1=5$  kabi.

2. Son qanday ataladi va u bosma va yozma raqamlar bilan qanday yoziladi?

3. Berilgan son bilan qo'shni sonlar orasida qanday munosabatlar mavjud

«>, =) Bu vazifalardan kelib chiqib mavzuni o'rganish rejasi tuzuladi. Natural raqamlar tartibi o'quvchilarda bu qatorning hosil bo'lish tushunchalarini ongli o'zlashtirishiga imkon beradi. Shunga e'tibor qilish kerakki, har gal avvalgi o'tilgan raqamlar qatori qayta ko'rib chiqiladi va



o'rganilayotgan yangi raqamlar ilgari tartibni davomi ekanligiga diqqat qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Matematika o’qitish metodikasi” S.Alixonov . Toshkent 2011
2. “Matematika analiz” 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent “O’qitvchi-1994”
3. www.ziyo.com kutubxonasi



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ORFOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI

**Tolibova Nazira Tolibovna**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani  
4-makab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
(+998907457395)

**Annotatsiya:** O'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi. Imloviy malaka maxsus nutq malakasidir. To'g'ri yozuv - maxsus nutq faoliyati; yozuv ham murakkab harakat bo'lib, uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, so'zni uslubiy aniq qo'llashni ham o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** Orfografiya, nutq, imlo, to'g'ri yozuv, psixologiya, psixika, bog'lanishli nutq.

Imloviy malaka murakkab malaka bo'lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so'zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko'nikmasi kabilarga asoslanadi. Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya'ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish o'rganilgan imlo qoidasining oson yoki qiyinligiga bog'liq. Imloviy malaka o'z tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo'yilgan ko'nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq va to'g'ri bo'la boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning tuzilmasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishlash kengroq, butun, qo'shilgan birliklar bilan ishlashga o'tadi (masalan, so'zni harflab ko'chirish, bo'g'inlab ko'chirish bilan, keyin so'zni yaxlit ko'chirish bilan, so'ngra u gapni ko'chirish bilan almashadi). Bir imlo malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o'rganiladi va asta-sekin so'zni to'g'ri yozish malakasi hosil bo'ladi. Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi. To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to'g'ri yozuv hodisasini o'zlashtirish uchun o'quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez tatbiq etiladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so'z va so'z shakllarini ma'lum grammatik yoki grafik guruhlariga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi. Shunday qilib, orfografiyani o'rgatishda, grammatikani o'rgatish kabi, o'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish talab etiladi. Imlo qoidasi ustida ishlash metodikasi. O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'zningina emas, balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me'yorga muvofiq butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so'zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so'z yasashiga oid materiallarni ma'lum darajada biimasdan turib o'zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo'ladigan grammatik nazariyaga bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo'shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar „Ot, „Sifat“, „Son, „Kishilik olmoshlari“, „Fel mavzulari ichiga kiritilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova “Ona tili o'qitish metodikasi”
2. Internet ma'lumotlari.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVOD O'RGATISH DARSLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA MULOHAZALAR

**Turabova Saodat Kosimovna**

Samarqand viloyati Payariq tumani

74-son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga savod o'rgatish jarayonlari, savod o'rgatish darslarini tashkil etish bo'yicha mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** savod, dars, alifbe, o'qish, yozish, malaka, ko'nikma, unli, undosh.

Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi.

“Alifbe”ga asoslangan holda qisqa muddatda o'quvchilar o'qish, yozishga o'rgatiladi, so'ng o'qish va yozish ko'nikmasi takomillashtiriladi, bora-bora malakaga aylantiriladi.

O'qish va yozish malakasi nutqqa oid malaka. O'qish va yozish malakasi nutq faoliyatining boshqa turlari bilan ham bog'liq. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha marta takrorlanishi mumkin.

O'zbek tili yozuvi - tovush yozuvi. Yozuvda o'quvchi tovushni harfga, o'qishda esa harfni tovushga aylantirishdek murakkab aqliy faoliyatni bajaradi. Bu faoliyat doimiy ravishda yuz berishini nazarda tutib, o'qish va yozish parallel olib boriladi.

O'zbek tili yozuvi - fonematik yozuv. O'zbek tili yozuvi uchun 1993-yil lotin grafikasi asos qilib olindi. Nutqning har tovushi uchun yozuv unga mos shakl qabul qilindi.

O'qituvchi savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga tovushlar haqida ma'lumot berishda o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodida olib boriladi. So'z bo'g'inga ajratiladi, bo'g'indan kerakli - o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganilgan harf bilan sintezlanadi.

Hozirgi o'zbek tili unlilar sistemasi: a) o, u, o', e, i, a. Savod o'rgatishda tovush harf bilan tanishtirish unlilardan boshlanadi.

E - harfi so'z va bo'g'in boshida o'rta keng lablanmagan unli o'rnida va

undoshdan keyin yoziladi. Savod o'rgatishda oldin so'z boshida keladigan e, so'ng undoshdan keyin keladigan e o'rgatiladi.

O harfi o'zbekcha, umumturkiy so'zlarda quyi keng, lablangan o tovushini ifodalaydi. Ruscha - internatsional so'zlarda urg'usiz bo'g'inda a tarzida (kalxoz), o' tovushi kabi (to'nna), qisqa i tarzida (rektir) talaffuz qilinadi. Shuning uchun bu unlili so'zlar savod o'rgatish davridan so'ng o'quv jarayoniga kiritiladi.

O'zbek tilida 24 undosh tovush bor. SHulardan 3 tasi harf birikmasi. 24 undosh tovush 23 undosh harf bilan belgilanadi. Undoshlarni o'rgatishda ham muayyan tartibga, talabga asoslanadi.

Alifbo davri sonor - ovoqli (ovozdor) tovushlarni o'rgatishdan boshlanadi. Lekin ng sonor undoshi n va g undoshi tovush harfi bilan tanishtirilgach o'rgatiladi. Harf birikmalarini o'rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda ular alifbe davrining oxirroq'ida o'rganiladi.

J harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, unga alohida darslar ajratiladi. Savod o'rgatish jarayonidayoq harfning 4 xil varianti (bosma, yozma, bosh va kichik)ning ishlatilishi o'rgatiladi.

O'quvchilarni o'qishga o'rgatish bo'g'in asosida olib boriladi. O'qishning dastlabki bosqichida orfografik o'qishdan foydalanilsa sekin-asta orfoepik o'qish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bo'g'inlab o'qishga o'rgatish uchun so'zni bo'g'inga bo'lish, bo'g'in hosil qiluvchi tovushni aniqlash, ochiq-yopiq bo'g'inlarni farqlashga o'rgatish muhim sanaladi.

O'qish ham yozish ham murakkab nutq faoliyati. U kichik yoshdagi o'quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi. Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda quyidagilar kuzatiladi:

1. Bola o'qish paytida bitta harfni ko'radi, uni bilish uchun oldingi ko'z oldiga keltirilgan rasmlarni yo boshqa harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga oshiqadi, biroq o'qituvchi aytishga yo'l qo'ymaydi, ikkinchi harfni eslab qo'shguncha birinchisi esdan ko'tariladi, yoki ularni qo'shib bo'g'in, bo'g'indan so'z hosil qilguncha o'qish jarayoni sustlashadi.

2. Ko'pincha bola o'qiyotgan qatorni yo'qotib qo'yadi, harfni, bo'g'inni, so'zni qayta o'qishga



to'g'ri keladi. O'quvchining diqqati kengaygan sari bo'g'in va so'zni butunicha idrok eta boshlaydi.

3. O'qishni endi o'rganayotgan bola o'qiyotgan matn mazmunini o'zlashtirmaydi, chunki so'zni qanday o'qishga kuch beradi-da, so'z ma'nosiga e'tibor bermaydi. Darslikdagi rasmlar, o'qituvchining savollari, ko'rgazmali qurollar ongli o'qishlarini ta'minlaydi.

4. Tajribasiz kitobxon so'zni birinchi bo'g'iniga yoki rasmga qarab topadi. Bu xato o'qishga olib keladi. Bu xatoning oldini olish uchun so'z bo'g'inlab o'qitiladi, so'zni bo'g'in-tovush tomondan tahlil qilishga, tovush-harf tomondan analiz va sintez qilishga diqqat qaratiladi.

O'qishni muvaffaqiyatli egallashlari uchun o'quvchilarning idroki, xotirasi, tafakkurini va nutqini o'stirishga katta e'tibor berish kerak. Savod o'rgatishda fonematik eshitish qobiliyatlarini o'stirish, to'g'ri va aniq talaffuz qilishga o'rgatish, tovushni ajratish ko'nikmasini o'stirish muhim sanaladi.

Yozuvga o'rgatish o'quvchilar ruchkani to'g'ri ushlab, daftarni to'g'ri qo'yish, harfni yozishda yozuv chiziqlari e'tibor bilan boshlanadi. Ular bo'ylab qo'lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga ulashi, qatorga sig'ish-sig'masligi mo'ljallanishi lozim. Bular o'quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa, barmoq va yelka muskullari charchaydi, bular darsda ikki-uch marta jismoniy mashqlarini o'tkazishni taqozo qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G'oziev E. Va b. Psixologiya muammolari. T., O'qituvchi, 1996.
2. G'oziev E. Psixologiya. T., O'qituvchi, 1994.
3. Karimova V. Psixologiya. Toshkent 2000 y.
4. X.Ibragimov, U.Yo'ldoshev, X.Bobomirzayev. Pedagogik psixologiya T- 2007.



**МАТЕМАТИКА ДАРSLARIDA QIZIQARLI O'YINLARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI**

**Usmonova Oysafar Qo'chqorovna**

Jizzax viloyati G'allaorol tumani  
87-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*“Matematika fanlar ichida shox, uning sirlaridan bo'lingiz ogoh”.*  
Qori Niyoziy

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ta'lim sohasidagi so'ngi o'zgarishlar va matematika darslarida qiziqarli o'yinlardan samarali foydalanish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Matematika, Qori Niyoziy, davr, texnologiya, o'yin, yoshlar, Yo'lchiroq o'yini, Topqirlar o'yini.

Bugungi kunda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar negizida ta'lim tizimi oldiga ham ulkan vazifalarni qo'yimoqda. Bu o'z novbatida pedagoglar zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi.

Hozirgi davrdagi eng dolzarb vazifalardan biri ta'lim sifatini oshirib, samaradorlikka erishishdan iboratdir. Buning uchun turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Texnologiyalar qo'llash o'quvchini darsga va fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Bolani dars davomida bilimni to'la mavzu asosida egallashiga bir xil faoliyat bilan erishib bo'lmaydi. Bu bolaning yosh qobiliyatini charchatadi, zeriktiradi. O'yin faoliyati esa yosh bolalarni qiziqarli hayotiy ehtiyojlarini qamrab, qiziqishlarini oshirib boradi.

Har bir misol, masalani turli usullar, qiziqarli o'yinlar orqali ko'rsatib bajarish mumkin. Boshlang'ich sinflarda misollar yechishda o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish uchun bir nechta qiziqarli o'yinlardan namunalari keltiramiz.

Yo'lchiroq o'yini.

O'yin musobaqa tarzida o'tkaziladi. O'quvchilarni 2 yoki 3 guruhga bo'lib olamiz. Har bir guruh uchun alohida misollar beriladi. Misollar qizil, sariq va yashil rangli doirachalar ortiga yoziladi, ya'ni doiralar yo'lchiroq ranglari ketma-ketligida joylashtirilib, bunday doirachalar uchala qator uchun alohida tayyorlanadi.

84-7=77		54-6=48		28-9=19	
64+8=72		78+4=82		87+5=92	
34-4=30		46-6=40		97-7=90	

Har bir guruhdan birin-ketin o'quvchi chiqib avval qizil doirachalar orqasidagi misollarni, keyin sariq doirachalar orqasidagi misollarni, oxirida yashil doiralar orqasidagi misollarni musobaqa tarzida yechib olishadi. Har bir to'g'ri ishlangan misol natijasida svetoforning shu rangi chirog'i yonadi. Noto'g'ri ishlangan misolni chirog'i yonmaydi, tarzida misollar ishlanadi. Bu orqali o'quvchilarga yo'l harakati qoidasi ham o'rgatiladi.

“Topqirlar” o'yini.

Bu o'yinda ko'paytirish va bo'lishga doir misollar yechib, bilimlar mustahkamlanadi. O'yinni qatorlararo o'tkazish ham ancha qulay. Bayroqchalar olinadi, o'qituvchi har bir qatorning oxirgi partadagi o'quvchiga bayroqchani beradi. O'qituvchi son aytadi.

Masalan: 1-qatorga 6 soni,

2-qatorga 4 soni,

3-qatorga 5 soni

Bayroqchalarni olgan o'quvchi:

$$6 \times 2 = 12$$



$$4 \times 2 = 8$$

$5 \times 2 = 10$  deb bayroqchani oldingi partadagi o'quvchiga uzatadi. Shu orqali barcha partadagi o'quvchilarga bayroqcha uzatiladi, to'xtab qolgan guruh o'yindan chiqadi. O'quvchilar aytgan har bir misolni doskaga yoki qog'ozga yozib chiqsalar, o'yin mavzuni mukammal o'zlashtirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.E Jumayev, E.E Jumayev, N.A. Adilxanova. “Matematika o'qitish metodikasi”. Toshkent – “Ilm Ziyo” – 2003.
2. ziyonet.uz
3. arxiv.uz



## ИНТЕГРАЦИОН ТАЪЛИМ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРДА ЭКОЭТИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК МАЗМУНИ

Хамрақулов Жаҳонгир Бахтиёрвич,  
Фарғона давлат университети технологик  
таълим кафедраси ўқитувчиси  
jahongirhamrokulov0@gmail.com

**АННОТАЦИЯ.** Ушбу мақолада интеграцион таълим асосида талабаларда экоэтик компетентликни ривожлантиришнинг педагогик мазмуни ҳақида сўз юритилади.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** экология, этика, компетентлик, экологик этика, экологик онг, глобал экологик муаммолар, интеграцион таълим, экоэтик компетентлик.

Экологик вазиятнинг кескинлашуви, табиатни муҳофаза қилиш соҳасидаги фаоллик ва масъулиятни ошириш воситаларини такомиллаштириш масалаларини кенгрок миқёсда кун тартибига кўймоқда. Шунинг учун ҳам шахс экоэтик компетентликнинг муҳим кўрсаткичлари – экологик билим, кўникма ва масъулиятни шакллантирувчи омилларни ўрганишга интилишнинг кучайиши тасодифий эмас.

Жамият тараққиётининг турли босқичларида инсон экологик сифатларини белгалайдиган ижтимоий муносабатларни тарбиялаш усуллари ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган. Шу боис, бошқа ижтимоий тарбия соҳалари ўз йўналишларини, воситаларини экологик эҳтиёж ва манфаатларга ҳамиша мослаштириб турган. Шубҳасиз, ҳар қандай жамиятда ахлоқий, ҳуқуқий, диний, сиёсий тарбия мажмуалари ўзига хос аҳамиятга эга. Лекин ер куррасидаги экологик вазиятнинг ҳалокат ёқасига келиб қолиши билан инсон сифатларининг экологик хусусиятларини тарбиялаш муаммолари ижтимоий муносабатларнинг экологиялашиш тенденцияси, таълим-тарбиянинг янги вазифаларини белгилаб бермоқда.

Жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий, маънавий-сиёсий ривожланиш эҳтиёжлари, табиий атроф-муҳитни муҳофаза қилиш зарурияти таълим-тарбия мажмуасини илмий ташкил қилишнинг асосий вазифаларини, йўналишларини белгалаб берди. Ҳозирги даврга келиб, талабаларнинг экологик назарий ва амалий фаоллигини, масъулиятини ривожлантириш умумдавлат сиёсатининг таркибий қисмига айланмоқда. Бу вазифани ҳал қилиш самарадорлиги турли тарбия соҳаларининг ўзаро боғланиш ва ривожланиш диалектикасидаги муҳим тамойилларни тушуниш заминидан ижтимоий, иқтисодий, маънавий тарбия йўналишларини экологиялаштириш асосидагина амалга оширилиши мумкин.

Талабаларда экологик этиканинг ривожланиш даражаси, биосфера мувозанати ҳақидаги назарий билимларни табиатни муҳофаза қилиш вазифалари билан боғлай олишларида намоён бўлади. Шунинг ҳам таъкидлаш керакки, ҳатто табиат муҳофазасига доир етарли билим даражасига эга бўлган талабанинг экологик сифатларини ҳам осонликча шакллантириб бўлмайди. Бунинг учун экологик билимлар мажмуаси жамиятнинг экологик манфаатлари билан боғланиб, унинг ҳаётий эҳтиёжларга айлансагина, у кутилган натижаларни бериши мумкин. Айтайлик, талаба табиатни муҳофаза қилишнинг заруриятини англайди, лекин ўзининг кундалик фаолиятида бунга амал қилмаслигининг, лоқайдлигининг сабаби экологик билимларнинг эътиқодга, ахлоқий нормага айланмаганлигига бориб тақалади.

Талабаларда экологик ахлоқ доирасида экологик масъулиятнинг ривожланишида таълим-тарбиянинг ўзаро боғлиқ бўлган икки вазифасини бир-биридан фарқлаш мақсадга мувофиқ. Биринчиси – табиатни муҳофаза қилишнинг маънавий-тарихий қадриятлари асосида илмий экологик тафаккурни, дунёқарашни шакллантириш. Иккинчиси – экологик масъулиятни ижтимоий ҳаётга татбиқ қилишнинг амалий имкониятларини, услуб ҳамда воситаларини такомиллаштиришдан иборат. Бу икки йўналишнинг яхлит манфаатлар асосида уйғунлашуви, пировард натижада, табиатга экологик фаол муносабатнинг вужудга келишида катта роль ўйнайди.

Экологик масъулиятнинг шаклланиши ўз-ўзидан, стихияли, автоматик тарзда содир бўладиган ижтимоий ҳодиса эмас, балки турли даражадаги таълим-тарбия муассасаларининг мақсадга мувофиқ фаолиятини тақозо қилади. Бунда объектив шарт-шароитлар экологик масъулиятнинг шаклланишига имконият яратса, субъектив омиллар эса, уларни воқеликка айлантиради. Экологик масъулиятни шакллантиришнинг зарурий шартларидан бири,



“табиат-жамият” муносабатларини илмий тушуниш асосида, экологик онгнинг вужудга келишдаги объектив ва субъектив сабабларни ҳамда уларнинг ривожланиш механизмларини аниқлашдан иборат.

Бу талаблардан келиб чиққан ҳолда, талабаларнинг экологик масъулиятини тарбиялашда, ўзаро боғлиқ бўлган икки тенденция кўзга ташланади: Биринчидан, объектив экологик муносабатларни билиш тегишли фаолиятнинг воситаси ҳамда натижаси сифатида мавжуд. Иккинчидан, амалий экологик муносабатларни ташкил қилиш ва бошқариш мазкур фаолиятнинг бевосита жараёнини намоён қилади. Дарҳақиқат, табиатни муҳофаза қилиш соҳасидаги экологик ахлоқий муносабат моддий-маънавий фаолият бўлиб, табиатни ўзлаштириш мақсадлари йўлидаги экологик талаблар асосида уни ўзгартиришдир.

Табиатни муҳофаза қилиш соҳасидаги таълим-тарбияни босқичма-босқич, узлуксиз ташкил қилишда оила, мактабгача тарбия муассасалари, мактаб, ўқув юртлари, меҳнат жамоалари тизимига таяниш нисбатан кенг тарқалган. Бу схеманинг тарихий ва мантикий тамойилларига асосланиб, таълим-тарбия узлуксизлигини таъминлашга шубҳа йўқ. Бироқ ҳозирги куннинг кечиктириб бўлмайдиган долзарб экологик муаммолари ҳамма бўғинларда бу ишни оммавий тарзда кучайтиришни тақазо қилмоқда. Айниқса, табиатни муҳофаза қилиш ишларининг самарадорлигини ошириш учун талабалар онгидаги чуқур ўрнашиб қолган лоқайдлик, “ўзибўларчилик” кайфиятини бартараф қилиш биринчи навбатдаги вазифа бўлиб, катта аҳамиятга эга. Зеро, бугун талабаларнинг экологик масъулиятини барча воситалар билан ошириш эртагаёқ, ўз самарасини бериши мумкин. Бу жараёнда экологик тарбия табиатга нисбатан назарий қарашларни шакллантиришдан иборат бўлмасдан, амалий тайёргарликни ҳам назарда тутади. Зеро, экологик таълим-тарбиянинг энг асосий вазифаларидан бири кундалик ҳаётий фаолиятларда табиат ва жамият ўртасидаги зиддиятларни назарий асослаш, амалий ечимларини мустақил топиш йўналишларидан иборат.

#### **Адабиётлар:**

1. Абдуллаев З. Экологические отношения и экологическое сознание. Тошкент: Зиё. – 2004.
2. Нигматов А. Экологиянинг назарий асослари. Тошкент. – 2013.
3. Нигматов А., Абдуназаров Л., Мухамедов Ш. Касбий экологик таълим ва тарбия. Тошкент: Иқтисодиёт-молия. – 2016.
4. Нигматов А.Н., Абдуназаров Л.М., Мухамедов Ш.Н. Касбий экологик таълим ва тарбия.– Тошкент: Iqtisod-Moliya. – 2016.
5. Хошимова И. Диалектика глобального, регаонального и локального в экологии: Автореф. дисс. ... докт. филос. наук. – Ташкент. – 1992.



## MILLIY HARAKATLI O‘YINLAR VA ULARNING BOLA TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI

**Xojamov Umid Yuldashovich**

Bog‘ot tumani 41-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (93) 466 06 70

xojamov.umid\_41@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola milliy harakatli o‘yinlar va ularning bola tarbiyasida tutgan o‘rni haqida.

**Kalit so‘zlar:** Milliy o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, sport, animatsiyalar.

Yosh avlodning jismonan sog‘lom, aqlan yetuk bo‘lib o‘shishlarida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati kattadir. Respublikamizda jismoniy tarbiya sportni rivojlantirishga bo‘lgan e‘tibor davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Bu borada qabul qilinayotgan qonunlar jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirishga keng yo‘l ochib bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil sentabr oyida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishida bolalar sporti inshootlarini barpo etishda zamonaviy tejamkor texnologiyalardan foydalanish masalalariga ham e‘tibor qaratishi lozimligini ta‘kidladi. Milliy sport turlarining jahon maydoniga chiqishi, uning tan olinishi ajdodlarimizning azaliy orzusi, umidlari ushlanganligining yaqqol dalilidir. Milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish jarayonida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak:

O‘zbek xalq milliy o‘yinlarining mazmunlarini yozib olish, ularni yoshlarga o‘rgatish masalalari, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bunda rus sayyohlari, arxeologlar va tarixiy qidiruvishlarini olib boruvchi olimlarning rolini tan olish kerak bo‘ladi. Harakatli o‘yinlar o‘z nomi bilan inson faoliyatini ta‘minlovchi mazmunga egadir. Bu eng qadimgi ajdodlarimiz ha ongli ravishda chuqur bilishgan va amal qilishgan. Ta‘kidlanganidek, kurash, ot o‘yinlari, kamondan (yoy) nayza (o‘q) otish, nayza sanchish, kaltak, tosh va boshqa moslamalarni uloqtirib hayvonlarni ov qilishgan.

Yovvoyi-yirtqich hayvonlardan saqlanish, ov qilish jarayonlarida ephillik, kuchlilik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlar sarf qilinishini tushungan qabila, urug‘ boshliqlari yoshlarni maxsus tayyorlashga kirishgan. Bunda jismonan baquvvat, ephil kishilarni tarbiyachi yo‘liga o‘rgatib ulardan bolalarni tarbyalashda foydalanilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy xalq o‘yinlaridan foydalanishda, ularni qo‘llashda shuni hisobga olish kerakki, bu yoshdagi bolalar aniqlikni talab etadigan mayda harakatlarga qaraganda keng kuchli harakatlarga ancha moyil bo‘ladilar. Buni bolalar yosh davrlarini ishlab chiqqan buyuk pedagog Ya. N. Komenskiy ha o‘z vaqtida ta‘kidlagan edi. Umuman bu yoshda bolalar juda ham harakatchanligi bilan ajralib turadi. Harakatchanlik esa maxsus oqilona tashkil etilishini harakatga soluvchi yurish-turish shakllarining to‘g‘riligini talab etadi. Bolalarning bu yoshida tormozlanish va qo‘zg‘alish jarayonlarini muvozanatligini yuzaga keltirishda kattalar talabining tizimlilik va o‘zini tuta bilishga odatlantirish kata rol o‘ynaydi. Milliy o‘zbek o‘yinlarini yoshlar, ayniqsa maktab o‘quvchilari sevib, maroq bilan o‘ynamoqdalar. Bunday o‘yinlar jismoniy tarbiya darslaridagina emas, balki hovlilar va bog‘, parklarda dam olish soatlarida o‘ynaladi. Muhim sifatlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlarga doir bayon qilingan material ko‘proq o‘yin tarzida beriladi, lekin mashqlarni tushuntirish va faol dam olish uchun qisqacha pauzalar bo‘lgan kichik dozada uzluksiz bajariladi. O‘yin mashqlaridan keyin bo‘shashtiradigan, ohista yuriladigan mashqlarni yoki diqqat-e‘tiborini o‘stiradigan mashqlarni berish lozim.

Jismoniy tarbiya oldida jismoniy madaniyat va sportni xalqimizning hayotiga ko‘proq singdirish, yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning barcha turli-tuman shakllaridan, jumladan, xalq an‘analaridan keng foydalanish, insonlarning sog‘ligini yaxshilash va ularni Ona Vatan. Mudofaasiga tayyorlash va shu singari kata vazifalar turibdi. Xalqimizning milliy o‘yinlari esa ana shu maqsadda keng qo‘llanib kelinayotgan muhim jismoniy va sport vositalaridan biridir. Shuning uchun xalq milliy harakatli o‘yinlariga e‘tiborni kuchaytirish zaruriyati yanada yaqqol ko‘rinmoqda. Milliy xalq o‘yinlari va milliy sport turlari tarixiy taraqqiyot



